

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida**

**UDK: 338.48.:629(575.1)**

**KADIROVA SHAFOT XABIBULLOYEVNA**

**“O‘ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA  
TRANSPORT XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH  
YO‘LLARI”**

**Mutaxassislik: 5A610301 – Turizm (ichki va xalqaro turizm)**

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: \_\_\_\_\_**

**i.f.n., dotsent Jo‘rayev A.T.**

**Buxoro – 2019**

Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti “Turizm va mehmonxona xo‘jaligi”  
kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar: \_\_\_\_\_i.f.n., dotsent Jo‘rayev A.T.

Rasmiy opponet: \_\_\_\_\_i.f.d., professor Navro‘z-zoda B.N.

Kafedra mudiri: \_\_\_\_\_i.f.n., dotsent Ro‘ziyev S.S.

Magistratura bo‘limi boshlig‘i v.v.b.: \_\_\_\_\_ PhD, To‘rayev A.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**Fakultet:** Iqtisodiyot va turizm  
**Kafedra:** Turizm va mehmonxona  
xo‘jaligi  
**O‘quv yili:** 2018-2019

**Magistratura talabasi:** Kadirova Sh.X.

**Ilmiy rahbar:** i.f.n., dots. Jo‘rayev A.T.

**Mutaxassisligi:** 5A610301 –  
Turizm (ichki va xalqaro turizm)

**“O‘ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT  
XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI”  
MAVZUSIDAGI MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI**

**Mavzuning dolzarbligi:** Turizm sohasini tashkil etuvchi asosiy infratuzilmalar bo‘lib joylashtirish vositalari, umumiy ovqatlanish xizmati va transport xizmati hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, turizm sohasini rivojlantirishda transport xizmatlari asosiy o‘rin egallaydi. Turizm sohasini rivojlantirishda turizm infratuzilmasi holati ahamiyatli hisoblanadi. Shuningdek, mamlakatimizga tashrif buyuruvchi sayyohlarning kun sayin oshib borayotganligi, sohaning rivojlanishiga davlat miqyosida e‘tibor qaratilib, vizasiz tashriflarning joriy etilishi aynan transport xizmatlarini takomillashtirishni talab etadi. Transport xizmatlarining rivojlanishi va takomillashib borishi sayyohlar uchun qulayliklar yaratib, ularning sayohatlarini yengillashtiradi. Bu orqali turizmning mamlakatda taraqqiy etishiga erishish mumkin. Magistirlik dissertatsiyasi turizmning mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmog‘i sifatida taraqqiy etishida dolzarb hisoblanib, O‘zbekistonda, xususan Buxoro viloyatida transport xizmatlarini takomillashtirish orqali turizmni rivojlantirishga bag‘ishlangan.

**Ishning maqsadi** mamlakat va viloyat hududida transport xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** ilmiy ishning maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagilardan iborat qilib belgilandi: transport xizmatlarining nazariy asoslarini qiyosiy tahlil qilish; transport xizmatlari ko'rsatishning xalqaro standartlari tuchunchasi va ichki tuzilishini yoritib berish; O'zbekistonda ko'rsatilayotgan transport xizmatlari tahlilini olib borish; turizmda axborot texnologiyalari va GATlarning tutgan o'rnini yoritish; GATning O'zbekistonda transport xizmatlarida qo'llanilish holatini tahlil qilish; "Easy taxi", "My taxi", "Yandex taxi" va "Yoko taxi" transport tashkilotlari faoliyati tahlilini olib borish; O'zbekistonda transport xizmatlarini ko'rsatishda GATlardan foydalanishni takomillashtirish yo'llarini; "Buxoro-1 – Labi Hovuz" va "Buxoro – 7 Pir" yangi transport marshrutlarini ishlab chiqish va joriy etish; Rivojlangan mamlakatlarda online transport xizmatlarini ko'rsatilishini tahlil qilish; "Easy tickets" online chiptalar transport xizmatini ko'rsatishni tashkil etish yo'llarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** Tadqiqot obyekti – hududiy transport tashkilotlari, shuningdek, jamoatchilik transporti tashkilotlari.

**Ishning predmeti** ichki va xalqaro turizmni rivojlantirishda transport xizmatlarini takomillashtirishga qaratilgan jarayonlar bo'lib hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** qiyosiy tahlil va dala tadqiqot usulidan foydalanildi va uning natijalari tadqiqot asosi qilib olinadi. Unda guruhlash, taqqoslash, sistemali yondashish, analiz va sintez kabi usul va uslublardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

Mamlakatdagi transport tashkilotlari, xususan "Easy taxi", "My taxi", "Yandex taxi" va "Yoko taxi" transport tashkilotlari faoliyati tahlili olib borilgan;

"Buxoro-1 – Labi Hovuz" transport marshrutini qayta tiklash bo'yicha amaliy ishlar olib borilgan;

“Buxoro – 7 Pir” yangi transport marshrutini tashkil etish va joriy etish yo‘llari ishlab chiqilgan;

Rivojlangan mamlakatlarda onlayn transport xizmatlarini tashkil etilganligi tahlili asosida O‘zbekistonda “Easy tickets” onlayn transport xizmatlarini tashkil etish yo‘llari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tadbiqu.** Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Buxoro viloyatida “Buxoro-1 – Labi Hovuz” transport marshrutining yo‘lga qo‘yilishi mustaqil harakatlanuvchi sayyohlar sonini ko‘paytirish va ularga qulay sharoit yaratishga olib keladi. “Buxoro – 7 Pir” yangi transport marshruti esa viloyatda va mamlakatda ziyorat va diniy turizmni rivojlanrtirishda qulay shart-sharoitlar yaratib beradi. “Easy tickets” onnline trasnport xizmatini tashkil etish orqali esa O‘zbekistonda jamoat transportlarining yuqori darajada ko‘rsatilishi, uni tizimli boshqarish va masofaviy nazorat qilish uchun imkoniyat yaratadi. Magistrlik dissertatsiyaning ilmiy xulosalari xalqaro turizm raqobat ustunligini oshirish uchun uslubiy asos sifatida xizmat qilishi mumkin. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 6 ta ilmiy ish, shu jumladan, 4 ta maqola, bundan 2 tasi xorijiy jurnalda va 2 ta ilmiy tezis konferensiya materiallari shaklida e‘lon qilingan.

**Ish tuzilishi va tarkibi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, adabiyotlar ro‘yxatidan tarkib topgan. Dissertatsiyaning birinchi bobi «Transport xizmatlarini ko‘rsatish turizmning muhim infratuzilmasi sifatida» deb nomlanib, ikkinchi bobi «Turizmda trasnport xizmatlarini takomillashtirishda GATlardan foydalanish»ga va uchinchi bobi «O‘zbekistonda transport xizmatlarini takomillashtirish yo‘llari»ga bag‘ishlangan.

**Bajarilgan ishning asosiy natijalari.** “Buxoro-1 – Labi Hovuz” hamda “Buxoro – 7 Pir” yangi transport yo‘nalishlari Buxoro viloyat turizmni rivojlantirish departamenti mutaxassislari tomonidan o‘rganib chiqilib, takliflar amalga oshirilganda sayyohlarga qulayliklar yaratilishini inobatga olgan holda joriy etish maqsadga muvofiq ekanligi ma‘lum qilingan holda, 2019-yil 1-iyun

kuni 01-04/699-sonli xat bilan javob berildi. Shuningdek, ushbu takliflarni joriy etish maqsadida mazkur yo‘nalishlarda transport qatnovini yo‘lga qo‘yishda amaliy yordam ko‘rsatilishi so‘rab Buxoro viloyat transport boshqarmasi boshlig‘i A.Ashurovga murojaat qilindi.

**Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilgan ifodasi.** Tadqiqot jarayonida olingan ilmiy xulosa va takliflar quyidagilardan iborat:

1) O‘zbekistonda transport xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha davlat tomonidan katta e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu normativ hujjatlarda belgilangan vazifalarni belgilangan muddatda amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida xususiy sektorga alohida e‘tibor qaratish lozim.

2) Xalqaro transport xizmatlarini ko‘rsatish standartlarini o‘rganib chiqqan holda mamlakatdagi transport korxonalarining xizmat ko‘rsatish imkoniyatlaridan kelib chiqib milliy standartni ishlab chiqish. Shuningdek, shu standartlarga mos transport xizmatlarni joriy etish uchun transport xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalar va ularning xodimlariga xalqaro standartlarni o‘rgatish, master-klasslar, seminar-treninglarni tashkil etish va ularda ishtirok etishini ta‘minlash.

3) O‘zbekiston turistik hududlarida, keyinchalik butun mamlakatda mavjud imkoniyatlarni inobatga olgan holda rivojlangan mamlakatlar onlayn transport xizmatlarini ko‘rsatish tajribasini qo‘llash.

4) Sifatli va xavfsiz transport xizmatlarini ko‘rsatishni ta‘minlash maqsadida O‘zbekistondagi turistik hududlardagi taksi xizmatini ko‘rsatuvchi ayrim transport korxonalarini bugungi kunda GATlarga asoslangan dasturlardan foydalanmoqda. Transport xizmatlarini ko‘rsatishda GATlardan foydalanish sayyohlarga katta qulayliklar yaratib beradi. Shunday ekan transport xizmatlarini ko‘rsatishda barcha hududlardagi korxonalarda GATlardan foydalanishni joriy etish lozim.

5) Buxoro viloyatida ilgari mavjud bo‘lgan “Buxoro-1 – Labi Hovuz” transport marshrutini qayta tiklash va “Buxoro – 7 Pir” aylanma transport marshrutini joriy qilish.

6) Aholi gavjum hududlarda online elektron chiptalarni joriy qilish va ommaga keng targ‘ib qilish muhim. Ayniqsa aeroport, vokzal va boshqa bekatlarda transport xizmatlari haqida ma’lumot beruvchi elektron tablolarini joriy qilish lozim.

7) “Easy tickets” online transport xizmatlari loyihasini hayotga tadbiq etish orqali ortiqcha sarf-xarajatlarning sarflanishi, aholi va sayyohlar uchun vaqtning tejalishi, chiptalarni nashr etish uchun sarflanadigan xarajatlarning tejalishi va atrof-muhit tozaligini oshirishga erishish mumkin.

Ilmiy rahbar

\_\_\_\_\_ i.f.n., dots. Jo‘rayev A.T.

(imzo)

Magistratura talabasi

\_\_\_\_\_ Kadirova Sh.X.

(imzo)

**ANNOTATION OF DISSERTATION FOR THE MASTER’S DEGREE ON  
THE THEME “THE WAYS OF IMPROVEMENT OF  
TRANSPORT SERVICES IN TOURISM DEVELOPMENT IN  
UZBEKISTAN”**

**The actuality of the theme of dissertation.** The pivotal infrastructures forming the tourism sector are the means of settlement, general eating services and transports. Thus, the state of transport services plays the essential role in the field. In addition, the sharp increase in the number of visitors and the introduction of visa-free visits demand the great attention to the tourism sector, especially to the development of the transport services. The enhancement of the sector makes the travels more comfortable and relaxing. It might lead to the high progress of the country. This dissertation is an actual for developing the tourism as a pivotal direction of the economy in the republic and is aimed at analyzing the ways of further improving the transport services in Uzbekistan, mainly, in Bukhara.

**The aim of the dissertation.** It includes to work out the practical suggestions and to introduce scientific-methodical instructions on further improving the transport services in Uzbekistan, mainly, in Bukhara.

**The tasks of the dissertation.** The above-mentioned aims put following tasks for us:

- to interpret theoretical basis of transportation comparatively;
- to highlight the international standards of transport servicing and inner structure;
- to analyze the transport services in Uzbekistan;
- to show the role of GIS and information technologies in tourism;
- to give information about the use of GIS in the transport services in Uzbekistan;
- to analyze the activity of “Easy taxi”, “My taxi”, “Yandex taxi” and “Yoko taxi”;



- to implement further improvement of the use of GIS in the transport services in Uzbekistan;

- to introduce the novel routes in the directions “Bukhara-1 – Labi-havuz” and “Bukhara – 7 Pir”;

- to study the online transport services in the well- developed countries;

- to work out the ways of imposing online ticket service “Easy tickets”.

**The object and the subject of the dissertation.** The objects of the dissertation are regional transport organizations and public transport organizations. The subjects are the processes concerning the further improvement of transport services in the development of domestic and international tourism.

**The methods of the dissertation.** In this research methods of comparative analysis and field research were used. Furthermore, the methods of classification, comparison, system approach, analysis and synthesis were also useful.

**Practical and theoretical value of the research.** The practical value of the research is that the introduction of the novel route in the direction “Bukhara-1 – Labi-havuz” results in the sharp increase of autonomous tourists and effects on the quality of the travel. On the other hand, the other new direction of “Bukhara – 7 Pir” brings in the best privileges in the improvement of religion and pilgrimage tourism in Bukhara and in the Republic. Imposing online ticket service “Easy tickets” gives way to the best public transport services and to the remote control of the system in Uzbekistan. The scientific conclusions of the master research serve as the methodological basis of the growth in the international tourism competition. Totally 6 scientific works on the theme of the dissertation, including 4 scientific articles (two of them were printed in international magazines and the two thesis were published as references in conference materials) have been introduced.

**The structure of the dissertation.** MD consists of introduction, three chapters, conclusion and the list of used literature. The first chapter is named “Transport services as the main infrastructure of tourism”, the second chapter gives

information about “The use of GIS in the development of transport services in Uzbekistan” and the third chapter studies “The ways on further improvement of transport services in Uzbekistan”.

**The main results of the research.** The novel routes in the directions “Bukhara-1 – Labi-havuz” and “Bukhara – 7 Pir” have been studied by the experts in the Regional Department for Tourism Development and Letter №01-04/699 was the reply on June 1, 2019, due to imposing the new facilities to realize the practical suggestions. In addition, it was applied to Chairman of the Transport Department, A.Ashurov for the practical assist to introduce the new route.

**Generalization of conclusion and suggestion.** The scientific conclusions and suggestions according to the dissertation are as the following:

- 1) A great attention is paid to the transport services by the authority. The private sector must be improved to realize the tasks determined in the official documents.
- 2) The national standards are likely to be introduced after studying the international transport servicing. Furthermore, to organize teaching classes for the staff of service organizations and master classes, seminar-trainings are due to be hold to meet the determined standards.
- 3) To test the experiences of online transport servicing in well-developed countries, taking into consideration the available touristic potentials of touristic destinations in the Republic and furthermore, of the whole country.
- 4) The vast majority of transport companies are using the GIS-based programs in order to supply the high-quality and safe transport services in Uzbekistan. It enables tourists to have a great deal of facilities. Thereby, the likely programs are to be implemented in the relative companies of all the regions.
- 5) It is necessary to reintroduce the former route “Bukhara-1 – Labi-Havuz” and to organize the rotational route “Bukhara - 7 Pir” .

- 6) It is a good idea to impose online tickets in the densely populated areas and to promote it in the public. Mainly, digital tabloids will be of a great use in the airports, train stations and in the bus-stops, as well.
- 7) The online transport servicing “Easy tickets” results in less effort, fewer expenses. In turn, it saves firstly, our time, secondly, our nature and at last, our money.

Scientific supervisor: \_\_\_\_\_ Juraev A.T., PhD

Master student: \_\_\_\_\_ Kadirova Sh.X.

## MUNDARIJA

|   |            |
|---|------------|
| <b>Kirish</b> .....   | <b>13</b>  |
| <b>I Bob. Transport xizmatlarini ko‘rsatish turizmning muhim infratuzilmasi sifatida</b> .....                                    | <b>18</b>  |
| 1.1. Turizmda transport xizmatlarini tashkil etishning muhim jihatlari .....  | 18         |
| 1.2. Transport xizmatlarini ko‘rsatishning xalqaro standartlari .....   | 25         |
| 1.3. O‘zbekistonda transport xizmatlari tahlili .....   | 31         |
| <b>I bob bo‘yicha xulosa</b> .....  | <b>41</b>  |
| <b>II Bob. Turizmda transport xizmatlarini takomillashtirishda GATlardan foydalanish</b> .....                                    | <b>43</b>  |
| 2.1. Turizmda axborot texnologiyalari va GATlarning tutgan o‘rni .....  | 43         |
| 2.2. GATning O‘zbekistonda transport xizmatlarida qo‘llanilish holati .....   | 52         |
| 2.3. O‘zbekistonda transport xizmatlarini ko‘rsatishda GATlardan foydalanishning afzalliklari va takomillashtirish yo‘llari ..... | 63         |
| <b>II bob bo‘yicha xulosa</b> .....   | <b>70</b>  |
| <b>III bob. O‘zbekistonda transport xizmatlarini takomillashtirish yo‘llari</b> ...   | <b>72</b>  |
| 3.1. Turizmni rivojlantirishda yangi transport marshrutlarini joriy qilishning ahamiyati .....                                    | 72         |
| 3.2. Turistik hudularda onlayn transport xizmatlarini ko‘rsatishni rivojlantirish.  | 79         |
| 3.3. O‘zbekistonda transport xizmatlarini ko‘rsatishni tizimli takomillashtirish ..   | 88         |
| <b>III bob bo‘yicha xulosa</b> .....  | <b>93</b>  |
| <b>Xulosa</b> .....   | <b>95</b>  |
| <b>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati</b> .....   | <b>99</b>  |
| <b>Ilovalar</b> .....   | <b>106</b> |

## K I R I S H

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi.** Turizm sohasini tashkil etuvchi asosiy infratuzilmalar: joylashtirish vositalari, umumiy ovqatlanish xizmati va transport xizmati hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, turizm sohasini rivojlantirishda transport xizmatlari asosiy o‘rin egallaydi. Transport xizmatlarining rivojlanishi va takomillashib borishi sayyohlar uchun qulayliklar yaratib, ularning sayohatlarini yengillashtiradi. Bu orqali turizmning mamlakatda taraqqiy etishiga erishish mumkin. Magistirlar dissertatsiyasi turizmning mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmog‘i sifatida taraqqiy etishida dolzarb hisoblanib, O‘zbekistonda, xususan Buxoro viloyatida transport xizmatlarini takomillashtirish orqali turizmni rivojlantirishga bag‘ishlangan.

**Mavzuning o‘rganilganlik darajasi.** Mavzuni o‘rganish jarayonida mahalliy va xorijiy olimlarning fikrlari o‘rganiladi. Masalan, Aleksandra Lapko o‘zining ilmiy maqolasida hududda turizmni rivojlantirishda asosiy rolni shahar arxitekturasi va madaniy yodgorliklari bilan birgalikda ovqatlantirish, joylashtirish va transport xizmatlari asosiy o‘rin tutishini ta’kidlab o‘tgan.<sup>1</sup>

Respublikamiz mustaqillika erishgandan so‘ng, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tub islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, bunday islohot turizmni rivojlantirish sanalib, ushbu sohani rivojlantirishga davlat tomonidan ustuvor ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa, turizmning izchil rivojlanishi natijasida transport, bozor infratuzilmasi, savdo-sotiq, oziq-ovqat, qurilish, hunarmandchilik va boshqa xizmat ko‘rsatish tarmoqlari taraqqiy qiladi. Shuningdek, mamlakat turizm infratuzilmasini samarali shakllantirishda xorijiy mamlakatlardan qolishmaydigan imkoniyatlarga egaligi bu borada ko‘plab muvaffaqiyatlarga erishishni ta’minlovchi asosiy manba hisoblanadi. Chunki, transport infratuzilmasi temir yo‘l

---

<sup>1</sup> <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1877042814054627>

aloqalari va avtomobil yo'llari tarmoqlari, aeroportlar, dengiz portlari sanaladi.<sup>2</sup> Hamda transport infratuzilmasi sifat xarakteristikasi zamonaviy shina transport vositalari mavjudligi hisoblanadi. Ana shularni hisobga olgan holda, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, hozirgi kungacha zamon talablariga javob beradigan turizm infratuzilmasini tarkib toptirish va rivojlantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar o'z ijobiy natijalarini berib kelmoqda.<sup>3</sup>

**Tadqiqotning maqsadi.** O'zbekistonda turizmni rivojlantirish maqsadida, transport xizmatlarini takomillashtirish, transport xizmatlarini elektronlashtirish va xizmat sifatini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish va ularni hayotga tadbiiq etish.

**Tadqiqotning vazifalari.** Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda, quyidagi vazifalar belgilandi:

- Turizmda transport xizmatining nazariy asoslarini o'rganish;
- O'zbekistonda transport xizmatlarini ko'rsatishning me'yoriy-huquqiy jihatlarini o'rganish;
- Transport xizmatlarining ichki va xalqaro turizmga, shuningdek, iqtisodiyotdagi salmog'ini iqtisodiy tahlil qilish;
- Transport xizmatlarini takomillashtirishning xorijiy tajribalarini o'rganib chiqish;
- O'zbekistonda transport xizmatlarini takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- Transport xizmatlarini elektronlashtirish va xizmat sifatini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berish.

**Tadqiqotning obyekti:** Tadqiqot obyekti – hududiy transport tashkilotlari, shuningdek, jamoatchilik transporti tashkilotlari.

**Tadqiqotning predmeti:** ichki va xalqaro turizmni rivojlantirishda transport xizmatlarini takomillashtirishga qaratilgan jarayonlar bo'lib hisoblanadi.

---

<sup>2</sup> Mamatqulov X. M. Xizmat ko'rsatish sohasiga oid atamalar va iboralar izohli lug'ati. — T.: Iqtisod-moliya. 2010. — 268–269 b.

<sup>3</sup> Чупонов С. О. Хоразм viloyatida turizmni rivojlantirishda transport infratuzilmasining roli // Молодой ученый. — 2017. — №24.1. — С. 33-35. — URL <https://moluch.ru/archive/158/44585/> (дата обращения: 10.04.2019).

**Tadqiqotning metodologik asosi va usullari:** O‘zbekiston Respublikasining sohaga oid qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, farmon va qarorlari, Vazirlar mahkamasining qarorlari, O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi va hududiy boshqaruv organlari tomonidan ishlab chiqilgan me‘yoriy hujjatlar kabilarga tayanildi. Magistrlik dissertatsiyasini yozish jarayonida qiyosiy tahlil va dala tadqiqot usulidan foydalanildi va uning natijalari tadqiqot asosi qilib olinadi. Unda guruhlash, taqqoslash, sistemali yondashish, analiz va sintez kabi usul va uslublardan foydalanildi.

**Mavzu bo‘yicha qisqacha adabiyotlar tahlili.** Turizm sohasida transport xizmatlarini ko‘rsatishni tashkil etish va takomillashtirish masalalarida ilmiy izlanishlarni bir qator mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar olib borgan borgan. Jumladan, S.Cho‘ponov o‘zining “Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirishda transport infratuzilmasining roli” mavzusidagi ilmiy maqolasida transport sayohat sifatida turli transport vositalaridan foydalanib, ishlab chiqilgan yo‘nalishlar bo‘yicha turistlar guruhlarining sayohati sanaladi<sup>4</sup> deb ta’kidlagan bo‘lsa, G. Kutepova o‘zining “Turizmda transport xizmatlarini tashkil etish” mavzusidagi ilmiy maqolasida turizm sohasi butunlay transport xizmatlari oqimi, tezligi, xizmatlar sifati, o‘z vaqtida ko‘rsatilishiga bog‘liq<sup>5</sup> deb hisoblaydi. Shuningdek, Kaspan Eka Putra va Juwita Magdalena Sitanggang o‘zlarining ilmiy maqolalarida butun jamiyatga tegishli bo‘lgan transport tizimi jamoat transporti hisoblanadi, jamoat transportining rivojlanishi esa insonlarning qulay sayohat qilishlarini osonlashtirishga olib keladi<sup>6</sup> deb ta’kidlashadi.

**Tadqiqotning metodologik asosi va usullari:** O‘zbekiston Respublikasining sohaga oid qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, farmon va qarorlari, Vazirlar mahkamasining qarorlari, O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish

---

<sup>4</sup> Чупонов С. О. Хоразм вилоятida turizmni rivojlantirishda transport infratuzilmasining roli // Молодой ученый. — 2017. — №24.1. — С. 33-35. — URL <https://moluch.ru/archive/158/44585/> (дата обращения: 26.06.2019).

<sup>5</sup> Кутепова Г.Н. «Организация транспортного обслуживания в туризме», Транспортное дело России, 2011 <https://cyberleninka.ru/article/n/organizatsiya-transportnogo-obslyuzhivaniya-v-turizme>

<sup>6</sup> Kaspan Eka Putra, Juwita Magdalena Sitanggang “The effect of public transport services on quality of life in Medan city”, Procedia - Social and Behavioral Sciences 234 ( 2016 ) 383 – 389, Science direct.

davlat qo‘mitasi va hududiy boshqaruv organlari tomonidan ishlab chiqilgan me‘yoriy hujjatlar kabilarga tayanildi. Magistrlik dissertatsiyasini yozish jarayonida qiyosiy tahlil va dala tadqiqot usulidan foydalanildi va uning natijalari tadqiqot asosi qilib olinadi. Unda guruhlash, taqqoslash, sistemali yondashish, analiz va sintez kabi usul va uslublardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

Mamlakatdagi transport tashkilotlari, xususan “Easy taxi”, “My taxi”, “Yandex taxi” va “Yoko taxi” transport tashkilotlari faoliyati tahlili olib borilgan;

“Buxoro-1 – Labi Hovuz” transport marshrutini qayta tiklash bo‘yicha amaliy ishlab olib borilgan;

“Buxoro – 7 Pir” yangi transport marshrutini tashkil etish va joriy etish yo‘llari ishlab chiqilgan;

Rivojlangan mamlakatlarda online transport xizmatlarini tashkil etilganligi tahlili asosida O‘zbekistonda “Easy tickets” online transport xizmatlarini tashkil etish yo‘llari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Buxoro viloyatida “Buxoro-1 – Labi Hovuz” transport marshrutining yo‘lga qo‘yilishi mustaqil harakatlanuvchi sayyohlar sonini ko‘paytirish va ularga qulay sharoit yaratishga olib keladi. “Buxoro – 7 Pir” yangi transport marshruti esa viloyatda va mamlakatda ziyorat va diniy turizmni rivojlantirishda qulay shart-sharoitlar yaratib beradi. “Easy tickets” onnline transport xizmatini tashkil etish orqali esa O‘zbekistonda jamoat transportlarining yuqori darajada ko‘rsatilishi, uni tizimli boshqarish va masofaviy nazorat qilish uchun imkoniyat yaratadi. Magistrlik dissertatsiyaning ilmiy xulosalari xalqaro turizm raqobat ustunligini oshirish uchun uslubiy asos sifatida xizmat qilishi mumkin. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 6 ta ilmiy ish, shu jumladan, 4 ta maqola, bundan 2 tasi xorijiy jurnalda va 2 ta ilmiy tezis konferensiya materiallari shaklida e‘lon qilingan.



**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 6 ta ilmiy ish, shu jumladan, 4 ta maqola, bundan 2 tasi xorijiy jurnalda va 2 ta ilmiy tezis konferensiya materiallari shaklida e'lon qilingan.

**Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan. Unda 9 ta jadval, 23 ta rasm, 4 ta diagramma mavjud. Ishning umumiy hajmi 99 betdan iborat.

Kirish qismida Dissertatsiyaning dolzarbligi asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari hamda obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqotning ilmiy yangiligi ko'rsatilgan, Dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «Transport xizmatlarini ko'rsatish turizmning muhim infratuzilmasi sifatida» deb nomlangan bo'lib, unda transport xizmatlarini tashkil etishning muhim jihatlari, xalqaro standartlari yoritilgan hamda O'zbekistonda transport xizmatlari tahlili olib borilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «Turizmda transport xizmatlarini takomillashtirishda GATlardan foydalanish»ga bag'ishlangan bo'lib, unda turizmda axborot texnologiyalari va GATlarning tutgan o'рни, GATning O'zbekistonda transport xizmatlarida qo'llanilish holati, shuningdek, O'zbekistonda transport xizmatlarini ko'rsatishda GATlardan foydalanishning afzalliklari va takomillashtirish yo'llari chuqur ilmiy-amaliy tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «O'zbekistonda transport xizmatlarini takomillashtirish yo'llari»ga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar natijasida qilingan amaliy ishlar bo'lib, unda turizmni rivojlantirishda yangi transport marshrutlarini joriy qilishning ahamiyati, turistik hududlarda onlayn transport xizmatlarini ko'rsatishni rivojlantirish hamda O'zbekistonda transport xizmatlarini ko'rsatishni tizimli takomillashtirish bo'yicha amaliy loyihalar ishlanmasi taqdim etilgan.

Xulosa qismida mamlakatda turizmni rivojlantirishda transport xizmatlarini takomillashtirish yo'llari bilan bog'liq asosiy xulosa va tavsiyalar shakllantirilgan.

## **I BOB. TRANSPORT XIZMATLARINI KO‘RSATISH TURIZMNING MUHIM INFRAUZILMASI SIFATIDA**

### **1.1. Turizmda transport xizmatlarini tashkil etishning muhim jihatlari**

Turistlarga transport xizmatini ko‘rsatish - bu turizm industriyasining eng asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. 1990-yillargacha ham ichki ham xalqaro turizmga xizmat qiluvchi avtomobil, daryo, dengiz, temir yo‘l va aviatsiya transportini o‘z ichiga oluvchi yagona transport tizimi mavjud edi. Barcha turistik xizmatlar tizimidagi transport xizmatining hissasi 40% dan ortiq qismini tashkil qilar edi. Transport sayohatlari turizmning mustaqil ko‘rinishi sifatida qaraladi.<sup>7</sup>

Transport sayohati - bu turli xil transport vositalaridan foydalanib ishlab chiqilgan yo‘nalishlar bo‘yicha turistlar guruhlarining sayohatidir. Transport sayohatlari quyidagicha tasniflanadi, ya’ni:

- harakatlanish yo‘nalishi (marshruti) bo‘yicha;
- foydalanilayotgan transport turi bo‘yicha;
- yo‘nalish trassasining qurilishi bo‘yicha;
- sayohatning muddati bo‘yicha;
- mavsumiylik bo‘yicha va h.k.<sup>8</sup>

Hozirgi davrda avtobus, havo yo‘li va temir yo‘li vositasidagi sayohatlar keng tarqalgan. Turistik transport sayohatlari bir necha transport turlari orqali ya’ni: temir yo‘ldan avtobus (yengil avtomobil); havo yo‘lidan avtobus va h.k. amalga oshiriladi. Mobil transporti turi sifatida avtobus va yengil avtomobildan mustaqil yo‘nalishlardagi kabi turistlarni aeroportdan (vokzaldan) mehmonxonaga yoki aksincha olib borib qo‘yishda keng foydalaniladi. Har qanday turist o‘z sayohatini rejalashtirayotganda manzilga olib borish (yetkazish) tezligi, sayohat qulayligi (komforti), qiymati, yuklarini olib borish (ularning og‘irligini hisobga

---

<sup>7</sup> <http://uz.denometr.com/docs/768/index-212156-1.html?page=7>

<sup>8</sup> <http://genderi.org/zbekiston-respublikasi-olij-va-rta-mahsus-talim-vazirligi-v4.html?page=6>

olgan holda) imkoniyati, to‘xtash joylari, ovqatlanish sharoitlari, shovqin darajasi, vibratsiya, dam olish va (tunash) uxlash jarayonlari, ekologik va albatta xavfsizlik kabi omillarni hisobga oladi. Ijobiy omillar qancha ko‘p bo‘lsa, shunchalik transport sayohatining qiymati oshadi<sup>9</sup>.

Turizm turistlarni mamlakat ichida va tashqarisida bir joydan ikkinchi joyga olib borish (ko‘chirish) va zarur bo‘lsa olib kelishni nazarda tutadi.

Turizmda transport xizmatlari asosiy xizmatlar qatoriga kiritiladi. Ammo ko‘plab transport korxonalarini turizmga taaluqli bo‘lmagan ya’ni oddiy fuqorolarni, pochta va yuklarni ham tashiydilar. Chunki biz bilamizki turizm – bu mavsumiy xarakterga ega. Demak, turistlar tashrifi sussayganda transport korxonalarining ishi ham sussayadi, natijada transport korxonalarini uchun muammolar tug‘ila boshlaydi. Shuning uchun turizmning mavsumiylik xususiyati transport korxonalarini uchun jiddiy muammolarni yuzaga keltiradi.

Turistik mahsulotlar tarkibida turistlarni tashish xizmati yetakchi o‘rinlardan birini egallashi bilan birgalikda yana shu bilan ifodalanadiki, barcha Turistik yo‘nalishlarda (piyodalardan tashqari) sayohatchilarni dam olish yoki ekskursiyaga chiqarish va uyga qaytishi uchun transport bo‘lishi tabiiy hol bo‘lib qolmoqda.

Turizm faoliyat turi sifatida turistlarni doimiy yashash joyidan tashqariga chiqishi bilan uzviy bog‘langan va uni transport ta’minotisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Tashish tizimi turistlarni piyoda bir joydan boshqa bir ikkinchi joyga o‘tkazishni istisno qilganda, texnik taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Turistlarni tashish vositalarini quyidagicha tizimli tasniflash mumkin (1.1.1-rasm).<sup>10</sup>

Turizm faoliyatini transport xizmatlarisiz olib borishni tasavvur qilish qiyin. Transport xizmatlari turizm infratuzilmasining zaruriy elementi hisoblanadi va turistik mahsulotlar tarkibiga kiritilgan xizmatlar majmuining asosiy qismini tashkil etadi.

---


<sup>9</sup> <http://genderi.org/zbekiston-respublikasi-olij-va-rta-mahsus-talim-vazirligi-v4.html?page=6>

<sup>10</sup> <https://studfiles.net/preview/7882892/page:3/>

Turistlarni bir joydan boshqa joyga olib boruvchilar ish bosqichlariga, ularning turistik mahsulot tarkibidagi o‘rniga muvofiq ravishda asosiy va yordamchi tashuvchilarga bo‘linadi. Ish bosqichlariga ko‘ra ularni quyidagilarga bo‘lish mumkin: transfer (ko‘p hollarda avtobus, turistlarni jo‘natish, joyidagi asosiy tashuvchiga yetkazib berish, turistlarni aeroport terminalidan, vokzaldan mehmonxonaga eltish hamda xuddi shu operatsiyalarni turistlar vatanlariga qaytayotganlarida bajarish), turistlarni borishlari kerak bo‘lgan uzoq masofalarga eltish, avtobus va temir yo‘l turlarida marshrut bo‘yicha olib yurish (bunda tashish bosqichi aslida turning zaruriy va asosiy elementi bo‘ladi, tashish vositalari esa, ko‘pincha tunash joylariga aylanadi, bunga dengiz sayohatiga doir marshrutlarni ham kiritish mumkin), ekskursion marshrutlardagi tashish (masalan, shahar bo‘yicha, tematik bog‘lardagi va boshqa tashishlar), shopping turlar uchun yuk tashish.<sup>11</sup>

1.1.1-rasm

Turistlarni transportda tashish xizmatlarining xili va turi bo‘yicha tasniflanishi



Manba: <https://studfiles.net/preview/7882892/page:3/>

Turizm sohasida transport ta‘minoti quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:  
 ·u asosiy turistik xizmatlar sifatida turlarga qo‘shilib uning yordamida turistlarni bir joydan ikkinchi joyga olib borish va qayta olib kelish mumkin;

<sup>11</sup> <http://www.hozir.org/samarqand-iqtisodiyot-va-servis-instituti.html?page=5>


·transfer xizmatlarini ko'rsatish ya'ni turistlarni kutib olish va kuzatib qo'yish;

·tur-safar bo'yicha dasturlashtirilgan tadbirlarga xizmat ko'rsatish: ekskursion xizmat, dasturdagi tadbirlarga borish, atrofga tashrif buyurish, yo'nalish bo'yicha ko'chish;

· turga kiritilgan sayohat davomida ijaraga beriladigan yengil avtomashina.<sup>12</sup>

1.1.2-rasm

Transport vositalarida tashish xizmatlarining turi va xili bo'yicha tasniflanishi



Manba: <https://studfiles.net/preview/7882892/page:3/>

Jamiyatda fan-texnika taraqqiyoti odamlarni yer yuzining istalgan nuqtasiga tez eltib qo'yishga qodir transport vositalari (ovozdan tez uchar samolyotlar, tezyurar poyezdlar, avtomobillar, muzyorar va suvosti transporti va boshqalar) paydo bo'lishiga, shuningdek, transport xizmatlari ko'rsatish sohasiga yangi texnologiyalar joriy etilishiga olib keldi. Bu chiptalarni bronlashning global tizimlarida va chiptalar sotishning noan'anaviy usullarida, yuk va yo'lovchi tashuvchilarning charter dasturlari vujudga kelishi va rivojlanishida, turli axborot tizimlari ishlab chiqilishida, yo'lovchi tashishning texnik va texnologik rejimlarini

<sup>12</sup> <https://studfiles.net/preview/7882892/page:3/>

nazorat qilish elektron qurilmalaridan foydalanilishida, ularning xavfsizligi oshirilishida o‘z ifodasini topmoqda.<sup>13</sup>

Bugungi kunda yurtimizda sayyohlarni temir yo‘l transport vositalarida tashishning keng imkoniyatlari mavjud. Hozirda har kun 10 mingdan ortiq yo‘lovchi temir yo‘l xizmatlaridan foydalanib kelmoqda. Yo‘lovchilarni bir manzildan ikkinchi manzilga olib borish uchun so‘nggi yillarda Andijon, Marg‘ilon, Namangan, Qarshi, Navoiy, Urganch, Qizil-Tepa, Samarqand, Shaxrisabz, Toshkent-Janubiy va Kitob kabi stansiyalarida vokzallar qurib, ishga tushirildi. Shahar va tuman markazlaridagi 30 dan ziyod vokzallar kengaytirilib, qayta ta‘mirlandi va foydalanishga topshirildi.

1994 yil 7 noyabrda “O‘zbekiston temir yo‘llari” Davlat-aksiyadorlik temir yo‘l kompaniyasi (DATK) tashkil etildi. 2002 yilning 28 iyunida Davlat mulk qo‘mitasining buyrug‘i bilan "Uzjeldorpass" ochiq aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilgan.

2004 yil 15-yanvarda (O‘ztemir yo‘l yo‘lovchi) OAJda tez yurar yo‘lovchi poyezd yo‘nalishini tashkil etdi. 6 vagonidan iborat «Registon» tez yurar elektr poyezdi yuqori tezlikda qisqa vaqt ichida yo‘lovchilarni Toshentdan Samarqandga va orqaga tashiydi.

«Sharq» tez yurar elektr poyezdi 8 shinam vagonlardan iborat, 300 dan ortiq yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatib, har kuni Poytaxtdan Buxoroga yo‘lovchilarni tashiydi.<sup>14</sup>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 5 yanvardagi “Toshkent – Samarqand temir yo‘l liniyasi uchastkasida yuqori tezlikdagi poyezdlar harakatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoyishi asosida O‘zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi krediti va “O‘zbekiston temir yo‘llari” DATK mablag‘i hisobidan 2011 yilning 22 iyul kuni birinchi va 2011 yilning 9 dekabr kuni ikkinchi «PATENTES TALGO S.L.» (Ispaniya) kompaniyasida ishlab

---

<sup>13</sup> <http://www.hozir.org/termiz-davlat-universiteti.html?page=18>

<sup>14</sup> <https://studfiles.net/preview/7882892/page:3/>

chiqarilgan yuqori tezlikda harakatlanuvchi “Afrosiyob” elektropoyezdi olib kelindi.

2011 yilning 8 oktyabridan boshlab Ispaniyadan keltirilgan “Talgo” rusumidagi yuqori tezlikda harakatlanadigan “Afrosiyob” elektropoyezdining Toshkent – Samarqand – Toshkent yo‘nalishida doimiy qatnovi yo‘lga qo‘yildi. 2016-yil 1-sentabridan boshlab esa Toshkent – Buxoro – Toshkent yo‘nalishida doimiy qatnovi yo‘lga qo‘yildi.

“Afrosiyob” elektropoyezdi “Patentes Talgo S.L.” kompaniyasining noyob texnologiyasi asosida loyihalashtirilgan. Elektropoyezd 2 lokomotiv, 8 yo‘lovchi vagoni va 1 vagon-restorandan iborat. Nogironlar va imkoniyati cheklangan yo‘lovchilar uchun maxsus qulayliklar ko‘zda tutilgan. Elektropoyezd jami 215 yo‘lovchini tashish imkoniyatiga ega.

Maksimal tezligi 250 km/soatni tashkil etuvchi “Afrosiyob” Toshkentdan Samarqandgacha bo‘lgan 344 kilometrlik masofani 2 soatda bosib o‘tadi. Toshkentdan Buxorogacha bo‘lgan masofani esa 3,5 soatda bosib o‘tadi.<sup>15</sup>

Bizga ma’lumki yurtimizda sayyohlarni transportda tashishda ko‘p hollarda yengil avtomobillar va avtobuslardan foydalaniladi.

Aynan quruqlik transportidan eng ko‘p foydalaniladigan transport vositalari ham avtobus va yengil avtomobil hisoblanadi. Avtobuslar uzoq masofaga boorish, bir kunlik sayohatlarni va ichki marshrut harakatini tashkil etishda qulay. Shuningdek, avtobus va yengil avtomobilda sayyohlarni aeroport(vokzal)dan mehmonxonaga yoki aksincha tashishda keng foydalaniladi.

Ichki tashishlarda marshrutning masofasi, sayyohlar soni, marshrut kategoriyasi, qulayligi va boshqalarga ko‘ra turli avtobuslardan foydalaniladi. 35-50 kishilik turistik guruhlar uchun “LAZ”, “IKARUS”, “TAM” va bundan tashqari turistik marshrutlarda yuqori sifatli va qulaylikka ega “MERCEDES”, “RENAULT”, “Yutong”, “VOLVO”, “SETRA”, “MAN-DAF” kabi avtobuslardan

---

<sup>15</sup> <https://studfiles.net/preview/7882892/page:3/>

foydalaniladi. Bu turdagi avtobuslar xalqaro tashuv standartlariga mos keladi.<sup>16</sup>

Ta'kidlash joizki, sayyohlarni tog'li hududlarda va qishloqlarda tashishda asosan hayvonlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday transport vositalari dam oluvchilarga ekzotik muhitni yaratib beradi.

Mamlakatimiz turizm sohasida hayvonlarda tashishda asososan otlar, tuya, lama va xachirlardan foydalanish mumkin. Otliq turlar — sayohatning o'ziga xos turi hisoblanadi. Shaharlik sayyohlar uchun ot, tuya. Lama va xachir ekzotik transport vositasi hisoblanadi. Bunday hayvonlarda tashish sayyohlarga uzoq masofalarga, tabiatning texnik transport turlarida harakatlanish cheklangan hududlarida tashish xizmatini tashkil etish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Shuningdek, otliq turizm — ekologik turizmning ajralmas qismi hamdir. «Buyuk ipak yo'li» marshrutining aksariyat qismini aynan otliq turlar tashkil etadi.

Tomas Kuk o'zining Sharqga birinchi sayohatini tashkillashtirganda xachirlardan foydalangan. Sayyohlarni tashishda tuyalardan ham foydalanish mumkin. Tuyalarda tashish sayohat davomida aksariyat sayyohlar uchun ekzotik muhtni yaratadi.

Xalqaro turizm sohasida hozirda eng ommabop va qulay transport vositalaridan biri bu havo transporti hisoblanadi. O'zbekistonda bunday transport xizmatlarini "O'zbekiston havo yo'llari" Milliy aviakompaniyasi tashkil etib kelmoqda.

Ushbu MAK tarkibiga Uchish kompleksi (UK), Aviatsiya texnikasi kompleksi (ATK), Maxsus aviatsiya ishlari aviakompaniyasi (MAI), Ta'minot markazi (TM), Havo aloqalari bosh agentligi (HABA), "Uzbekistan Airways Technik" aviatsiya korxonasi, Havo harakatini boshqarish markazi (HHBM), Ketrinq, O'quv markazi (O'M) kiradi.

Aviakompaniyaning xalqaro havo yo'llari Amerika va G'arbiy Yevropadan Yaponiya va Malayziyagacha bo'lgan hududlarni qamrab oladi.

Xalqaro charter, yuk va yo'lovchi tashishni rejalashtirish va ta'minlash

---

<sup>16</sup> <http://uz.denometr.com/docs/768/index-212156-1.html?page=7>



borasida to'plangan katta tajriba, "O'zbekiston Havoy Yo'llari" milliy aviakompaniyasida barcha yo'nalishlar, shu jumladan Xurgada (Misr), Urumchi (Xitoy), Antaliya (Turkiya), Aleppo (Suriya), Dubay (BAA), Utapao (Tayland) kabi ommaviy turistik marshrutlar bo'yicha uchishga litsenziyalarning mavjudligi charter tashuvlari bozorida muvaffaqiyatli ish olib borish imkonini beradi.

O'zbekiston Havoy Yo'llari" MAK erishgan yutuqlarga e'tibor qaratar ekanmiz, Xalqaro aviatransport bozoriga "O'zbekiston Havoy Yo'llari" milliy aviakompaniyasining kirib kelishi yangi aviatsiya texnikasini, rivojlangan G'arb mamlakatlari foydalanayotgan ilg'or texnologiyalarni jadal sur'atlarda o'zlashtirishdan, axborot maydonini kengaytirishdan boshlandi. Birinchi A-310 aerobusi "O'zbekiston Havoy Yo'llari"da 1993 yili paydo bo'lgan edi. Bugungi kunda kompaniya aviaparkining asosiy qismini A-320, Boieng 767 va 757 kabi havoy kemalari tashkil etadi. "O'zbekiston Havoy Yo'llari" marshrutlari tarmog'i jahonning 35 dan ortiq mamlakatini qamrab oladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda 12 ta aeroport ishlab turibdi. Toshkent aeroporti Markaziy Osiyodagi eng yirik aeroportdir. Uning o'tkazish qobiliyati soatiga 1000 yo'lovchiga jahon andozalari darajasida xizmat ko'rsatish imkonini beradi.

## **1.2. Transport xizmatlarini ko'rsatishning xalqaro standartlari**

Havoy transportida sayohat ham charter, ham reysli samolyotlar vositasida amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda havoy transportida tashish xizmatlarini ko'rsatishda 500 dan ortiq aviakompaniyalar o'z faoliyatini olib bormoqda. O'zbekistonlik sayyohlar A-320, Boeing samolyotlaridan foydalanadilar. Turizm rivojlangan davlatlarda turistik maqsadlarda vertolyotlardan va boshqa havoy transporti vositalaridan: dirijabl, havoy sharlari, paraplanlar, deltaplanlar va hokazolardan foydalaniladi. Samolyotdagi komfort sharoitlari, ovqatlanish va boshqa omillariga ko'ra joylar (o'rinlar) quyidagi sinflarga bo'linadi:

- birinchi sinf (F)
- biznes sinf
- iqtisodiy sinf (U)
- boshqa.

Turistik maqsadda havo yo'llari orqali amalga oshiriladigan sayohatlar muntazam, mavsumiy va bir martalik ko'rinishlarda amalga oshiriladi. Milliy yoki alohida aviakompaniyalarda turli xil ko'rinishdagi imtiyozlar joriy etilgan:

- mavsumiy;
- korporativ;
- bolali yo'lovchilar uchun;
- guruh;
- yosh oilalar uchun va boshqa.

Ayniqsa JAYA (Butunjahon Aviatsiya yo'lovchilar assosatsiyasi), ETZ (Yevropa turizm zanjiri)ning imtiyozli kartlaari keng tarqalgan. Bunday kartlarga ega yo'lovchilar uchun ba'zi aviakompaniyalarning (DELTA, SAS) aviachiptalari uchun, dunyoning 4000 ta eng yaxshi mehmonxonalarini to'lovi uchun, ijaraga olingan avtomobil to'lovi bo'yicha (30% gacha), yo'qolgan chipta hujjatlarini qayta tiklash bo'yicha, aeroportlarda VIP xonalaridan foydalanish, sug'urta va boshqa imtiyozlar mavjud.

Suv yo'li bo'yicha turistlarning sayohati 250, 300 va 400 yo'lovchiga mo'ljallangan yuqori komfortga ega teploxodlarda amalga oshiriladi. Kayutalar bir o'rinli, ikki o'rinli, 3-4 o'rinli va lavozimga mo'ljallangan turlarga ajratilgan. Bunday sinfdagi teploxodlar (barcha) dam olish va barcha komfort atributlarga ega: kayutalarda qulay yumshoq mebel, konditsionerlar, muzlatgichlar, mini-barlar, restoran-barlar, sauna, musiqali salonlar, video-kinozallar mavjud bo'ladi. Suvdagi turistik sayohatlar va ekskursiyalar teploxodlardan tashqari daryo "tramvay"larida, yaxta, suv osti qayiqlarida, yelkanlarda, katamaranlarda, qayiqlarda, baydarkalarda va boshqalarda amalga oshiriladi.

Temir yo‘l transportidan turizmدا foydalanganda turistik sayohatlar 12 ta yo‘lovchi vagonlardan iborat bo‘ladi, 2-3 vagon restoran, vagon-klubga ega bo‘lgan maxsus harakat rejimi va yo‘nalishi bo‘yicha harakatlanuvchi turistik bo‘limlarda amalga oshiriladi. Ko‘pincha chet davlatlarda ekskursion turistik transport sifatida tramvay va uning retro-variantlari: trolleybus, kareti, dilishans va boshqalardan foydalaniladi. Yuqoridagi barcha transport vositalari turistik kompaniyalarning o‘z mulki bo‘lmasdan, balki ulardan farqli ijara, lizing va h.k. asosida foydalaniladi.

Ommaviy turistik transport sifatida asosan avtobusdan foydalaniladi. Yuqori komfortabelli turistik avtobuslardan shuningdek, uzoq yo‘nalishlarda ham foydalaniladi (Toshkent-Moskva-Minsk-Varshava, Berlin-Parij). Bunday yo‘nalishlarda turistlar uchun tungi dam olish otel yoki motellarda tashkil etiladi.

Ichki yo‘nalishlarda turistik sayohatlarni tashkil etish quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Agar turistik kompaniyaning avtobusi yoki umuman shaxsiy transport vositalari bo‘lmasa, ular avtotransport korxonalarini bilan shartnoma tuzadilar. Shartnomada ijaraga beruvchi va ijarachining majburiyatlari; transportdan foydalanish predmeti; ijara muddati, ijara to‘lovi tizimi (vaqtbay, unumdorlik km. uchun kelishilgan va b.); o‘zaro hisob-kitob tartibi; haydovchi va sayoxat olib boruvchi yoki shu bilan o‘zaro munosabati; shartnomani amalga oshirishda tomonlarning javobgarligi; shu jumladan fors-major shartlari va h.klar (ko‘zda tutiladi) belgilab qo‘yiladi. Yo‘nalish pasporti yoki transport, turistik yo‘nalishning kartochkasi yuqoridagi shartnomaning ajralmas muhim qismi hisoblanadi.

Uzoq muddatli sayohatlar uchun yumshoq o‘rindiqli, boshqariladigan kreslali, past shovqin va vibratsiya darajasi, iloji boricha ekonomik toza yoqilg‘i va hokazolarga ega bo‘lgan yuqori komfortabelli avtobuslardan foydalanish kerak, shuningdek, yana garderoib, hojatxona, bar, xolodilnik, oshxona va hokazolarga ega bo‘lishi kerak. Avtobus mikro iqlimiga talablar Davlat Standarti, sanitariya-gigiyenik normalar va xalqaro standartlarga muvofiq qo‘yiladi. Infratovush

darajasi samoning istalgan nuqtasida 96 dB dan oshmasligi lozim. Avtobus o'rindiqlari orasidagi masofa 80-85 sm bo'lishi lozim.

Avtobus yon oynalari 2 qavatli, determal qoplamali, tashqi muhit bilan salonning issiqlik almashuvini kamaytiruvchi bo'lishi kerak. Bulardan tashqari avtobus salonlarida individual yorug'lik, chuchuk suvli termos, hojatxona, yuvinish xonasi, garderoab va hokazolarga esa alohida qism, bir necha monitorli televizor, videomagnitafon, radiotelefon va boshqa aloqa qulayliklari mavjud bo'lishi kerak.

Xalqaro turistik sayohatlarni amalga oshirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- yo'nalishlar (marshrutlar) doimiy bo'lishi kerak;
- mavsumiy yo'nalishlar (marshrutlar);
- bir martalik (buyurtma) yo'nalishlar (marshrutlar);
- chet elga ketuvchi va chet eldan qaytib keluvchi turistlar uchun xizmat ko'rsatuvchi.

Doimiy yo'nalishlar uchun quyidagi shartlar majburiy hisoblanadi:

- yo'nalishning aniqligi;
- harakatlanish jadvali;
- harakatning muntazamligi;
- aniq punktlarda to'xtash.

Doimiy xalqaro yo'nalishlarda harakatlanish davlatlararo 2 tomonlama kelishuv asosida amalga oshiriladi, uchinchi davlat orqali tranzit esa transport bo'yicha Yevropa Iqtisodiy Komissiya qo'mitasi ruxsati bilan amalga oshiriladi. 1973-yil 1-martda Jeneva Konvensiyasi doirasida "Yo'lovchi va yuklarni avtomobilda olib o'tish shartnomasi to'g'risidagi konvensiya" qabul qilingan. Turistik sayohat davomida foydalanilayotgan avtobus haydovchisi yo'lovchilarning birma-bir ismi, sharifi yozilgan ro'yxatga ega bo'lishi lozim. Avtomobil transporti vositasida xalqaro tashishni tashkil etishda quyidagi masalalarni hal etish lozim:

- texnik yordam, remont va texnik xizmat ko'rsatish (yo'lda);

- bekatlar, yoqilg'i quyish shaxobchasi, dam olish, ovqatlanish, tibbiy xizmat ko'rsatishni tashkil etish;

- yo'nalish trassasida aloqani tashkil etish va h.k.

Turistik transport sayohatlari xalqaro miqyosda shuningdek, shaxsiy prokatga yoki ijaraga olingan avtomobillarda amalga oshirilishi mumkin. Bunda sayohat mustaqil erkin dastur yoki maqsadli marshrut bo'yicha amalga oshirilishi mumkin. Hayot uchun zarur barcha narsalar kompleksiga ega bo'lgan pritsepli avtomobil vositadagi guruhli turizm "karavanning" deyiladi.

Avtomobil transportida yo'lovchilar va bagajni tashishning Qoidalari "Avtomobil transporti to'g'risida", "Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida", "Yo'llarda harakatlanish xavfsizligi to'g'risida", "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yo'lovchilar va bagajni tashishga tatbiq etiladi.

Avtomobil transportida yo'lovchilar va bagajlarni tashish tegishli litsenziya, tender natijalari bo'yicha belgilangan tartibda tuzilgan muntazam yo'nalishlarda yo'lovchilar transportida xizmatlar ko'rsatish yuzasidan tuzilgan shartnomalar (kontrakt) mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Yo'lovchilar va bagajni tashishga tariflar miqdorlari mazkur Qoidalar va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda belgilanadi. Yo'l chiptalari, yo'l va chiptani hisobga olish varaqalari rekvizitlari, yo'nalishlar, avtovokzallar (avtostantsiyalar) pasportlari, avtomobil transportida yo'lovchilar va bagajni tashishga taalluqli shakllar va yo'riqnoma-metodik hujjatlar "O'zbekiston avtomobil va daryo transporti" agentligi tomonidan tasdiqlanadi.

Yo'lovchilar tashuvchi transport vositalariga qo'yiladigan talablar:

-Avtotransport vositalarining texnik holati va anjomlari tegishli standartlar hamda texnik foydalanish qoidalari talablariga javob berishi kerak.

-Avtotransport vositalari DST 974/2000 O‘zbekiston Davlat Standartiga muvofiq anjomlarga ega bo‘lishi kerak.

Yo‘lovchilarni tashuvchi haydovchilarga qo‘yiladigan talablar:

-Avtomobil transportida yo‘lovchi tashuvchi haydovchilar O‘zbekiston davlat standartlarida va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan talablarga javob berishlari kerak.

Muntazam qatnovlarni amalga oshiruvchi avtobuslar va yo‘nalishli taksilar haydovchilari yo‘nalishda ishlayotganda:

-tender kontraktiga muvofiq ushbu yo‘nalishda ishlash huquqini tasdiqlovchi guvohnomaga;

-tegishli litsenziyaga (litsenziya kartochkasiga);

-yo‘nalish hujjatlariga;

-yo‘l varaqasi va chiptalarni hisobga olish varaqasiga;

-yo‘l varaqalarida yo‘lga chiqishdan oldin belgilangan tartibda o‘tkaziladigan avtotransport vositasining texnik ko‘rikdan va haydovchilarning tibbiy ko‘rikdan o‘tganligi haqidagi qaydlarga;

-qatnov jadvaliga va yo‘nalish sxemasiga (shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo‘nalishlarda - unda aholi yashash joylaridan o‘tish vaqti, ovqatlanish, dam olish, tungi uxlash vaqti va joyi ko‘rsatilgan holda) ega bo‘lishi kerak.

Yo‘lovchilar tashuvchi avtotransportvositalari ishini hisobga olish:

Quyidagilar yo‘lovchilar tashuvchi avtotransport vositalari ishini hisobga oluvchi asosiy hujjatlar hisoblanadi:

a) avtotransport vositasining yo‘l varaqasi;

b) shaharda, shahar atrofida va shaharlararo qatnovchi (yo‘nalishsiz taksilardan tashqari) avtotransport vositalarining chiptalarni hisobga olish varaqasi;

d) avtobus va yengil avtomobillarning buyurtmanomalar (buyurtmalar) va boshqa shartnomalar bo'yicha ishlashi yuzasidan topshiriqnoma;

e) chiptalarni sotish vedomosti (yo'nalishsiz taksilardan tashqari).

Avtotransport vositalarining yo'l varaqalari va chiptalarni hisobga olish varaqalari hamda buyurtmanomalar (buyurtmalar) va boshqa shartnomalar bo'yicha ishlashi yuzasidan topshiriqnoma blankalari qat'iy hisobda turadigan blankalarni hisobga olish va saqlash qoidalari bo'yicha hisobga olinadi va tashuvchida saqlanadi.

Yo'l hujjatlarida tuzatishlar va o'chirib yozishlarga yo'l qo'yilmaydi. Haydovchi garajda, yo'lda, oraliq manzillarga kirib o'tishda va oxirgi manzillarda yo'l hujjatlaridagi barcha qaydlarning to'g'riligini kuzatib borishi shart.

### **1.3. O'zbekistonda transport xizmatlari tahlili**

So'nggi yillarda respublika iqtisodiyoti va aholisiga avtotransport xizmati ko'rsatishni yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotganligini qayd etish lozim. Yo'lovchi tashish yo'nalishlari tarmog'i 2006 yilga nisbatan 1,4 baravarga ortdi, respublikada 117 ta yo'lovchi avtovokzali va avtostansiyasi faoliyat ko'rsatmoqda, tashuvlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga avtotransport xizmatlari sohasini jadal rivojlantirishning mavjud imkoniyatlari va zaxiralaridan to'liq foydalanilmayapti. Avtotransport xo'jaliklarini modernizatsiya qilish zamonaviy talablar darajasida emas, sohada ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va intellektual transport tizimlari yetarli darajada joriy etilmayapti. Mamlakatning avtotransport xizmatlari eksporti va tranzitini oshirish salohiyatining imkoniyatlari va zahiralaridan to'laonli foydalanilmayapti.

Tashish jarayonlari, qatnov jadvallariga rioya etilishi, yo‘lovchilar tomonidan yo‘l haqini elektron tarzda to‘lash samaradorligi, tushumning yig‘ilishi va to‘laligi ustidan markazlashtirilgan dispetcherlik boshqaruvi va nazorati tizimi mavjud emas. O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi amalga oshirayotgan ishlar mintaqalardagi yo‘lovchi transportini boshqarish bo‘yicha maxsus vakolatli organlar tomonidan deyarli takrorlanmoqda.

Avtomobilda tashishlar va yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash yuzasidan nazorat choralarining tubdan kuchaytirilishi yo‘lovchilar avtotransportida favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha profilaktik choralar ko‘rishni talab etadi.

Shu maqsadlarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 11-yanvarda «Aholiga transport xizmati ko‘rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi hamda 2018 yil 6-martdagi PQ-3589 sonli «Avtomobil transportini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi Qarorlari qabul qilindi.

«Aholiga transport xizmati ko‘rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorga ko‘ra yo‘lovchi tashish tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish, aholiga sifatli va xavfsiz transport xizmatlarini ko‘rsatishni takomillashtirish, onlayn GPS orqali masofadan boshqarish va aholiga ishonch telefonlari orqali xizmat ko‘rsatishni tashkil etish, 2017-2021 yillarda yo‘lovchi tashiydigan yangi yo‘nalishlarni ochish, yangi avtobus va mikroavtobuslar sotib olish, avtostansiya, avtovokzal va bekatlar qurish, rekonstruksiya qilish va qayta ta'mirlash ishlarini olib borish, 2018 yil 1-iyuldan shahar markazlarida yo‘lovchilarni tashish transportida yo‘l kira uchun naqdsiz to‘lovni bosqichma-bosqich amalga oshirish kabi vazifalar belgilandi<sup>17</sup>.

---

<sup>17</sup> <http://prezident.uz/oz/lists/view/179>



«Avtomobil transportini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida» gi Qarorda esa O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi, O'zbekiston avtomobil transporti agentligi (keyingi o'rinlarda "O'zavtotrans" agentligi deb ataladi) etib qayta nomlandi va uning asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlari belgilab berildi.

Biz bilamizki turizm sohasini tashkil etuvchi eng asosiy infratuzilmalardan biri transport xizmatlari va yo'l infratuzilmalari hisoblanadi. Shu maqsadda ushbu Qaror asosida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Hududlarda qishloq va tumanlarni bog'lovchi yangi yo'nalishlar tashkil etish;

- Hududlarda yangi avtovokzal, avtostansiyalar va bekatlar qurish, rekonstruksiya qilish va qayta ta'mirlash;

- Yo'lovchi sifati va xavfsizligini oshirish;

- Xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish va xalqaro avtobus yo'nalishlarini ochish

- Avtobuslar va mikroavtobuslarni masofadan turib kuzatish va naqd pulsiz yo'l chiptalarini tashkil etish uchun kerakli uskuna va jihozlarni ishlab chiqaruvchilar bilan to'g'ridan to'g'ri shartnoma tuzish orqali xarid qilishga ruxsat etildi<sup>18</sup>. Bugungi kunda O'zbekistonda transport xizmatlarini ko'rsatish holati kundan-kunga holati o'sish ko'rsatgichlarini ko'rsatmoqda.

Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi(2011-2016 yillardagi)ni jadvalda ko'rish mumkin(1.3.1-jadval).

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2011 yilda tashilgan yo'lovchilar soni 6,377 mln kishini tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatgich 2016 yilga kelib 7,910 ni tashkil etgan. Shuningdek, yo'lovchi aylanmasi 2011 yilda 82,5 mlrd yo'lovchi kmni tashkil etgan bo'lsa, 2016 yilga kelib 110,8 mlrd yo'lovchi kmga yetgan.

---

<sup>18</sup> <http://prezident.uz/oz/lists/view/1538>

Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi  
(2011-2016 yillarda)

|  | 2011 y.         | 2012 y.         | 2013 y.         | 2014 y.         | 2015 y.         | 2016 y.         |
|--|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|
| <b>Tashilgan yo'lovchilar, mln.kishi</b>       | <b>6 377,10</b> | <b>6 705,10</b> | <b>6 989,20</b> | <b>7 335,30</b> | <b>7 598,20</b> | <b>7 910,90</b> |
| shu jumladan transportda:                      |                 |                 |                 |                 |                 |                 |
| temir yo'li                                    | 14,9            | 15,9            | 17,4            | 19,1            | 20,1            | 20,5            |
| Avtomobil                                      | 6 280,20        | 6 606,00        | 6 895,10        | 7 244,40        | 7 511,40        | 7 831,30        |
| Trolleybus                                     | 0,7             | 0,3             | 0,4             | 0,9             | 0,8             | 0,8             |
| Tramvay  | 15,3            | 14,9            | 14,7            | 14,6            | 11,4            | 2,7             |
| Metropoliten                                   | 63,9            | 65,5            | 59,2            | 54              | 52,3            | 53,5            |
| havo yo'li                                     | 2,1             | 2,5             | 2,4             | 2,3             | 2,2             | 2,1             |
| <b>Yo'lovchi aylanmasi, mlrd. yo'lovchi-km</b> | <b>82,5</b>     | <b>89,2</b>     | <b>94,7</b>     | <b>100,1</b>    | <b>106</b>      | <b>110,8</b>    |
| shu jumladan transportda:                      |                 |                 |                 |                 |                 |                 |
| temir yo'li                                    | 3               | 3,4             | 3,7             | 3,8             | 3,8             | 3,9             |
| Avtomobil                                      | 72,7            | 78,2            | 83,3            | 88,9            | 95              | 99,7            |
| Trolleybus                                     | 0,02            | 0,01            | 0,01            | 0,02            | 0,02            | 0,0 2           |
| Tramvay  | 0,1             | 0,1             | 0,1             | 0,1             | 0,04            | 0,01            |
| Metropoliten                                   | 0,5             | 0,4             | 0,4             | 0,4             | 0,4             | 0,4             |
| havo yo'li                                     | 6,2             | 7               | 7,2             | 7               | 6,8             | 6,7             |

Manba: Davlat Statistika Qo'mitasi rasmiy sayti

Yo'lovchi tashishning transport turlaridagi ulushining eng katta qismi avtomobil transportiga to'g'ri keladi. Barcha transport turlarida tashilgan yo'lovchilar soni 2016 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan 3,7 foizga ko'paydi va

5 876,0 mln. kishiga etdi. Yo‘lovchi tashish aylanmasi 4,9 foizga ko‘payib, 83,3 mlrd. yo‘lovchi–km. ni tashkil etdi (1.3.2-jadval).<sup>19</sup>

1.3.2-jadval

Transport turlari bo‘yicha yo‘lovchi tashish va yo‘lovchi aylanmasi

|   | 2017 йил<br>январь–<br>сентябрь | Жамига<br>нисбатан,<br>фоиз<br>ҳисобида | Ўсиш суръати,<br>фоиз<br>ҳисобида |
|---|---------------------------------|---|-----------------------------------|
| <b>Ташилган йўловчилар,<br/>млн. киши</b>     | <b>5 876,0</b>                  | <b>100,0</b>                            | <b>103,7</b>                      |
| темир йўл транспортида                        | 15,9                            | 0,3                                     | 102,6                             |
| автомобиль транспортида                       | 5 812,3                         | 98,9                                    | 103,7                             |
| ҳаво транспортида                             | 1,6                             | 0,03                                    | 103,3                             |
| шаҳар электр транспортида                     | 46,2                            | 0,8                                     | 110,2                             |
| <b>Йўловчи айланмаси,<br/>млн. йўловчи–км</b> | <b>83 288,5</b>                 | <b>100,0</b>                            | <b>104,9</b>                      |
| темир йўл транспортининг                      | 3 310,3                         | 4,0                                     | 113,2                             |
| автомобиль<br>транспортининг                  | 73 935,9                        | 88,8                                    | 104,1                             |
| ҳаво транспортининг                           | 5 698,7                         | 6,8                                     | 111,2                             |
| шаҳар электр<br>транспортининг                | 343,6                           | 0,4                                     | 111,2                             |

Manba: Davlat Statistika Qo‘mitasi rasmiy sayti

Yo‘lovchi tashishda eng katta ulush avtomobil transportiga to‘g‘ri kelib, 98,9 %ni, yo‘lovchi aylanmasida esa uning ulushi 88,8%ni tashkil etadi.

<sup>19</sup><https://stat.uz/uz/statinfo/xizmatlar-sohasi/transport/2434-transport-turlari-bo-yicha-yo-lovchi-tashish-va-yo-lovchi-aylanmasi>

Temir yo‘l transportida yo‘lovchilar jo‘natish 2,6 %ga oshdi va 15,9 mln. Yo‘lovchini tashkil etdi, yo‘lovchi aylanmasi 13,2 %ga oshdi va 3310,3 mln. Yo‘lovchi–km.ni tashkil etdi.


Havo transporti orqali 1633,4 mingta yo‘lovchi jo‘natilib, bu ko‘rsatkich 2016 yilning yanvar–sentyabrga nisbatan 3,3 %ga ortdi, yo‘lovchi aylanmasi esa 5698,7 mln. Yo‘lovchi–km.ni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 11,2 %ga o‘tdi. Metropolitenda yo‘lovchi tashish va yo‘lovchi aylanmasi 2016 yilning yanvar-sentabriga nisbatan, mos ravishda 14,9 %ga oshdi.

2018 yilga kelib transportning barcha turlari bo‘yicha yo‘lovchi tashish 2017 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 2,2 % ga oshib, 1299,2 mln. kishini tashkil etdi. yo‘lovchi aylanmasi 129,7 mlrd. yo‘lovchi/kmga etib, 3,1 %ga oshdi (1.3.3-1.3.4-diagrammalar).

### 1.3.3-diagramma

Transport turlari bo‘yicha yo‘lovchi aylanmasining o‘shish sur‘ati

(2018 yil yanvar-mart 2017 yil yanvar-martga nisbati, % da)



Manba: Davlat Statistika Qo‘mitasi rasmiy sayti

Transportning barcha turlari bo'yicha yo'lovchi tashish 2017 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 2,2 % ga oshib, 1299,2 mln. kishini tashkil etdi. Yo'lovchi aylanmasi 129,7 mlrd. yo'lovchi/kmga yetib, 3,1 % ga oshdi.<sup>20</sup>

Yo'lovchi aylanmasi bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari elektr transportida - 114,7 % va havo transportida - 113,5 % kuzatildi. Temir yo'l transportida bu 104,4 % ni, avtomobil transportida esa -102,4 % ni tashkil etdi.

1.3.4-diagramma

Temir yo'l transporti yuk va yo'lovchi aylanmasining taqqoslanishi



Manba: Davlat Statistika Qo'mitasi rasmiy sayti

Shuningdek, quyidagi jadvalda 2017-2018 yillarda transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish tarkibi foizlarda keltirilgan (1.3.5-jadval).

Yo'lovchi tashishda eng yuqori ulush avtomobil transportiga - 98,2 %, yo'lovchi aylanmasida - 90,1 % to'g'ri keladi. 2017 yil yanvar-mart oylariga nisbatan avtomobil transportida yo'lovchi tashish 2,0 % ga, yo'lovchi aylanmasi - 2,4 % ga oshgan. Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish 1,0 % ga o'sib, 5,0 mln. kishini tashkil etdi. Yo'lovchi aylanmasi 4,4 % ga etdi va 1012,7 mln. Yo'lovchi/kmni tashkil etdi. Havo transportida 545,1 mln. kishi tashildi, bu 2017

<sup>20</sup> <https://stat.uz/uploads/doklad/2017/yanvar-sentyabr/uz/xizmatlar-yanvar-sentyabr-uz.pdf>

## Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi

|   | 2018 йил<br>январь-<br>март | Жами<br>ҳажмга<br>нисбатан<br>улуши, % | 2017 йил<br>январь-<br>мартга<br>нисбатан<br>% |
|---|-----------------------------|--|--|
| <b>Транспортда ташилган йўловчилар,<br/>млн. киши</b>   | <b>1 299,2</b>              | <b>100,0</b>                           | <b>102,2</b>                                   |
| темир йўл транспорти                                    | 5,0                         | 0,4                                    | 101,0  |
| автомобиль транспорти                                   | 1 276,5                     | 98,2                                   | 102,0  |
| ҳаво транспорти   | 0,5                         | 0,04                                   | 111,2  |
| шаҳар электр транспорти                                 | 17,2                        | 1,3                                    | 117,3  |
| <i>шундан:</i>  |                             |  |  |
| метрополитен  | 16,2                        | 1,2                                    | 111,8  |
| трамвай   | 0,9                         | 0,07                                   | -  |
| троллейбус  | 0,1                         | 0,009                                  | 68,6   |
| <b>Транспорт йўловчи айланмаси,<br/>млн. йўловчи/км</b> | <b>29 703,3</b>             | <b>100,0</b>                           | <b>103,1</b>                                   |
| темир йўл транспорти                                    | 1 012,7                     | 3,4                                    | 104,4  |
| автомобиль транспорти                                   | 26 753,9                    | 90,1                                   | 102,4  |
| ҳаво транспорти   | 1 809,7                     | 6,1                                    | 113,5  |
| шаҳар электр транспорти                                 | 126,9                       | 0,4                                    | 114,7  |
| <i>шундан:</i>  |                             |  |  |
| метрополитен  | 118,3                       | 0,4                                    | 111,8  |
| трамвай   | 5,3                         | 0,02                                   | -  |
| троллейбус  | 3,4                         | 0,01                                   | 68,6   |

Manba: Davlat Statistika Qo'mitasi rasmiy sayti

yil yanvar-mart oylariga nisbatan 11,2 % ga ko‘pdir. Yo‘lovchi aylanmasi esa 13,5 % ga oshib, 1809,7 mln. Yo‘lovchi/kmni tashkil etdi.<sup>21</sup>

Havo kemalarining kechikmasdan muntazam yetib kelishi 2017 yil yanvar-martdagi 81,2 % o‘rniga 80,9 % ni tashkil etdi, 920 aviaparvoz kechiktirilgan, 1 ta aviaparvoz bekor qilingan.

1.3.6-rasm

### Transport turlari bo‘yicha yo‘lovchi tashish tarkibi



Manba: Davlat Statistika Qo‘mitasi rasmiy sayti

Xalqaro tashuvlarda havo kemalarining muntazam yetib kelishi 0,5 % ga ko‘payib, 79,7 % ni tashkil etdi (2017 yil yanvar-martda – 79,2 %). Havo kemalarining jami kechikish vaqti 859 samolyot-soatni tashkil etib, 2017 yil yanvar-martga nisbatan 32,5 % ga kamaygan. Kechiktirilgan parvozlarning o‘rtacha davomiyligi 32,6 % ga qisqarib, 56 minutni tashkil etdi. Metropolitenda

<sup>21</sup> <https://stat.uz/uploads/doklad/2018/yanvar-mart/uz/11.pdf>

yo‘lovchi tashish va yo‘lovchi aylanmasi 2017 yil yanvar-mart oylariga nisbatan 11,8 % ga oshgan.<sup>22</sup>

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki yurtimizda transport ximatlarini ko‘rsatish darajasi jadal suratlarda o‘sib bormoqda.

Yurtimizda ichki va xalqaro turizmni rivojlantirishga davlat tomonidan alohida e‘tibor qaratilayotganligi hech birimizga sir emas. Shu nuqtai nazardan transport xizmatlarini takomillashtirib borish, ularning sifatini oshirib borish ham turizm sohasining rivojlanishida katta o‘rin egallaydi. Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 11 yanvardagi «Aholiga transport xizmati ko‘rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida Toshkent shahrida aholiga transport xizmatlarini ko‘rsatuvchi «Toshshahartransxizmat» AJ tomonidan elektron oylik yo‘l kartalarini foydalanishga taqdim etdi. «Toshshahartransxizmat» AJning rasmiy sahifasida ushbu elektron oylik yo‘l kartalari 2018-yilning 23-iyunidan boshlab sotuvga chiqarilganligi va 2018-yilning 1-iyulidan boshlab yo‘lovchilarning shahar jamoat transportlari(avtobuslar)da foydalanishi imkoniyati mavjud ekanligi to‘g‘risida ma'lumot kiritgan. Yo‘lovchilar elektron ko‘rinishdagi kartalarni oylik yo‘l chiptalari va jetonlari sotish shaxobchalaridan xarid qilishlari mumkin.

«Toshshahartransxizmat» AJ ning rasmiy sahifasida elektron yo‘l kartalarining ko‘rinishi ham keltirilgan (1.3.7-rasm).<sup>23</sup>

Bunday yo‘l kartalari yo‘lovchilar uchun har tomonlama qulaylik yaratadi, hamda yurtimizda transport xizmatlarining jahon standartlariga mos ravishda ko‘rsatilishini ta'minlaydi.

---

<sup>22</sup> <https://stat.uz/uploads/doklad/2018/yanvar-mart/uz/11.pdf>

<sup>23</sup> [http://tshtx.uz/index.php?option=com\\_k2&view=item&id=608:hurmatli-hamshaharlar&Itemid=1059&lang=uz](http://tshtx.uz/index.php?option=com_k2&view=item&id=608:hurmatli-hamshaharlar&Itemid=1059&lang=uz)



Toshkent shahar jamoat transportida (avtobuslarda) oylik yo‘l chiptalarining (AV, O‘, T, N) seriyalari elektron ko‘rinishidagi kartalari



Manba: «Toshshahartransxizmat» AJning rasmiy sahifasi

Xuddi shuningdek, yaqin kunlarda elektron yo‘l kartalari boshqa viloyat markazlarida ham joriy etilishi ko‘zda tutilgan. Ma’lumot uchun aytib o‘tish joizki, ushbu kartalardan foydalanish hozirgi kunda to‘liq amalga oshirilmagan va buning uchun yetarli shart-sharoit haligacha to‘liq yaratilmagan.

## I BOB BO‘YICHA XULOSA

1. Turizmda transport xizmatlari asosiy xizmatlar qatoriga kiritiladi. Ammo ko‘plab transport korxonalari turizmga taaluqli bo‘lmagan ya’ni oddiy fuqorolarni, pochta va yuklarni ham tashiydilar. Chunki biz bilamizki turizm – bu mavsumiy xarakterga ega. Demak, turistlar tashrifi sussayganda transport korxonalarining ishi ham sussayadi, natijada transport korxonalari uchun muammolar tug‘ila boshlaydi. Shuning uchun turizmning mavsumiylik xususiyati transport korxonalari uchun jiddiy muammolarni yuzaga keltiradi.

2. Har bir transport vositasida tashuvlarni amalga oshirish hamda transport xizmatlarini ko‘rsatishda belgilangan xalqaro standartlar mavjud. Ushbu standartlar transport vositalaridagi mavjud qulayliklarni inobatga olgan holda sayyohlarga qulay va xavfsiz transport xizmatlarini ko‘rsatishga qaratilgan. Bugungi kunda ushbu standartlarni to‘liq o‘rganib chiqqan holda uning asosida transport xizmatlarini ko‘rsatish milliy standartini ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

3. O‘zbekistonda ko‘rsatilayotgan transport xizmatlariga bo‘lgan talab kun sayin oshib borishi bilan birgalikda uni takomillashtirib borish ham o‘z navbatida muhim hisoblanadi. O‘zbekistonda transport xizmatlarini takomillashtirish va rivojlantirishga qaratilgan bir qator normative hujjatlar imzolangan bo‘lsada ularning belgilangan muddatlarda bajarilishini ta’minlash kechikib borayotganligi o‘z navbatida turizm sohasining rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Transport xizmatlarini takomillashtirish bo‘yicha belgilangan vazifalarning bajarilishida xususiy sektorni jalb etish sohani rivojlantirishga turtki bo‘la oladi.

## **II BOB. TURIZMDA TRANSPORT XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA GATLARDAN FOYDALANISH**

### **2.1. Turizmda axborot texnologiyalari va GATlarning tutgan o‘rni**

Axborotlar texnologiyasi – bu axborotlarini yechish, qayta ishlash, tahlil etish, saqlash, tarqatish va foydalanish uchun qo‘llaniladigan turli zamonaviy takomillashtirilgan mexanizm va usullar termini. Mikroelektronika sohasidagi yutuqlarga asoslangan ishlab-chiqarish faoliyatiga, xizmat ko‘rsatish sohasiga, aholini ish bilan ta'minlanganligiga va umuman odamni hayotiga jiddiy ta'sir o‘tkazishi mumkin bo‘lgan axborotlar texnologiyasi haqida asr texnologiyasiga aytilmoqda.

Ayni mikroiqtsodiy kompyuterlar yordamida loyihalashtirish va ishlab chiqarish sohasida egiluvchan ishlab chiqarish tizimlari, robotlar, shaxsiy kompyuterlar, avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari (ABT), videomatn, telekonferensiyalar va boshqalarni yaratishga asos soldi. «Axborotlar texnologiyasi» tushunchasini o‘zi informatika shakllanish jarayonida XX asrning oxirgi o‘n yilligida paydo bo‘ldi. Axborotlar texnologiyasining asosiy xususiyati shundaki, unda ham mehnat predmeti, ham mehnat mahsuloti axborot, mehnat quroli esa — hisoblash va aloqa texnikasi bo‘ladi

Bugun axborot, boshqa moddiy resurslar kabi, real ishlab chiqarish resursi sifatida qurila boshladi. Axborotni va uni yuqori saviyasi — bilimni ishlab chiqarish yangi texnologiyalarni yaratish va mavjud bo‘lganlarni modifikatsiyalashtirishga hal etuvchi ta'sirini o‘tkazmoqda. O‘n yil avval ham axborot texnologiyasi va turizm bir-biriga mos kelmaydigan sheriklar deb qaralardi. Bugun esa ikkala tushuncha shuncha bir-biri bilan o‘zaro bog‘langanki, turizmni yangi turi «alternativ turizm» yoki «elektron turizmi» paydo bo‘ldi.

Ma'lumki turizm – xizmatlarni sotishdan iborat. Shu bilan birga, birinchidan — ham ishlab chiqaruvchi, ham iste'molchi nuqtai nazarida bu turli kompleks

xizmatdir. Ikkinchidan – bu ko‘rinmas, o‘zgaruvchan va integrallashtirilgan xizmatdir. Uchinchidan – bu to‘liq axborot xizmatidir. Ayni turizmni ushbu xarakteristikalarini uni axborotlar texnologiyasini qo‘llash uchun ideal tarmoq sifatida taqdim etadi. Turistik tarmoqning tuzilishi boshqa iqtisodiy sohadagi har qanday faoliyatga o‘xshaydi.

Turistik xizmatlarni ishlab chiqaruvchilari hukumat va tijorat tashkilotlardan, savdo assotsiatsiyalardan (masalan, mehmonxona, havo transporti, turistik agentliklar va h.k.) iborat bo‘lgan aniq ma'lum boshqaruv tarkibi ichida faoliyat ko‘rsatishmoqda. Turistik xizmatlarni ishlab chiqaruvchilari aniq yetkazib beruvchilar kategoriyalariga tabaqalanadi (aviakompaniyalar, mehmonxonalar, avtomobillarni ijaraga olish), ulgurji firmalar (turoperatorlar) va chakana savdo firmalari (turagentlar).

Tarmoq korxonalarini faoliyatini muvofiqlashtirish, reklama, targ‘ibot va soliqqa tortishga tegishli bo‘lganda axborot turistik xizmatlarni yetkazuvchilarni birlik ijtimoiy-iqtisodiy tizimga birlashtirish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Ayni axborot turli yetkazuvchilari birlik turistik tarmoqni ramkasiga birlashtiruvchi xalqning a'zosi bo‘ladi. Turizmni muhim xususiyati shundaki, unda ishlab chiqaruvchi va yetkazuvchilar orasida o‘zaro aloqa tovar bilan emas, balki axborot oqimi orqali amalga oshiriladi.

Bu axborot oqimlari faqat konkret ma'lumotlar emas, balki xizmat va to‘lovlardir. Mehmonxonada joylashtirish, samolyotlarda joylar va shu kabi xizmatlar fizik ko‘rinishda namoyish etilmaydi va sotish vaqtida ko‘rsatilmaydi. Mahsulotni mavjudligi va sifatiga yagona yo‘l ko‘rsatuvchi bu axborotdir. Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, haqiqiy axborot bilan va uni tarqalishi tezligini ta'minlash turistik tarmoq uchun, iste'molchilarga uni xizmatini fizik taqdim etish kabi muhim. Axborotlar texnologiyasini turizm industriyasiga joriy etish bir necha bosqichda amalga oshirilgan. Birinchi bosqich — “Ma'lumotlarni yaratish”. Uning asosiy maqsadi axborotga asoslangan jarayonlarni, avtomatlashtirish orqali korxonalar operativ faoliyati samaradorligini

oshirishdadir. Bu mavsum 1960 yilda boshlandi va uning uchun mini-omnoterlardan foydalanish xarakterli edi.

Ikkinchi bosqich — «Boshqaruv axborotlar tizimi». Bu bosqich bevosita axborotlar uzatishni tashkil etishga boʻlgan talablarni takomillashtirish orqali boshqaruv samaradorligini oshirishga olib keladigan axborotlar texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat boʻlgan. Ular 70 yillarda joriy etilib axborotlar resurslari bilan bogʻliq korxonalarini boshqarish xususiy tarmoq usullarni qoʻllashgan. Bu vaqtda, qoida boʻyicha, axborotlar texnologiyasi ichki marketing va ma'muriy funksiyalar talabi uchun qoʻllanilar edi. 80-nchi yillar boshlarida «Strategik axborotlar tizimi» bosqichi boshlandi. Bu bosqichni maqsadi turistik biznesda, yoki xulqi, yoki tabiati oʻzini oʻzgartirish yoʻli bilan firma raqobatdoshligini yaxshilashdan iborat. Raqobatdoshligini oshirishini hisobga olgan holda turli integratsiyalashgan tarmoqlar joriy etilgan: bevosita faoliyatini takomillashtirish uchun, funksional va ishbilarmon yoʻllar boʻyicha faoliyatni muvofiqlashtirish uchun, shuningdek, tashqi tashkilotlar bilan aloqani oʻrnatish uchun.

Nihoyat 90-chi yillarni boshlarida toʻrtinchi bosqich kirib keldi-«Tarmoqlar bosqichi». Bu bosqichda barcha darajadagi tarmoqlarni birlashishi amalga oshdi: korxonalar, mintaqaviy va global. Ushbu bosqichni asosiy xarakteristikasi – bu axborotlar texnologiyasi imkoniyatlarini oshirish, uskunalarni oʻlchamini kamaytirish, uni xarid qilish uchun sarflarni kamaytirish va bir vaqtni oʻzida chidamliligini oshirish, yer yuzini turli nuqtalarida joylashgan terminlarni oʻzaro bogʻliqligi. Bularni jamlash turizmni barcha tashkilotlari faoliyatida axborotlar texnologiyasi muhim asbob boʻlib qoldi. Natijada 90-chi yillarni oʻrtalarida barcha tashkilotlar, uni oʻlchovi, taklif etadigan mahsuloti va geografiyasidan qat'iy nazar, biznesni jiddiy qayta tashkil etish jarayonini kechirishdi. Umuman, jamiyat rivojlanishini zamonaviy bosqichi uchun axborotlar texnologiyasi ahamiyati va rolini tahlil etishda asoslangan. Xulosa qilish mumkinki bu rol strategik muhim, kelajakda esa bu axborotlar texnologiyasini ahamiyati tezlik bilan oshib boradi. Ayni shu texnologiyalarga davlatni texnologik rivojlanish sohasida belgilovchi rol

tegishli. Bu xulosalarni dalillari bo'lib axborotlar texnologiyalarini qator qaytarilmas (unikal) xususiyatlari bo'ladi (tezkorlik, erishishlik). Bu xususiyatlar ularni ishlab-chiqarish va ijtimoiy texnologiyalarga nisbatan ustuvorlik joyga chiqarishadi. Axborotlar texnologiyasini farqi jamiyat rivojlanishiga strategik ahamiyatga ega bo'lgan muhim xususiyatlari orasida quyidagilarni ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Birinchi, axborotlar texnologiyasi jamiyatni axborot resurslaridan samarali foydalanishni va faollashtirishni ta'minlaydi. Bu esa butun jamiyat rivojlanishini muhim strategik omili bo'lib hisoblanadi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, axborot resurslaridan samarali foydalanish, tarqatish va faollashtirish (ilmiy bilimlarni, kashfiyotlarni, texnologiyalarni, ilg'or tajribani) resurslarni boshqa turlarini sezilarli tejashga olib keladi: xomashyo, quvvat, qazilma boyliklar, material va uskunalar, odam resurslari, ijtimoiy, axborotlar texnologiyasi oxirgi yillarda jamiyatdagi inson hayot faoliyatida katta o'rin egallayotgan axborotlar texnologiyasini optimallashtirish va ko'pincha avtomatlashtirish imkonini beradi. Malumki, sivilizatsiyani rivojlanishi axborotlashgan jamiyat tuzilishi yo'nalishida amalga oshmoqda. Bunday jamiyatda ko'pchilik ish bilan band aholini mehnat obyekti va mehnat natijasi bo'lib material boyliklar emas, asosan axborot va ilmiy bilimlar bo'lib qolmoqda. Hozirgi vaqtda ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda aholini ko'pchilik qismi o'z faoliyatida u yoki bu darajada axborotni tayyorlash, saqlash, qayta ishlash va uzatish jarayoni bilan bog'liq va shuning uchun shu texnologiyalarga mos axborotlar texnologiyalarini o'zlashtirishi va amaliyotda foydalanishga majbur.

Shuni ta'kidlash lozimki, axborotlar texnologiyasi odamlar orasida axborotli – o'zaro harakatlarini, hamda ommaviy axborotni tayyorlash va tarqatishni ta'minlashda alohida muhim rolni o'ynaydi. Bu vositalar jamiyatni madaniyati bilan tezda assimilyatsiya bo'ladi, chunki ular faqatgina katta qulaylik yaratishadi, balki globalizatsiya jarayonlari va jahon hamjihatlik integratsiya, ichki va tashqi xalqaro iqtisodiy va madaniy aloqalarni kengaytirish, aholini migratsiyasi va uni

sayyora bo'yicha dinamik siljishi bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina ishlab-chiqarish, ijtimoiy va turmush muammolari ochishadi. An'anaviy bo'lib qolgan aloqa vositalariga (telefon, telegraf, radio va televideniye) qo'shimcha keng elektron telekommunikatsiyalar tizimlari, elektron pochta va aloqani boshqa turlari qo'llanilmoqda.

O'z navbatida tarmoqli axborotlar texnologiyasi axborot texnologiyasini perspektiv va yo'nalishi bo'lib hisoblanadi. Ularni maqsadi — faqatgina axborot hisoblash tizimni iste'molchilari orasida axborot almashuvini ta'minlash, balki ular uchun jamiyatni taqsimlangan axborot resurslaridan korporativ foydalanish, turli ixtisoslashgan axborotlar fondidan ma'lumotli, xujjatlashgan va boshqa axborotlar olish imkoniyatini yaratishdir. Oxirgi vaqtda faqatgina kompyuter pressasi va balki boshqa ommaviy nashriyotlarni nashrlarini markaziy mavzusi bo'lib internet bo'lib qoldi. Internet o'ziga axborotlar texnologiyasi bo'yicha mutaxassis o'ziga axborotlar texnologiyasi bo'yicha mutaxassislarni, biznesmenlarni, oddiy iste'molchilarni va butun sivilizatsiya dunyosini o'z diqqatiga jalb etmoqda. Internet — bu faqat bitta kompyuter tarmog'i emas, balki o'n minglab lokal va milliy global bir-biri bilan ulangan tarmoqlardir.

Hozirgi vaqtda Umumjahon Internet tarmog'iga 40 mln. obunachilar barcha yettita kontingentlardagi 100 davlatlaridan ziyod ulangan. Internetning mashhurligi haqidagi faktga asosan har 10 oyda obunachilar soni ikki barobar oshmoqda. Tarmoq orqali axborot almashuvi har yili qariyb 10 marta oshmoqda. Har daqiqada tarmoq orqali 4000 dan ziyod elektron xabarlar jo'natilmoqda. Umumjahon kompyuter tarmog'i shunday tez sur'atlar bilan rivojlanmoqdaki, uni obunachilari va axborotlar resurslari har yili ikki barobar o'sib bormoqda. Ma'lumki bundan keyin turistik biznes ham chetda qolmaydi. Hozirgi vaqtda internet biznesda raqobatbardosh sifatida ham ko'rib bo'lmaydi, chunki umumjahon tarmoq bahosiz axborot yordamini ko'rsatmoqda va turistik xizmatlarni realizatsiya qilish an'anaviy kanallariga yangi elektron kanalini qo'shmoqda.

Hozirni o'zida internet orqali keladigan daromadni yarmi sayyohlik va turizm sohasiga to'g'ri kelmoqda. Internetga murojaat qiladigan iste'molchilarni 62% otellar va aviakompaniyalarni tariflarini va bo'sh o'rinlar haqida ma'lumotlarni qidirishmoqda. Global tarmoqni ustivorligi nimada? Birinchidan – auditoriyani keng qamrab olishligi. Ikkinchidan qo'shimcha sarflarni va sotuvchi, hamda xaridorlar uchun qilinadigan harakatlarni nisbiy pastligi. Internet orqali bronlashtirish o'rtacha \$ 1,7 tashkil etadi, OAV orqali esa - \$ 3,5. An'anaviy – faks usuli xaridorga \$ 10 tushadi. Uchinchi qulayligi – shaxsiy iste'mollar uchun sutkani xohlagan vaqtda tarmoqqa erishishligi. Internetni bu imkoniyatlari, hamda hisoblagan vaqtda axborotni yangilash imkoniyatidan turistik firmalar ham foydalanishmoqda. Ular oldida on-line rejimida turistik mahsulotni realizatsiya va reklama qilishda, hamda sotishni rag'batlantirishda keng imkoniyatlar ochib bermoqda.

Oxirgi bir necha o'n yillardan buyon insoniyat axborot suronini boshidan kechirmoqda. U yildan-yilga kuchayib inson faoliyatining ko'plab sohalariga kirib bormoqda. Bugungi kunda kartograflar ko'plab manbalardan olinadigan axborotlardan foydalanish mobaynida topografik, turli mavzuli geografik xaritalar va atlaslarni tuzish, aero va kosmik tasvirlarni deshifrovka qilish, dalada o'lchash natijalarini qayta ishlash va kompyuter tizimlarida to'plash bo'yicha boy tajribaga egalari.

Ma'lumotlarning ko'plab turlarini vaqt o'tishi bilan tez-tez o'zgarib turishi, oddiy usulda tuziladigan qog'ozli xaritadan foydalanishni ancha qiyinlashtirib yubormoqda. Bugungi kunda tezkor axborotlarni qabul qilish, ularning dolzarbligini ko'rsatish faqatgina avtomatlashtirilgan tizim kafolatlashi mumkin. Shu o'rinda zamonaviy GAT (Geografik axborotlashtirish tizimi) – bu ko'p miqdordagi grafikli va mavzuli ma'lumotlar bazasiga ega bo'lgan, baza asosida ish bajarish imkoniyatiga ega bo'lgan modelli va hisobli funksiyalar bilan birlashgan, fazoviy ma'lumotlarni kartografik shaklga aylantirish, turli xulosalar chiqarish va monitoring ishlarini amalga oshiradigan avtomatlashgan tizim deb qaraladi.



Bugungi kunda kompyuter savodxonligi omma orasida ancha oshgan. GATda tuzilgan xarita oddiy qog'ozli xaritadan yaxshi bezalgani, electron shakldaligi, qo'lda bajarib bo'lmay darajadagi aniqligi va boshqa bir qator afzalliklari bilab farq qiladi. Xaritaga istaganicha o'zgartirish kiritish, yangi mazmun va bo'yoq berish, diagramma va boshqa ma'lumotlarni kiritish, o'chirish va hokazo ishlarini bajarsa bo'ladi. Buning uchun muallifning shaxsan o'zi xarita tuzishning electron texnologiyalari bilan mukammalroq tanishishi va ular asosida xarita tuzib ko'rishi kerak.

Hozirgi paytga kelib GATning 20dan ortiq ta'rifi mavjud bo'lib, ularning har biri o'zicha e'tiborga loyiq.

GAT – bu tabiat va jamiyat to'g'risidagi topogeodezik, yer resurslari va boshqa sohalardagi kartografik ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, saqlash, yangilash, tahlil qilish va tasvirlashni ta'minlaydigan apparat-dasturli avtomatlashgan kompleksdir.

Insoniyat hayotida kompyuterlarning o'rni o'sib borib, birinchi darajaga raqamli axborot texnologiyalari ko'tarilmoqda. Axborot deganda GATda harf raqam yoki tasvir shaklidagi ma'lumotlar tushuniladi. Barcha uslublar, texnikalar, amallar, vositalar, tizimlar, nazariyalar, yo'nalishlar va boshqalar axborotni yig'ish, qayta ishlash va foydalanishga qaratilgan bo'lib, ular birgalikda axborot texnologiyalari deyiladi, GAT esa shularning biri bo'lib hisoblanadi.

Aslida GAT – bu bitta texnik vosita bo'lib uning yordamida faqatgina chiroyli qilib xaritani jihozlash emas, balki yechimi mavjud bo'lmagan ba'zi masalalarni yechish ham mumkin. Shu sababli GATning imkoniyatlari juda katta. GAT – turli usul va uslublar yordamida real borliq to'g'risida to'plangan katta hajmli axborotlarni o'zining ma'lumotlar bazasida jamlab, ishlay oladigan keng rivojlangan kompyuterlashgan aniq tizimdir.

GATning rivojlanish tarixi 4 bosqichga ajratiladi:

1. Pioner davri (1950 y.oxiri-1970 y.boshi) – nazariy ishlar va birinchi yirik loyihalar, empirik tajriba ustida ishlash, chegaralangan bilim va texnologiyalarning prinsipial imkoniyatlari ustida izlanishlar olib borish.

2. Hukumat tashabbuslari davri (1970 y. boshi – 1980 y. boshi) – uncha yirik bo‘lmagan guruhlar va alohida izlanuvchilar ta'siri va rolini pasaytirish, GAT bo'yicha davlat institutlarini shakllantirish, hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan yirik geoaxborot loyihalarining rivojlanishi.

3. Tijoratning rivojlanish davri (1980 y.boshi – hozirgi vaqtgacha) –turli xil dasturiy vositalarning keng bozori, stolga qo‘yiladigan GATlarning rivojlanishi, ularning foydalanish hududining nofazoviy ma'lumotlar bazasi bilan integratsiyalashuvi hisobiga kengayishi, tarmoqli ilovalarning paydo bo‘lishi, sezilarli noprofessional foydalanuvchilar sonining paydo bo‘lishi, alohida kompyuterlarda individual ma'lumotlar yig‘imini qo‘llab-quvvatlovchi tizimlar korporativ va taqsimlangan geoma'lumotlar bazasi tizimiga yo‘l ochdi.

4. Foydalanuvchilik davri (1980 y.oxiri – hozirgi vaqtgacha) – geoaxborot texnologiyalar xizmatlari tijoratchi ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida raqobatning o‘sishi GAT foydalanuvchilariga ustunlikni taqdim etdi, dasturiy vositalarning ochiqligi va qulayligi foydalanuvchilar dasturni o‘zlari soddalashtirish, foydalanish va hatto modellashtirish imkonini berdi, telekonferensiya, hududiy birlashgan ammo yagona tematik foydalanuvchilar guruhleri foydalanuvchilar «klubi»ning pado bo‘lishi, geoaxborotlarga talabni oshirdi, xalqaro geoaxborot infratuzilmasining shakllanishi boshlandi.

Bugungi kunda GATga foydalanishi jihatidan teng keladigan tizim yo‘q, chunki uni bilimlarning barcha sohasida qo‘llash mumkin.

Mahalliy boshqaruv.

Munisipial xo‘jalik boshqaruv vazifasi – GAT ilovasining yirik hududiy jihatlaridan biri. Mahalliy boshqaruv faoliyatining istalgan sohasida (yerni izlash, yerdan foydalanishni boshqarish, mavjud qog‘ozdagi qaydlarni almashtirish, resurslarni boshqarish, shaxsiy (yer) mulklari va yo‘l magistrallarini hisobga olish)

GATni qo‘llash mumkin. Shuningdek, ular teskari aloqa xizmatlari va monitoring bo‘yicha markazlarboshqarmasi boshqaruv punktlaridaham ishlatilishi mumkin.

Kommunal xo‘jalik.

Kommunal xizmatlar bilan ta'minlovchi tashkilotlar ularning axborot texnologiyalari strategiyasining markazlashgan qismi hisoblangan asosiy vositalar (quvurlar, kabellar, nasoslar, taqsimlovchi stansiyalar va h.k.) to‘g‘risidagi ma'lumotlar bazasini uzatishda GATdan nisbatan faolroq foydalanishadi. Odatda ushbu sektorda me'yordan tashqari turli xil uzilishlarda tarmoqlar ishlashini modellashtirishni ta'minlovchi yechim sifatida GAT ustunlik qiladi. Ko‘proq xaritalashtirishni avtomatlashtirish tizimlarini topishda va tashkilotlarda «tashqi rejalashtirish» (kabellarni o‘tkzish, surma qopqoqlarni joylashtirish, xizmat ko‘rsatish shitlarini o‘rnatish va h.k.)ni qo‘llab-quvvatlash uchun asosiy vositalar bilan boshqarishda qo‘llaniladi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish.

GATga qiziqqan ilk foydalanuvchilardan biri atrof-muhitni muhofaza qilish tashkilotlari hisoblanadi. Eng oddiy darajada – atrof-muhit holati(masalan, o‘rmonlar, daryolarning joylashuvi va holati)ni taqdqiq qilishda foydalaniladi. GATning nisbatan mukammalroq ilovalari atrof-muhitdagi tepaliklarning nurashi yoki katta miqdorda sanoat korxonalarining atmosferani ifloslantiruvchi tashlagan chiqindilarining tarqalishi daryolarning quyilishi vaqtida ularning daryo ostiga cho‘kishli kabi jarayonlarni modellashtirishda foydalaniladi. Yakuniy kartografik ma'lumotlar yig‘ilgandan so‘ng ularning GATda analitik qayta ishlanishi amalga oshiriladi.

Sog‘liqni saqlash.

Qo‘shimcha ravishda asosiy vositalar bilan boshqarishning odatiy vazifalaridan biri GAT analitik imkoniyatlaridan sog‘liqni saqlash ilovalarida foydalanishdir. Masalan, tez yordam stansiyasidan bemorgacha bo‘lgan yo‘lning yo‘llardagi vaziyatni hisobga olgan holda eng qisqa variantini izlash, shuningdek,

epidemiologik vaziyatlarni: turli xil kasalliklarning tarqalish xususiyatlari va ularning paydo bo‘lish sabablarini tahlil qilishda foydalaniladi.

Transport.

Transport ilovalari uchun GATlar katta potensialga ega. Transport infratuzilmasini rejalashtirish va qo‘llab-quvvatlash – bu asosiy foydalanish doirasidir. Hozirgi vaqtda yangi texnologiyalarni qo‘llashga bo‘lgan qiziqishlar ortib bormoqda, misol uchun katta yuk avtomobillari harakatlanishini nazorat qiluvchi navigatsion ilovalarni aytish mumkin. Ularning hozirgi vaqtdagi raqamli xaritada joylashgan joyi haydovchi kabinasidagi ekranda va yuk tashish markazi boshqarmasida ko‘rsatilishi GATning ishtirogini talab etadi.

Moliyaviy xizmatlar.

Moliyaviy xizmatlar sohasida GATlar bank filiallari va jamoatchilik binolarining joylashgan joyini aniqlash, yer-mulk va sug‘urtaga investitsiyalar kiritishning xavflarini baholash, yuqori va quyi xatarlar hududini aniqlashda GATdan foydalaniladi. Bunda kriminal holatlar, hududiy resurslar, yer-mulk xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasi talab etiladi.

## **2.2. GATning O‘zbekistonda transport xizmatlarida qo‘llanilish holati**

2016 yilda O‘zbekistonda ko‘rsatilgan jami xizmatlarning 28,2 %i transport xizmatlariga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, transport xizmatlari jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmiga ko‘ra axborot va aloqa sohasidagi xizmatlardan so‘ng ikkinchi o‘rinda turadi. Bundan bilish mumkinki, transport xizmatlari bugungi kunda eng asosiy xizmat turlaridan biri hisoblanadi.


Barcha transport turlarida tashilgan yo‘lovchilar soni 2016 yil yanvar-sentabriga nisbatan 3,7,%ga ko‘paydi va 5 876,0 mln. kishiga yetdi. Yo‘lovchi tashish aylanmasi 4,9 %ga ko‘payib, 83,3 mlrd yo‘lovchi/km ni tashkil etdi.

Yo‘lovchi tashishda eng katta ulush avtomobil transportiga to‘g‘ri kelib, 98,9% ni yo‘lovchi aylanmasida esa uning ulushi 88,8% ni tashkil qiladi. Temir

yoʻl transportida yoʻlovchilar joʻnatish 2,6%ga oshdi va 15,9 mln yoʻlovchini tashkil etdi, yoʻlovchi aylanmasi 13,2 % ga oshdi va 3 310,3 mln yoʻlovchi/km ni tashkil etdi.

Quyidagi diagrammada Oʻzbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari va ketgan Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari soni <sup>\*)</sup>

2.2.1-diagramma



Manba: <sup>\*)</sup> Rasmiy deklaratsiyadan oʻtganlar, Oʻzbekiston Respublikasi Davlat bojxona qoʻmitasi maʼlumotlari

2017 yilda Oʻzbekiston Respublikasiga 2847,9 ming nafar chet el fuqarolari tashrif buyurgan, bu 2002 yilga nisbatan 8,4 barobarga (2509,3 ming nafar) koʻpaygan. Oʻzbekistondan chet elga chiqqan fuqarolar 6823,9 ming nafarni tashkil qilib, 2002 yilga nisbatan 12 barobarga (4867 ming nafar) koʻproqdir.


2.2.2-diagrammada 2016 yilda Oʻzbekiston Respublikasiga kelgan shaxslarning safar maqsadlari boʻyicha taqsimoti keltirilgan.

Davlat bojxona qoʻmitasining maʼlumotlariga koʻra 2016 yilda Oʻzbekiston Respublikasiga kirib kelgan shaxslarning 2,0 foizi (150,6 ming nafar) xizmat yuzasidan, 0,1 foizi (6,3 ming nafar) oʻqish maqsadida, 0,7 foizi (53,1 ming nafar) ishlash maqsadida, 2,4 foizi (175,7 ming nafar) sayoxat qilish maqsadida, 22,6 foizi (1661,6 ming nafar) qarindoshlarini yoʻqlash uchun, 0,4 foizi (27,3 ming

nafar) davolanish maqsadida, 71,5 foizi (5255,3 ming nafar) doimiy yashash joyiga, 0,2 foizi (17,2 ming nafar) tijorat maqsadida kelgan.

## 2.2.2-diagramma

2016-yilda O‘zbekiston Respublikasiga kelgan shaxslarning safar maqsadlari bo‘yicha taqsimoti



Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi ma’lumotlari

Bundan tashqari O‘zbekistonda bugungi kunda transport sohasini ayniqsa, havo transporti xizmatlarini takomillashtirish, ularning xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, narxlarni pasaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladam, arzon aviakompaniyalar xizmatidan foydalanuvchi xorijiy sayyohlar oqimini “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi negizida loukoster (arzon narxlarda tashuvchilarni amalga oshiruvchi) kompaniyani tashkil etish bilan kengaytirish taklif etilmoqda. Normativ-huquqiy hujjatlar muhokamasi saytiga joylashtirilgan «O‘zbekiston Respublikasida o‘rta istiqbolda turizmni rivojlantirish bo‘yicha Kontsepsiyasini hayotga tatbiq etish choralari to‘g‘risida»gi qarori loyihasiga taqdim etilgan harakatlar konsepsiyasida shunday choralar belgilangan.

Sayyohlarni xalqaro va ichki yoʻnalishlarda tashish uchun marketing tadqiqotlarini oʻtkazgan holda milliy aviatashuvchi raqobatbardoshligini taʼminlovchi charter reyslarni tashkil etish hamda charter reyslarini amalga oshirish uchun xorijiy aviatashuvchilarni jalb qilish rejalashtirilmoqda.

Bundan tashqari, “Oʻzbekiston havo yoʻllari” MAK tomonidan dunyoning istalgan mamlakatiga sayohatchilarni tashish boʻyicha charter reyslarini doimiy asosda yoʻlga qoʻyishni tashkil etish koʻzlangan. Bu kabi parvozlarda mamlakat ichkarisi va xorijiy mamlakatlarga ham talablar boʻlganda optimal narx-navo asosida amalga oshiriladi. Bu amaliyot sayyohlarni tashish boʻyicha xalqaro aviatsiya tashuvlarida keng qoʻllanilib, doimiy aviareyslarni amalga oshirish natijasidagi tijoriy xarajatlarni sezilarli tejash imkonini beradi. Shunga koʻra,

– Oʻzbekiston hududi boʻylab sayohat qilayotgan sayyohlar uchun tariflarni pasaytirish choralarini ishlab chiqish va joriy etish, xususan, avia hamda temir yoʻl tashuvlarini subsidiyalash;

– havo qatnovlari qoidalarini liberallashtirish imkoniyatlarini qayta koʻrib chiqish va “Ochiq osmon” siyosatini joriy qilish yoʻli bilan yirik xalqaro aviatashuvchilarni keng jalb qilish;

– mavjud aeroportlarni rekonstruksiya qilish va yangilarini qurish, Oʻzbekiston Respublikasi davlat chegarasini kesib oʻtish punktlarini barpo qilish, vertolyot maydonlarini tashkil etish kabilar taklif etilmoqda.

Yuqorida qayd etilgan muammolar va takliflardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, Oʻzbekistonda GATlardan foydalanish deyarli mavjud emas. Transport tashkilotlarining ayrimlarigina GAT tizimidan foydalangan holda xizmat koʻrsatadi. Ularning asosiy qatlami Toshkent shahrida boʻlib, asosiy qismi taksi xizmatini korsatuvchi korxonalar zimmasiga togʻri keladi. Bunga misol qilib «My

Taxi» va «Easy taxi» transport tashkilotlarini aytish mumkin. Ularning faoliyati tahlili togʻrisida keyingi rejada batafsil yoritilgan.

Shuningdek, Toshkent shahridagi jamoat transportlaridan foydalanishni takomillashtirish maqsadida Toshkent shahar Transport unitar korxonasi mobil ilovasi hamda telegramdagi kanalai mijozlarga elektron xizmat koʻrsatayotganligini aytib oʻtish joiz. Ammo, bu xizmatlar GATga asoslangan emas.

Turizmni transport xizmatlarisiz tasavvur qilib boʻlmaydi. Xoh u ichki turizm, xoh xalqaro turizm ishtirokchisi boʻlsin har bir sayyoh albatta oʻz sayohati davomida qaysidir transport vositalaridan foydalanadi. Uzoq manzillarga, oʻz mamlakatidan tashqarida sayohat qiluvchilarning aksariyat havo transporti va temir yoʻl transportidan foydalansa, mahalliy sayyohlar uchun quruqlik transportlari afzallroq hisoblanadi. Mahalliy sayyohlar uchun eng qulay transport xizmati boʻlib taksi va jamoat transportlari hisoblanadi.

Ayniqsa katta shaharlarda taksi – nafaqat eng tez, balki qulay transport xizmati boʻlib hisoblanadi. Chunki jadal rivojlanib borayotgan bugungi zamon talabiga koʻra har bir inson vaqtdan unumli foydalanishi zarur. Taksi xizmati esa aynan shunday imkoniyatni taqdim eta oladi. Ayniqsa sayyohlar boshqa shahar va mamlakatlarga sayohat qilish vaqtida istagan manzillariga taksi xizmatidan foydalanib oson va tez yetib olishlari mumkin.

Oʻzbekistonda faoliyat yuritayotgan, xizmat koʻrsatish talablariga javob bera oladigan shunday taksi xizmatlari sifatida «My taxi» va «Easy taksi» xizmatlarining faoliyati tahlilini olib bordim. Har ikkala tashkilot ham faqatgina Toshkent shahri boʻylab xizmat koʻrsatadi. Ularning faqatgina xizmat koʻrsatish sifati va xizmatlar turini emas, balki GATdan foydalansih holatini ham tahliliy oʻrganib chiqdim.

«My taxi» 2012 yilda «City taxi» nomi ostida ilk bor Toshkent shahrida oʻz faoliyatini boshlagan. 2013 yil bahorida esa «My taxi» nomi ostida ish boshlagan.





### 2.2.3-rasm «My taxi» logotipi

Manba: MyTaxi rasmiy sayti

Rasman ochilish 2015-yil 15-yanvarda bo'lib o'tgan. Ilk bor mijozlarga xizmat ko'rsatish uchun 15 avtomobildan foydalanilgan. 2017-yil 29-dekabr ma'lumotiga ko'ra bir kunda 6566 ta buyurtmani qabul qilgan.

2016-yil 21-martdan boshlab Farg'ona viloyatiga xizmat ko'rsatishni boshladi. Bir kunda 100 dan ortiq mijozga xizmat ko'rsatadi. 2016-yilda Farg'onada xizmat ko'rsatuvchi haydovchilar soni 30 ga yaqin bo'lgan va bu ko'rsatgich kun sayin oshib bormoqda. Ushbu transport tashkiloti xizmati «My taxi» mobil ilovalari mytaxi.uz sayti orqali online tizim orqali amalga oshiriladi. «My taxi» mijozlariga «ekonom», «komfort», «express», «superman», «peregон» tipidagi taksi xizmatlarini ko'rsatadi. «My taxi» taksi xizmatidan tashqari yetkazib berish xizmatini ham ko'rsatadi. Oziq-ovqat mahsulotlari, sovg'alar, gullar, kitoblar va elektronika yetkazib berish xizmatlari mavjud. Buning uchun mijoz mobil ilova orqali o'ziga kerakli bo'lgan mahsulotni tanlab o'z manzilini va yetkazib berish vatini kiritishi kifoya. Yetkazib berish xizmati online mytaxi.uz sayti orqali ham amalga oshiriladi. Saytda xizmat turlari tushunarli va aniq belgilar bilan berilgan (2.2.4-rasm).

2.2.4-rasm

### «My taxi» saytining qo'shimcha xizmatlar linklari



Manba: «My taxi» rasmiy sayti

Shuningdek, «My taxi» tashkilot va korxonalariga «My taxi biznes uchun» tarifini taklif etadi. Bu xizmatning qulayligi shundan iboratki, korxonalar va tashkilotlarga korporativ mijoz sifatida 1 oylik bepul xizmat taklif etiladi. Bundan tashqari «My taxi» o'zining elektron kioskiga ham ega (2.2.5-rasm). Mijozlar savdo markazlari, biznes-markazlar va restoranlarda o'rnatilgan elektron kiosklar orqali tez va qulay ravishda taksi buyurtma qilishlari mumkin bo'ladi. «My taxi» elektron kiosk qurilmasini ilk bor 2015 yilda «ICT-week 2015» axborot texnologiyalari ko'rgazmasi haftaligida namoyish etgan.

2.2.5-rasm

«My taxi» elektron kioski



Manba: «My taxi» rasmiy sayti

«My taxi» mobil ilovasi ro'yxatdan o'tgandan so'ng avtomatik tarzda GAT orqali foydalanuvchi turgan joyni onlayn xaritada ko'rsatadi. Shundan so'ng mijoz yetib borish manzilini xaritadan tanlashi lozim. Bunda mijoz online xaritada o'zi turgan manzilgan yaqin bo'lgan taksilarni ko'rishi mumkin (2.2.6-rasm). Manzil xaritada belgilangach, qaysi tipdagi xizmatdan foydalanishini belgilashi va to'lov turini belgilashi lozim. Kerakli parametrlar kiritilgandan so'ng dastur avtomatik ravishda sizga yaqin bo'lgan taksini topishda ko'maklashadi. Buyurtma amalga oshirilgandan so'ng taksi haydovchisining ismi, telefon raqami, haydovchining reyting balli, yetib kelish vaqti, buyurtma raqami, avtomobil turi, rangi va davlat raqami to'g'risidagi ma'lumotlar ekranda paydo bo'ladi (2.2.7-rasm). Buyurtmani


bekor qilish imkoniyati ham mavjud. Bunda buyurtmani bekor qilishda ekranda qayd etilgan bir necha sabablardan birini tanlash kerak bo‘ladi.

2.2.6-rasm

2.2.7-rasm

2.2.8-rasm

### «My taxi» mobil ilovasi



Manba: «My taxi» mobil ilovasini o‘rganish jarayonida muallif tomonidan olingan

Buyurtma yakunida xizmat haqi va mijoz xizmat sifatini baholash sahifasi chiqadi (2.2.8-rasm). Bu yerda mijoz xizmatni yetib kelish vaqti, haydovchining professionalligi, avtomobilni boshqarish sifati, yo‘l marshrutining qulayligi, xizmat sifati va boshqa jihatlariga ko‘ra 5 balli tizimda baholashi mumkin. Shuningdek, mijoz xizmat sifati haqida o‘z izohlarini ham yozib qoldirishi mumkin (2.2.9-rasm).

2.2.10-jadvalda «My taxi» xizmatlari bo‘yicha tariflarini keltridim. Xizmatdan foydalanish shartlariga ko‘ra mijoz eng kamida 3 km uchun to‘lovni amalga oshirishi lozim.

Bahor va yoz mavsumida «My taxi» tog‘ga sayohat qiluvchilar uchun «Горы» tarifini taklif etadi. Ushbu tariff bo‘yicha mijozlarga eng kamida 88 km

masofada 88000 soʻmga xizmati koʻrsatiladi. Keying har bir km uchun 1000 soʻmdan yoʻl haqi hisoblanadi.

2.2.10-jadval

«My taxi» xizmatlar tariflari. (2018-yil holatida)

| № | Tariflar | Minimal<br>km/soʻm | Qoʻshimcha<br>1km/soʻm | Qoʻshimcha<br>1km/soʻm<br>(shahardan<br>tashqarida) | Bepul<br>kutish<br>minut | Qoʻshimcha<br>kutish<br>min/soʻm |
|---|----------|--------------------|------------------------|---|--------------------------|----------------------------------|
| 1 | Ekonom   | 3/7000             | 1200                   | 1500  | 5                        | 400                              |
| 2 | Comfort  | 3/9000             | 1400                   | 1700  | 5                        | 500                              |
| 3 | Supermen | 3/10000            | 1200                   | 1500  | 5                        | 400                              |
| 4 | Chaspik  | 3/9000             | 1200                   | 1500  | 5                        | 400                              |
| 5 | Dostavka | 3/10000            | 1200                   | Xizmat<br>koʻrsatilmaydi                            | 5                        | 400                              |
| 6 | *Ekonom+ | 5/9000             | 1000                   | Xizmat<br>koʻrsatilmaydi                            | 5                        | 350                              |

\* «Ekonom+» tarifi ob-havo noqulay kunlarida amal qiladi. Ushbu tarif amal qilgan vaqtda «Ekonom» va «Komfort» tariflari ish faoliyatni toʻxtatiladi.

Manba: “My taxi” ning facebookdagi sahifasidan olingan maʼlumotlar asosida muallif ishlanmasi.<sup>24</sup>

Toshkent shahrida dispecherga qoʻngʻiroq qilmasdan onlayn tarzda taksi buyurtma qilish mumkin boʻlgan yana bir transport tashkiloti bu «Easy taxi».



2. 2.11-rasm. «Easy taxi» logotipi

«Easy taxi» kompaniyasi tarixi 2015-yildan boshlanadi. Ushbu kompaniya mijozlarga sifatli va qulay xizmat koʻrsatish bilan birga, «Easy taxi» mobil ilovasidan foydalanuvchi har bir mijozga bonuslar

<sup>24</sup> [https://www.facebook.com/pg/mytaxi.uz/posts/?ref=page\\_internal](https://www.facebook.com/pg/mytaxi.uz/posts/?ref=page_internal)

taqdim etib boradi. Ushbu kompaniya o‘z ishini 50 avtomobildan iborat avtoparkdan boshlagan bo‘lib hozirda avtomobillar soni 200 tani tashkil etadi.

«Easy taxi» mobil ilovasi orqali mijozlar taksi xizmatiga hech qanday qo‘ng‘iroqsiz buyurtma berishlari mumkin. Ushbu mobil ilova «My taxi» kabi foydalanuvchi ro‘yxatdan o‘tganidan so‘ng uning hozirgi vaqtda turgan manzilini avtomatik tarzda onlayn xaritadan belgilab beradi, hamda foydalanuvchi yetib borish manzilini xaritada belgilaganidan so‘ng, unga maqul bo‘lgan variantdagi tarif bo‘yicha yaqin masofadagi taksi izlanadi va buyurtma qabul qilinadi. «Easy taxi» mobil ilovasida «My taxi»dan farqli ravishda mijoz o‘z xohishiga ko‘ra avtomobilni tanlaydi (2.2.12-rasm). Bundan tashqari «Easy taxi» orqali mijozlar oldindan buyurtma qilishlari mumkin bo‘ladi.

2.2.12.-rasm.

2.2.13.-rasm.

#### «Easy taxi» mobil ilovasi



Manba: «Easy taxi» mobil ilovasini o‘rganish jarayonida muallif tomonidan olingan

2017-yil oxiridagi ma'lumotlarga ko‘ra «Easy taxi» kompaniyasi TPS, LG CNS, Hotel Wyndham, Nobel Pharmsanoat, Hyatt Regency Tashkent, Huawei, Ucell, Uzmobil, Uzdigital TV, Prime Ceramics, Asko-Vostok, Acibadem, Apex Pharm, UNNO, Global Solutions, Unipolis, Miran International Hotel, British

Council, US Embassy in Uzbekistan, Heidelberg Zentralasien, KDB Bank Uzbekistan, Korean Air Lines, Worley Parsons kabi 150 dan ortiq korporativ mijozlarga ega.

2016-yilda «Easy taxi» mijozlarga qulaylik yaratish maqsadida telegram ijtimoiy tarmogʻida oʻz telegram-botini ochdi. Endilikda mijozlar har bir buyurtma uchun bonus ballarga ega boʻlishadi va toʻplangan ballar maʼlum miqdorga yetgach xizmatdan bepul foydalanish imkoniyatini qoʻlga kiritadi. Shuningdek, mobil ilovadan foydalanuvchi har bir yangi mijozga alohida bonus ballar taqdim etiladi. «Easy taxi» har bir yangi korporativ mijozlariga 500 ming soʻm bonus taqdim etadi (2.2.13-rasm).

Kompaniyada eng sara avtomobillar, haydovchilardan foydalaniladi. Mijozlarga 24 soat davomida xizmat koʻrsatiladi.

2.2.14-jadval

«Easy taxi» xizmatlar tariflari

| №   | Tariflar  | Minimal km/soʻm | Qoʻshimcha 1km/soʻm | Qoʻshimcha 1km/soʻm (shahardan tashqarida) | Kutish minut/s oʻm | Qoʻshimcha kutish min/soʻm |
|---|-----------|-----------------|---------------------|--|--------------------|----------------------------|
| 1   | Ekonom    | 3/7000          | 1200                | 1500                                       | 5/0                | 400                        |
| 2   | Перегон   | 5/30000         | 1500                | Xizmat koʻrsatilmaydi                      | 5/0                | 500                        |
| 3   | Dostavka  | 5/10000         | 1200                | Xizmat koʻrsatilmaydi                      | 5/0                | 400                        |
| 4   | *Встреча  | -               | -                   | -  | 60/300<br>00       | 350                        |
| 5   | **Ekonom+ | 3/1000          | 1200                | 1500                                       | 5                  | 400                        |
| *Aeroport yoki temir yoʻl vokzalida yozuv taxtachasi bilan kutib olish xizmati. |           |                 |                     |  |                    |                            |
| ** «Ekonom+» tarifi ob-havo noqulay kunlarida amal qiladi.                      |           |                 |                     |  |                    |                            |

Manba: “Easy taxi” ning facebookdagi sahifasidan olingan maʼlumotlar asosida muallif ishlanmasi.<sup>25</sup>

<sup>25</sup> [https://www.facebook.com/pg/easytaxiuz/posts/?ref=page\\_internal](https://www.facebook.com/pg/easytaxiuz/posts/?ref=page_internal)

«Easy taxi» xizmatlari uchun to'lovlar naqd va naqdsiz to'lov shaklida amalga oshiriladi. shuningdek, mijozlar MasterCard va VISA kartalar, internet-to'lov orqali va elektron to'lov (Click, PayMe) orqali ham to'lovlarni amalga oshirishlari mumkin.

2.2.14-jadvalda «Easy taxi» xizmatlari bo'yicha tariflarini keltirdim. Xizmatdan foydalanish shartlariga ko'ra mijoz eng kamida 3 km uchun to'lovni amalga oshirishi lozim.

«Easy taxi» «My taxi»dan farqli ravishda ob-havo noqulay bo'lgan vaqtda eng arzon tarif narxlarini 16,5% ga oshirib yuborgan. Bunday noqulaylik mijozlarning kompaniyaga bo'lgan ishonchining sussayishiga olib keladi deb o'ylayman.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan har bir transport kompaniyasi onlayn tizimda qisman GAT orqali faoliyat ko'rsatadi. Ular Toshkent shahridagi 10 ta yetakchi taksi firmalaridan biri bo'lib, arzon narx jihatidan «My taxi» birinchi o'rinda bo'lib, ko'rsatilgan xizmat uchun o'rtacha 10 km uchun 10 000 so'mni tashkil etsa, «Easy taxi» esa 6 o'rinda bo'lib, o'rtacha xizmat haqi 10 km uchun 12 000 so'mni tashkil etadi.

### **2.3. O'zbekistonda transport xizmatlarini ko'rsatishda GATlardan foydalanishning afzalliklari va takomillashtirish yo'llari**

Yuqorida online tizimda ishlovchi xaritalar, ularning faoliyatni ijobiy va salbiy jihatlari, sayyohlar uchun qulayliklari haqida so'z yuritgan edik. Shundan kelib chiqqan holda offline tizimda ishlovchi electron xaritalar va dasturlarni ham tahlil qilib, ularning turizm sohasidagi o'rni, sayyohlar uchun qulayliklarini quyida yoritib boraman.


Axborot texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bir paytda ular bilan bog'liq noqulayliklar ham yuzaga kelishi tabiiy hol. Ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida jiddiy muammolar yuzaga kelishi mumkin. Internet

tarmoqlaridagi uzilishlar, nosozliklar, yoki umuman tarmoqqa ulanish imkoniyati bo‘lmagan paytlarda biz online tizimda ishlovchi xaritalardan foydalan olmasligimiz tabiiy. Bunday vaqtda offline tizimda ishlovchi dasturlar biz uchun juda qulay bo‘lib hisoblanadi. Bunday dasturlarga HERE Maps, Google Maps, OsmAnd, City Maps 2Go, Maps.Me kabilarni misol keltirish mumkin.

«OsmAnd» offline tizimda ishlovchi ushbu mobil ilova butun dunyo bo‘ylab minglab ko‘ngillilar tomonidan ma’lumotlar to‘ldirib boriluvchi OpenStreetMap loyihasi bo‘lib hisoblanadi (2.3.1-rasm). Dasturning foydalilik jihati uning qaysi joyda qo‘llanilishiga bog‘liq bo‘lib, qaysi shaharlarda ko‘proq ma’lumotlar mavjudligi bilan hisoblanadi. Dasturda bazi shaharlarda katta ko‘chalar tog‘risida eng oddiy ma’lumotlar berilsa, ba’zi joylarda do‘konlardan tortib hatto haykallargacha joylashgan joyi va boshqa ma’lumotlarni olish mumkin. Juda ko‘p qo‘shimcha xizmatlarga ega bo‘lib, ularning kamchiligi sifatida har birini alohida yuklash kerakligi yuzaga chiqadi.

2.3.1-rasm

### «OsmAnd» mobil ilovasi



Manba: <https://lifehacker.ru/offline-navigation-apps-for-android/>




«City Maps 2Go» ilovasining xaritalari va ma'lumotlari foydalanuvchining elektron qurilmasi xotirasida saqlanadi. Shuning uchun foydalanuvchilar undan istalgan vaqtda, offline tizimda ham foydalanishi mumkin.

Uning barcha funksiyalari, hattoki manzil bo'yicha izlash, joyni GPS orqali aniqlash internet tarmog'iga ulanmasdan ishlaydi. «City Maps 2Go» manzillarni, diqqatga sazovor joylarni avtonom rejimda izlashi mumkin, lekin navigatsiyaga ega emas. Ushbu ilovaning qiziq va qulay jihati shundan iboratki, ilova «Wikipedia» bilan integratsiyalashgan bo'lib, foydalanuvchi izlayotgan manzili, yodgorliklar va uni qiziqtirayotgan joylar to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lib borishi mumkin (2.3.2-rasm).<sup>26</sup>

2.3.2-rasm

### «City Maps 2Go» mobil ilovasi



Manba: <https://lifehacker.ru/offline-navigation-apps-for-android/>


«HERE Maps» offline mobil ilovasi interfeys jihatdan boshqa dasturlardan biroz eskiroq bo'lsada, juda tez ishlaydi. Ushbu ilovadan foydalanish juda qulay bo'lib, ishlash tezligi va axborotliligi bilan ustun hisoblanadi. Bundan tashqari

<sup>26</sup> <https://lifehacker.ru/offline-navigation-apps-for-android/>

dastur offline tizimda nafaqat piyodalar uchun balki avtomobildagi sayyohlar hattoki, jamoat transportidan foydalanuvchi sayyohlar uchun ham marshrut tuza oladi (2.3.3-rasm).

2.3.3-rasm

### «HERE Maps» mobil ilovasi




Manba: <https://lifehacker.ru/offline-navigation-apps-for-android/>

«Maps.Me» offline dasturi offline tizimda ishlovchi eng yirik va eng yaxshi dastur bo‘lib, doimiy ravishda yangi funksiyalarni joriy etib borayotgan dastur hisoblanadi. «Maps.Me» katta tezlik bilan ishlashi, oddiy marshrutlar va piyodalar uchun marshrutlar tuzishi, xaritalarni yuqori darjada detalizatsiyalashi jihatidan boshqa offline kartografik dasturlardan ustun turadi. Dastur to‘laligicha bepul va xaritalarni yuklab olishda hech qanday chegaraga ega emas (2.3.4-rasm). «Maps.Me» ilovasining yana bir qulayligi ilovani yuklab olganda foydalanuvchi faqatgina dunyo xaritasini emas balki uning tanloviga ko‘ra har bir davlatning alohida xaritalarini ham yuklab olishi mumkin. «Maps.Me» da millionlab korxonalar va tashkilotlar, 200 dan ortiq davlat, minglab shaharlar va orollarning kartografik ma'lumotlar kiritilgan. Foydalanuvchilar sevimli joylarni dastur xotirasida saqlashi ham mumkin.

Offline dasturlarning yagona kamchiligi ularda yoʻllardagi tirbandliklarni koʻrish imkoniyati mavjud emasligi.

2.3.4-rasm

#### «Maps.Me» mobil ilovasi



Manba: <https://lifehacker.ru/offline-navigation-apps-for-android/>

Oʻzbekiston Respublikasi jahon sayyohlik bozorida oʻz oʻrnini mustahkamlab olgan, ammo sezilarli oʻsish haqida gap yuritishga erta. Bu Turizm boʻyicha raqobatbardosh mamlakatlar reytingi bilan ham isbotlanadi. Unda dunyodagi (madaniy zaxiralar, arzon infratuzilma, sayyohlik mahsulotlari narxi, xavfsizlik darajasi, xalqaro shaffoflik jihatidan) eng jozibador 140ta sayyohlik maskanlari qayd etilgan. Ushbu roʻyxatda Qozogʻiston 85-oʻrin, Qirgʻiziston 116-oʻrin, Tojikiston 119-oʻrinni egallagani holda, Oʻzbekiston bu reytingga kiritilmagan. Oʻzbekiston Prezidentining «Oʻzbekiston Respublikasida oʻrta istiqbolda turizmni rivojlantirish boʻyicha Kontsepsiyasini hayotga tatbiq etish choralari toʻgʻrisida»gi qarori loyihasida soʻz yuritilgan.

Butunjahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) maʼlumotlariga koʻra, turizm jahon tovarlar va xizmatlar eksportida toʻrtinchi, daromad keltirishi boʻyicha

uchinchi oʻrinda turadi. Uning jahon YaIMdagi hissasi 10 foizni tashkil etadi. Oʻzbekiston, Butunjahon turizm va sayohatlar boʻyicha kengashi (BTSK)ning baholariga koʻra, sayyohlar kelishi borasida dunyo mamlakatlari orasida 150-oʻrinda. Uning hissasiga umumiy sayyohlar oqimining 0,2 foizi (bu boradagi Oʻzbekiston salohiyati 2,2 foiz) toʻgʻri keladi.

Shu bilan birga, hujjatda qayd etilishicha, 2011–2015 yillarda Oʻzbekistonda koʻrsatilgan turistik xizmatlar hajmi (109 foiz) va xorijiy tashriflar soni ikki baravar (96,8 foiz) oshgani eʼtirof etilgan. Yangi turistik korxonalar soni 27,2 foizga oʻsgan.

Shunga qaramay, turizm infratuzilmasi, sifat darajasi, sayyohlik xizmatlarini koʻrsatish holati, mamlakat iqtisodiyotiga qoʻshayotgan hissasi zamon talablariga javob bermaydi. BTSK baholashicha, Oʻzbekiston turizm sohasining iqtisodiy hissasi 2015 yilda 1,81 trln soʻm yoki YaIMning 1,1 foizini tashkil etgan. 864,2 mlrd soʻmlik investitsiyalar (barcha kiritilgan sarmoyalarning 2,2 foizi) va 200 mln AQSh dollari miqdoridagi eksport xizmatlarini hisobga olganda YaIMning 3,2 foizini tashkil etadi. Turizmning Oʻzbekiston aholi bandligidagi bevosita ulushi 5 foiz (141,5 ming kishi) dan iborat.

Oʻzbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasi turizmning rivojlanishi va mamlakatning sayyohlik salohiyatidan yetarli darajada foydalanishga toʻsiq boʻlayotgan asosiy sabablarni maʼlum qildi. Muammolar va yechimlar Oʻzbekiston Prezidentining «Oʻzbekiston Respublikasida oʻrta istiqbolda turizmni rivojlantirish boʻyicha Kontsepsiyasini hayotga tatbiq etish choralari toʻgʻrisida»gi qarori loyihasida taqdim etilgan. Hujjatda qayd etilishicha, milliy sayyohlik mahsulotlarining raqobat bardoshligiga yashash va aviaparvozlar uchun yuqori narxlar, servis darajasining cheklanganligi, muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilmalarning nomukammalligi, qulay sayyohlik axborot taʼmini (navigatsiya va axborot markazlari) mavjud emasligi, malakali kadrlarning tanqisligi, Oʻzbekistonni xorijda targʻib qilishning zaifligi jiddiy muammolardir.

Yuqorida qayd etilgan muammolardan kelib chiqqan holda "Kompyuter va geoaxborot texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish markazi" DUK ning Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) geodeziya, topografiya, kartografiya, geoinformatsion axborot tizimlari (GAT) toponomika, yer tuzish va yerdan foydalanish, davlat kadastrlari, ko'chmas mulkni ro'yhatdan o'tkazish, tarmoq iqtisodiyoti va menejmenti sohalarida "bir oyna" tamoyili bo'yicha ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va tajriba-texnologiya ishlarini bajarish xizmatidan transport tashkilotlari imtiyozli foydalanishini O'zbekistonda Turizmni rivojlantirish Davlat qo'mitasi bilan hamkorlikda tashkil etish maqsadga muvofiq.

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ UzGPS transport vositalarini monitoring qilish milliy tizimi bilan hamkorlikda temir yo'l transporti monitoringi va boshqaruvining geoaxborot tizimini ishga tushirdi. Bu haqda "Novosti Uzbekistana" xabar bermoqda.

Eng zamonaviy sun'iy yo'ldosh monitoringi texnologiyalari yo'lovchilarning maksimal qulayligi va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan. Sun'iy yo'ldosh monitoringi texnologiyalari poyezdlar harakatini nazorat qilishni avtomatizatsiya qilish yo'li bilan avariya holatlarining oldini olishga yordam beradi. Shuningdek, yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifati oshiriladi.

Tizim tarkibning lokatsiyasini real vaqt rejimida bilib turish imkonini beradi.

Shuningdek, "Sun'iy yo'ldosh monitoringi tizimi "Xavfsiz shahar" loyihasining elementlaridan biriga aylanishi mumkin", - deyiladi kompaniya xabarnomasida.

Bundan tashqari "Chorvoq" erkin turistik zonasini tashkil etish to'g'risidagi Prezident Farmonida vakolatli vazirlik va idoralarga erkin turistik zonani rivojlantirish bo'yicha erkin turistik zona hududida xavfsiz turizmni ta'minlash konsepsiyasini, shu jumladan, intellektual transport, geoaxborot tizimi va boshqalarni joriy etish bo'yicha takliflarni kiritish nazarda tutilgan.

Eng asosiysi, MDH davlatlarida katta muvafaqqiyat bilan o'z faoliyatini kengaytirib borayotgan «Яндекс.Такси» transport kompaniyasi O'zbekiston

bozoriga kirib keldi. Hozirda ushbu kompaniya O‘zbekistonning 5 ta shahrida: Andijon, Buxoro, Namangan, Samarqand va Toshkent o‘z faoliyatini boshlash arafasida. Kompaniya GAT orqali onlayn tizimda transport xizmatlarini ko‘rsatadi.

2017 yildan boshlab «Яндекс Карты» O‘zbekistonning ayrim shaharlaridagi yo‘llar tirbandligini ko‘rsata boshladi. Tirbandliklar asosan navigatoridan ko‘proq foydalanuvchilar mavjud bo‘lgan shaharlarda yoritib berilmoqda.

«Яндекс.Такси» - web-sayt yoki mobil ilovalar orqali taksi xizmatini onlayn buyurtma qilish tizimi hisoblanadi. U buyurtmalar soni jihatidan Rossiyaning eng yirik taksi xizmati kompaniyasi hisoblanadi. 2017 yil iyul oyidagi ma'lumotlariga ko‘ra ushbu tizim Rossiya, Belorusiya, Ukraina, Moldaviya, Armaniston, Gruziya va Qozog‘istonning 126 yirik shaharlarida ishlaydi. Umumiy holda ushbu kompaniyada 200mingdan ortiq haydovchilar ishlaydi.

Hozirda ushbu yirik kompaniya 2017 yildan buyon O‘zbekistonning Toshkent va Samarqand shaharlarida ham o‘z faoliyatini olib bormoqda.

Shuningdek, Buxoro shahrida 2018 yildan buyon “YOKO Taxi” o‘z xizmatlarini taklif etishni boshladi. Ammo haligacha uning mobil ilova orqali xizmat ko‘rsatishi to‘liq ishga tushmagan. Bundan tashqari ushbu taxi xizmatini ko‘rsatuvchi transport korxonasi avtomobillari jahon standartlariga javob bermaydi. Ushbu korxonada asosan “Matiz” va “Spark” avtomobillaridan foydalaniladi. Uning yana bir asosiy kamchiligi sifatida avtomobillarga gaz qurilmalari o‘rnatilganligi sababli yuk joylash uchun joyi mavjud emas, Bu esa chet ellik sayyohlar uchun katta noqulaylik tug‘diradi. Ayniqsa, aeroport va temir yo‘l vokzallaridan yo‘lovchilarni mehmonxonalargacha tashish vaqtida yuqorida qayd etilgan muammoga duch kelish mumkin.

## II BOB BO‘YICHA XULOSA

1. Transport ilovalari uchun GATlar katta potensialga ega. Transport infratuzilmasini rejalashtirish va qo‘llab-quvvatlash – bu asosiy foydalanish doirasidir. Hozirgi vaqtda yangi texnologiyalarni qo‘llashga bo‘lgan qiziqishlar ortib bormoqda, misol uchun taksilarda yo‘lovchilar uchun yo‘l kiralarini aniq belgilash va haydovchining manzilga to‘g‘ri yetib borishi, shuningdek, korxonaning ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini va xavfsizligini nazorat qiluvchi navigatsion ilovalarni aytish mumkin. Ularning hozirgi vaqtdagi raqamli xaritada joylashgan joyi haydovchi kabinasidagi ekranda va taksi xizmatini ko‘rsatuvchi transport korxonalarida ofislarida ko‘rsatilishi GATning ishtirogini talab etadi.

2. O‘zbekistonda GATlarga asoslangan transport xizmatlarini ko‘rsatuvchi transport korxonalarini faoliyati tahlilini olib borish natijasida korxonalarining mijozlar uchun yaratilgan mobil ilovalarida ayrim kamchiliklarning brligini va ularning bugungi kunda xizmat ko‘rsatish jarayonida katta-kichik muammolarni yuzaga keltirib chiqarayotganligi aniqlandi.

3. O‘zbekiston hududida GATlarga asoslangan holda ransport xizmatlarini ko‘rsatishda online va offline xaritalarning ahamiyati ko‘rib chiqildi. Aynan O‘zbekiston hududida bugungi kunda Yandeks xaritalaridan foydalanish samarali va xavfsizligi aniqlandi.

### **III BOB. O‘ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

#### **3.1. Turizmni rivojlantirishda yangi transport marshrutlarini joriy qilishning ahamiyati**

Turizm sohasini tashkil etuvchi asosiy infratuzilmalar: joylashtirish vositalari, umumiy ovqatlanish xizmati va transport xizmati hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, turizm sohasini rivojlantirishda transport xizmatlari asosiy o‘rin egallaydi. Transport xizmatlarining rivojlanishi va takomillashib borishi sayyohlar uchun qulayliklar yaratib, ularning sayohatlarini yengillashtiradi. Bu orqali turizmning mamlakatda taraqqiy etishiga erishish mumkin.

Aleksandra Lapko o‘zining ilmiy maqolasida hududda turizmni rivojlantirishda asosiy rolni shahar arxitekturasi va madaniy yodgorliklari bilan birgalikda ovqatlantirish, joylashtirish va transport xizmatlari asosiy o‘rin tutishini ta’kidlab o‘tgan.<sup>27</sup> Shunday ekan, transport xizmatlarini ko‘rsatish turizm sohasida doim e’tibor markazida bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra 7 ta davlat fuqarolari, hamda “O‘zbekistonda turizmni tezkor rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra 45ta davlat fuqarolari O‘zbekistonga 30 kun muddatga vizasiz tashrif buyurishlari mumkin bo‘ldi. Bundan tashqari yana 76 mamlakatga elektron vizalarini olib, mamlakatimizga 30 kun muddatga tashrif buyurish imkoni berildi.<sup>28</sup>

Shuningdek, 2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasining Turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

---

<sup>27</sup> <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1877042814054627>

<sup>28</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni



deb nomlangan 3-bobining 3-bandiga ko‘ra transport logistikasini rivojlantirish, tashqi va ichki yo‘nalishlarni kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish, shu jumladan:

Yo‘lovchilar tashuvini rivojlantirish, shu jumladan doimiy transport qatnovini yo‘lga qo‘yish, turli transport vositalarining qulay tutash bog‘lamalarini tashkil etish, ... o‘z ichiga ... va avtomobil transportini qamrab olgan qulay va arzon transport logistikasini ta'minlash, respublika hududlariga va ... sayohatlarni amalga oshirishda qulay shart-sharoitlar yaratish... kabi vazifalar belgilangan.<sup>29</sup>

Bu o‘z navbatida tashkil etilmagan turizmning rivojlanishi kutilayotganligidan dalolat beradi. Bunday vaziyatda o‘z-o‘zidan turizm infratuzilmasini takomillashtirish va rivojlantirish talab etiladi.<sup>30</sup>

O‘zbekistonda Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29-30 mart kunlari Buxoro viloyatiga tashrifi davomida bergan topshiriqlari hamda viloyat faollari ishtirokida o‘tkazilgan yig‘ilish bayonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Transport vazirligi tomonidan Buxoro-Toshkent-Samarqand-Xorazm-Qashqadaryo yo‘nalishlarida qatnaydigan zamonaviy avtobuslar xizmati tashkil etildi.

Shu sababli, 20 dona katta hajmli avtobuslarni bir oy muddatda Transport vazirligi tizimidagi «O‘zavtotransport» MChJning viloyatlarida tashkil etiladigan filialida yetkazilishini ta'minlash belgilanganligini inobatga olib, «Toshkent» avtovokzalidan «Buxoro» avtostansiyasiga «Toshkent-Samarqand-Navoiy-Buxoro» shaharlararo tezyurar avtobuslar qatnovi yo‘lga qo‘yildi.

Mazkur avtobuslar videokuzatuv moslamalari va GPS qurilmasi bilan jihozlangan bo‘lib, xavfsizlik talablariga to‘la javob beradi. Shuningdek, avtobusni 2 nafar tegishli malakalga va yetarli ish stajiga ega bo‘lgan haydovchilar boshqaradi va markazlashgan dispecherlik xizmati asosida yo‘lovchilarga namunali transport xizmatini ko‘rsata oladi. «Buxoro-Toshkent» yo‘nalishida yo‘l

---

<sup>29</sup> 2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi

<sup>30</sup> <http://www.xabar.uz/uz/jamiyat/7-davlatga-30-kunlik-vizasiz-rejim-39>

kira hozirda 55 000 so‘m qilib belgilangan. Chiptalarni avtostansiya kassalari orqali xarid qilish mumkin.

Ma'lumot o‘rnida: avtobuslarning qatnov jadvali to‘g‘risida qo‘shimcha ma'lumotlar doimiy ravishda ommoviy axborot vositalarida hamda Transport vazirligining [www.mintrans.uz](http://www.mintrans.uz) sayti orqali aholiga yetkazib borilishi yo‘lga qo‘yilishi ko‘zda tutilgan.<sup>31</sup>

Bugungi kunda Buxoro viloyatida mustaqil sayyohlar (tashkil etilmagan turizm ishtirokchilari) uchun yetarli shart-sharoitlar mavjud emas. Xususan, transport xizmatlaridan erkin foydalanish imkoniyati yo‘q. Ayniqsa, Buxoro viloyatining temir yo‘l vokzali(Buxoro-1)dan tarixiy hudud (Buxoro eski shahar qismi)gacha bo‘lgan transport marshrutlari mavjud emas. Hozirgi kunda Buxoro viloyatiga temir yo‘l transporti orqali tashrif buyurgan sayyohlar Buxoro-1 Temir yo‘l vokzalidan Buxoro tarixiy hududi(Buxoro eski shahar qismi)gacha (“Buxoro-1 – Labi Hovuz” marshruti bo‘yicha) faqatgina 2 ta transport marshruti almashib yetib borishi mumkin (3.1.1-rasm), ya’ni Buxoro temir yo‘l vokzalidan Buxoro shahar kasalxonasigacha yetib borib keyin boshqa avtobus orqali tarixiy hududgacha yetib borishi mumkin. Bu o‘z navbatida sayyohlarga noqulaylik tug‘diradi. Shundan kelib chiqqan holda men Kogon shahrida joylashgan “Buxoro-1 – Labi Hovuz” marshrutini (3.1.2-rasm) qayta tiklash lozim deb o‘ylayman.

Bundan tashqari yurtimizda ziyorat turizmini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilayotganligi hech kimga sir emas. Buxoro viloyatida ziyorat turizmini rivojlantirish uchun yetarli potensial mavjud. Joriy yilning 21-23-fevral kunlari Buxoroda I-Xalqaro ziyorat turizmi forumi o‘tkazildi. Anjuman o‘tkazilgandan so‘ng Malayziya, Indoneziya, Turkiya va hatto, Yevropa davlatlaridan islom diniga e’tiqod qiluvchilar atayin kelib, muqaddas qadamjolarini ziyorat qilmoqda, buyuk ajdodlardan qolgan boy ma’naviy-ma’rifiy merosni o‘rganishmoqda.<sup>32</sup> Ayniqsa “7

---


<sup>31</sup> Buxoro viloyat Turizmni rivojlantirish departamenti matbuot xizmati telegramdagi kanalidagi ma’lumotlar

<sup>32</sup> <https://www.trt.net.tr/uzbek/turk-dunyosi/2019/02/20/12345678910-1149203>

Pir” ziyorat turistik marshruti bo‘ylab harakatlanuvchi mahalliy va xorijiy ziyoratchilar sayyohlarning katta qismini tashkil etadi.

3.1.1-rasm


“Buxoro-1 – Labi Hovuz” transport marshrutining xaritadaagi hozirgi holati



Manba: GoogleMap online xaritasi asosida muallif ishlanmasi.

Shularga asoslangan holda Buxoro viloyatida joylashgan 7 Pir ziyoratgohi bo‘ylab harakatlanuvchi yangi transport marshruti(3.3.-rasm)ni tashkil etish maqsadga muvofiq. Ushbu marshrut mahalliy va xorijiy ziyoratchilarning erkin va xavfsiz ziyorat qilishlarini ta’minlash bilan birgalikda ularga qulay transport xizmatlari ko‘rsatilishini ta’minlaydi.

“Buxoro-1 – Labi Hovuz” yo‘nalishi bo‘yicha taklif etilayotgan transport marshrutining xaritadaagi ko‘rinishi




Manba: GoogleMap online xaritasi asosida muallif ishlanmasi.

Bunday yangi marshrutlarni tashkil etish o‘z navbatida mustaqil sayyohlar uchun qulaylik yaratadi hamda ichki va kirish turizmini rivojlantirishga yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan yangi transport yo‘nalishlarini tashkil etish yuzasidan Buxoro viloyat Turizmni rivojlantirish departamenti direktori F.Xodjayevga 2019-yil 29-may kuni yozma murojaat qilindi (2-ilova).

“Buxoro-7 Pir” yangi transport yo‘nalishi bo‘yicha taklif etilayotgan transport marshruti ning xaritadaagi harakatlanish tartibi



Manba: GoogleMap online xaritasi asosida muallif ishlanmasi

Men taklif etayotgan “Buxoro-1 – Labi Hovuz” hamda “Buxoro – 7 Pir” yangi transport yo‘nalishlari viloyat turizmni rivojlantirish departamenti mutaxassislari tomonidan o‘rganib chiqilib, takliflar amalga oshirilganda sayyohlarga qulayliklar yaratilishini inobatga olgan holda joriy etish maqsadga

muvofig ekanligi ma'lum qilingan holda 2019 yil 1 iyun kuni 01-04/699-sonli xat bilan javob berildi (3-ilova). Shuningdek, ushbu takliflarni joriy etish maqsadida mazkur yo'nalishlarda transport qatnovini yo'lga qo'yishda Buxoro viloyat transport boshqarmasi boshlig'i A.Ashurovga amaliy yordam ko'rsatilishi so'rab murojaat qilindi.

### 3.1.4-jadval

#### “Buxor - 7 Pir” marshruti bo'yicha bekatlar va harakatlanish grafigi

| <b>№</b> | <b>Bekatlari nomi</b>   | <b>Oraliq masofa (km)</b> | <b>Harakatlanish vaqti</b> | <b>Kutish vaqti (min)</b> |
|----------|---|---------------------------|----------------------------|---------------------------|
| 1        | Buxoro – Xoja Abulxoliq<br>G'ijduvoni                         | 42,3                      | 05:00- 16:00               | 20                        |
| 2        | Xoja Abulxoliq G'ijduvoni – Xoja<br>Muhammad Orif ar-Revvari  | 16,2                      | 06:00-17:00                | 20                        |
| 3        | Xoja Muhammad Orif ar-Revvari –<br>Xoja Mahmud Anjir Fag'navi | 9                         | 06:20-17:20                | 20                        |
| 4        | Xoja Mahmud Anjir Fag'navi –<br>Xoja Ali Romitani             | 37                        | 07:00-18:00                | 20                        |
| 5        | Xoja Ali Romitani – Xoja<br>Muhammad Boboyi Samosi            | 5                         | 07:20-18:20                | 20                        |
| 6        | Xoja Muhammad Boboyi Samosi –<br>Hazrat Sayid Amir Kulol      | 46,6                      | 08:00-19:00                | 20                        |
| 7        | Hazrat Sayid Amir Kulol –<br>Bohouddin Naqshband              | 5                         | 08:20-19:20                | 20                        |
| 8        | Bohouddin Naqshband - Buxoro                                  | 13                        | 09:00-20:00                | 20                        |

Manba: Muallif ishlanmasi

Buxoro viloyat transport boshqarmasi tomonidan 2019-yil 13-iyun kuni 527-sonli xat bilan javob berildi (4-ilova). Buxoro viloyat transport boshqarmasi tomonidan sayyohlarga qulaylik yaratish bo'yicha taklif orqali qilingan murojaat ko'rib chiqilgan va Buxoro shahriga tashrif buyurayotgan sayyohlarni va shaharda xarakatlanayotgan transport vositalarini soni kun sayin ko'payib borayotganligi va Labi Hovuz hududida piyoda sayohat qilayotgan sayyohlarni xavfsizligini

ta'minlash hamda ushbu hududda transport vositalari to'xtab turishi uchun maxsus joy yo'qligini inobatga olib, taklif etilayotgan Kogon temir yo'l vokzalidan Buxoro shahri Labi Hovuzgacha bo'lgan marshrutni yo'lga qo'yish bo'yicha bildirilgan taklif maqsadga muvofiq emasligini bildirgan. Shuningdek, kelgusida ushbu hududda transport vositalari uchun maxsus joy hamda piyoda sayohat maqsadga muvofiqligi ma'lum qilingan.

Bundan tashqari, Buxoro viloyatidagi 7 Pir ziyoratgohlari bo'ylab harakatlanuvchi marshrutni yo'lga qo'yish bo'yicha bildirilgan taklifimga asosan sayyohlar uchun xavfsizlik choralari yanada takomillashtirilgan taqdirda ushbu taklif etilayotgan yo'nalishda transport qatnovini tashkillashtirilishi ma'lum qilingan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Buxoro viloyat transport boshqarmasi tomonidan viloyat IIB YHXB va Buxoro avtomobil yo'llari hududiy boshqarmasiga 7 Pir ziyoratgohlari bo'ylab harakatlanuvchi avtobus yo'nalishi yo'l sharoitini hamda harakat xavfsizligi holati o'rganilib dalolatnoma rasmiylashtirish maqsadida mutaxassis ajratish bo'yicha yozma murojaat qilinganligi bildirildi (5-ilova). Mazkur yo'nalish soha mutaxassislari tomonidan o'rganib chiqilib ijobiy dalolatnoma rasmiylashtirilgan taqdirda ushbu yo'nalishda transport qatnovlarini yo'lga qo'yish bo'yicha komissiyaning navbatdagi yig'ilishiga taklif kiritish maqsadga muvofiqligi bildirildi.

### **3.2. Turistik hududlarda onlayn transport xizmatlarini ko'rsatishni rivojlantirish**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholiga transport xizmati ko'rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo'lovchilarni tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qaroriga ko'ra avtotransport xizmatlari bilan ta'minlash sohasini yanada takomillashtirish, hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishish hamda mamlakat shahar va qishloqlarida aholi bandligi muammolarini hal etishda avtotransport

xizmatlari ko'rsatishning rolini kuchaytirish, yo'lovchilar tashish xavfsizligini oshirish va atmosferaga zararli tashlamalarni qisqartirish maqsadida: ...

...2. O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi zimmasiga yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish madaniyati va sifatini oshirishga yo'naltirilgan kompleks amaliy chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi va tizimli asosda amalga oshirilishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish vazifasi yuklansin, quyidagilar agentlikning qo'shimcha funksiyalari etib belgilansin: ...

...yo'lovchilar tashishni amalga oshirish yuzasidan doimiy ravishda markazlashtirilgan monitoring olib borilishini ta'minlash, onlayn (GPS) rejimida masofadan kuzatish tizimini hamda rasmiy veb-sayt va «ishonch telefonlari» orqali aholi bilan muloqot mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish; ...

...9. 2022-yilning 1-yanvarigacha bo'lgan muddatga: ...  
...chetdan keltiriladigan va O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, muntazam yo'lovchilar tashish yo'nalishlarida band bo'lgan avtobuslar va mikroavtobuslarning ishi ustidan onlayn rejimida (GPS), shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha shahar yo'lovchilar tashish transportida yurganlik uchun elektron to'lov tizimlarini masofadan kuzatib borishni joriy etish uchun mo'ljallangan uskunalar, mexanizmlar, materiallar, butlovchi buyumlar bojxona to'lovlaridan (bojxonada rasmiylashtirish yig'imlari bundan mustasno); ...<sup>33</sup> kabi vazifalar belgilangan.

Yuqorida keltirilgan qaror ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekistonda, xususan Toshkent shahrida online transport xizmatlarini ko'rsatish yo'lga qo'yilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidentining yuqorida aytib o'tilgan qarorida shahar yo'lovchi tashish transporti tizimiga yo'lovchi tashishni boshqarish, jamoat transporti qatnovi jadvali va intervallariga qat'iy rioya etishni ta'minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini, harakatlanadigan tarkibning qatnovini "onlayn" tartibda masofadan turib nazorat

---

<sup>33</sup> <http://uza.uz/uz/documents/aholiga-transport-xizmati-ko-rsatish-hamda-shaharlar-va-qish-11-01-2017>



qiladigan tizimlarni joriy etish belgilab berilgan edi. Shunga muvofiq haydovchilarni aloqa vositalari bilan ta'minlashni hisobga olgan holda jamoat transportining harakatini masofadan nazorat qilish (GPS) tizimi joriy etildi. Bugungi kunda jamiyat tizimidagi korxonalar tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan 128 avtobus yo'nalishida tasarruf etilayotgan 1 287ta avtobusga GPS-trekerlari va GPS/GSM-antennalari o'rnatilgan. GPS tizimida ishlayotgan avtobuslarni "onlayn" nazorat qilib borish markaziy nozimlik xizmati tomonidan amalga oshirilmoqda.<sup>34</sup> Ma'lumki, Birinchi Prezidentimizning 2013-yil 9-oktyabrdagi va Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 13-noyabrdagi qarorlariga muvofiq, "Toshshahartransxizmat" AJ tarkibidagi avtobus saroylarida tasarruf etilayotgan barcha avtobuslarga masofadan onlayn tarzda nazorat qilish tizimi – GPS trekerlari o'rnatilgan. Mazkur tizimda haydovchining ishi kun davomida bir tomonlama muloqot A21 vositasi yordamida nazorat qilinardi va albatta, kelgusida GPS trekerining boshqa imkoniyatlaridan ham to'laligicha foydalanish rejalashtirilgan. Noma'lum sabablar bilan o'tgan yili ushbu vosita tizimdan uzib qo'yilgan. A21 aloqa vositasi yo'nalishda haydovchi yo'l qo'yayotgan xato va kamchiliklarni shu vaqtning o'zida bartaraf etishga xizmat qilishi kundek ravshan. Aloqa vositasining afzalligi shundaki, GPS tizimi aniqlagan kamchilik, masalan, haydovchi oraliq bekatda belgilangan me'yordan ortiq turib qolsa yoki tezlikni oshirsa darhol operator uni ogohlantiradi va xato bartaraf etiladi. Hozirda barcha avtobuslarga A21 bir tomonlama aloqa vositasi o'rnatib bo'lingan va bu borada "Toshshahartransxizmat" AJ tomonidan tegishli buyruq ham qabul qilingan.<sup>35</sup>

Bundan tashqari, mamlakatimiz mustaqilligining 25 yilligini nishonlash arafasida Toshkent shahri yo'lovchilariga qo'shimcha qulayliklar yaratish uchun hamda jamoat transportida GPS-tizimining ishlashini takomillashtirish maqsadida mobil moslamalardan foydalanuvchilar uchun "TASHBUS" mobil ilovasi yo'lga qo'yilgan bo'lib, uyali aloqa telefoni vositasidan foydalanuvchilar uning

<sup>34</sup> [http://tshtx.uz/index.php?option=com\\_k2&view=item&id=409:toshkent-shahar-yo-lovchi-tashish-transporti-takomil-va-taraqqiyot-sari&highlight=YToxOntpOjA7czo4OiJlbGVrdHJvbiI7fQ==&Itemid=1059&lang=uz](http://tshtx.uz/index.php?option=com_k2&view=item&id=409:toshkent-shahar-yo-lovchi-tashish-transporti-takomil-va-taraqqiyot-sari&highlight=YToxOntpOjA7czo4OiJlbGVrdHJvbiI7fQ==&Itemid=1059&lang=uz)

<sup>35</sup> [http://tshtx.uz/index.php?option=com\\_k2&view=item&id=619:yangicha-yondashuv-va-shaffoflik&highlight=YToxOntpOjA7czo4OiJlbGVrdHJvbiI7fQ==&Itemid=1059&lang=uz](http://tshtx.uz/index.php?option=com_k2&view=item&id=619:yangicha-yondashuv-va-shaffoflik&highlight=YToxOntpOjA7czo4OiJlbGVrdHJvbiI7fQ==&Itemid=1059&lang=uz)

yordamida avtobusning bekatga etib kelish vaqtini bilib olishi va Toshkentning elektron xaritasida avtobuslarning "onlayn" rejimida harakatlanishini kuzatishlari mumkin. Shuningdek, foydalanuvchilar mobil ilova yordamida tanlangan yoʻnalishdagi avtobuslarning harakatini kuzatish, ularning kutilayotgan bekatga kelish vaqti, ushbu obyektidan qaysi yoʻnalishlar oʻtishi, eng yaqindagi avtobus masofasini (distansiya) bilib olishi va boshqa shu kabi ma'lumotlarni olish imkoni bor.<sup>36</sup>

Taʼkidlash joizki, endilikda “Toshshahartransxizmat” AJ tomonidan barcha muloqotlar ijtimoiy tarmoqda, xususan, Telegram kanalida ochilgan guruh orqali amalga oshiriladi. Telegram vositasida sohada duch kelinayotgan kamchiliklarni aniqlab, belgilangan topshiriqlar ijrosini shaffoflik bilan kuzatib, nazorat qilib boriladi. Kerak boʻlsa, Telegramda yuvilgan, tozalangan avtobus surati bilan qoʻyilib, son va sifatga eʼtibor qaratiladi. Shu bilan birga yoʻlovchilardan tushayotgan murojaatlar yechimini ham shu guruhda topishga intilishmoqda.

“Toshshahartransxizmat” AJ 2018-yil 1-iyul kundan boshlab, elektron koʻrinishdagi oylik yoʻl kartalarini quyidagi turlarini muomalaga chiqardi (1.3.7–rasmga qarang):

- AV, AVM - barcha turdagi aholi uchun;
- N, NM - nafaqahoʻr va nogironlar uchun;
- T, TM – oliy oʻquv yurtlari talabalari uchun;
- Oʻ, OʻM - kolledj, litsey va umumta'lim maktab oʻquvchilari uchun.<sup>37</sup>

Barcha turdagi kartalar 2018-yil 1-iyuldan 31-iyulga qadar cheklanmagan miqdorda avtobus yoʻnalishlarida yoʻlkira oʻrniga qabul qilinishi (bitta elektron karta bir kishi uchun) sinov maqsadida koʻzda tutilgan edi.

---

<sup>36</sup> [http://tshtx.uz/index.php?option=com\\_k2&view=item&id=409:toshkent-shahar-yo-lovchi-tashish-transporti-takomil-va-taraqqiyot-sari&highlight=YToxOntpOjA7czo4OiJlbGVrdHJvbiI7fQ==&Itemid=1059&lang=uz](http://tshtx.uz/index.php?option=com_k2&view=item&id=409:toshkent-shahar-yo-lovchi-tashish-transporti-takomil-va-taraqqiyot-sari&highlight=YToxOntpOjA7czo4OiJlbGVrdHJvbiI7fQ==&Itemid=1059&lang=uz)

<sup>37</sup> [http://tshtx.uz/index.php?option=com\\_k2&view=item&id=605:hurmatli-hamshaharlar&highlight=YToxOntpOjA7czo4OiJlbGVrdHJvbiI7fQ==&Itemid=1059&lang=uz](http://tshtx.uz/index.php?option=com_k2&view=item&id=605:hurmatli-hamshaharlar&highlight=YToxOntpOjA7czo4OiJlbGVrdHJvbiI7fQ==&Itemid=1059&lang=uz)

Ushbu elektron oylik yo‘l chiptalarini ishga tushirishdan asosiy maqsad, soxta oylik yo‘l chiptalaridan foydalanish holatlariga chek qo‘yish, hamda yo‘nalishlarni yo‘lovchilarga qulay tarzda rejalashtirish uchun kerakli ma'lumot yig‘ish hisoblanadi. Mazkur amaliyot yo‘nalishlarni maqbullashga va yo‘lovchilarga qulay yo‘nalishlarni taqdim etishga bizga kerakli ma'lumotlarni olishga yordam beradi.

Poytaxt jamoat transportida elektron to‘lov tizimini joriy etish borasida boshlangan ishlarni izchil davom ettirish zarur. Bugungi kunda ushbu elektron chiptalardan foydalanish to‘xtab qolgan. Avtobuslardagi turnikentlar to‘liq ta’minlanmagan va mavjudlari ham to‘liq ish faoliyatida emas.

O‘zbekistonda transport xizmatlarini takomillashtirish maqsadida rivojlangan mamlakatlarning bu boradagi tajribalarini o‘rganib chiqish, shuningdek, ularning O‘zbekiston sharoitiga mos jihatlarini o‘rgangan holda tavsiyalar ishlab chiqish, ularni joriy qilish maqsadga muvofiq deb o‘ylayman. Shu maqsadda Lyublin, Vena hamda Nur-Sulton shaharlaridagi transport xizmatlarini ko‘rsatish holatini quyida tahlil qilib chiqdim.

Polshaning Lyublin shahrida jamoat transportlari, ayniqsa avtobusda tashish xizmati juda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Avtobuslar yo‘lovchilar uchun zarur barcha qulayliklarga ega. Avtobus pollari juda past, eshiklari tashqari va ichkaridan maxsus tugmalar yordamida yo‘lovchilar tomonidan ochiladi (Qariyalar, nogironlar, yosh bolalilar va tugmani bosish imkoniga ega bo‘lmagan kishilar uchungina haydovchi tomonidan ochib berilishi mumkin), shuningdek, avtobuslar ichida bepul WI-FI tarmoqlari ham mavjud (3.2.1-rasm).

Shuningdek avtobus yo‘nalish raqami va harakatlanish grafigi haqida ma'lumot beruvchi elektron tablo barcha yo‘lovchilar uchun qulay joyda: eshik oldida va avtobus shiftida osib qo‘yilgan. Shahar avtobuslarining ayrimlarida o‘rindiqlarda shaharning turistik brendi tushirilganligini ko‘rish mumkin (3.2.2-rasm).

Asosiysi ushbu shaharda online transport xizmatlaridan foydalanish juda qulay. Xususan, “Jakdojade” (Qanday yetib borish) mobil ilovasidan foydalanib, ilovada kerakli marshrut belgilagandan so‘ng, qaysi avtobus yo‘nalishlari bilan yetib boorish mumkinligi, shuningdek, ushbu avtobuslarning harakatlanish jadvali va bekatga yetib kelish vaqti haqida ma’lumot olish mumkin (3.2.3-rasm).

3.2.1-rasm

### Lyublin jamoat transportida WiFi xizmatlari



Manba: <https://olyapka.ru/2015/05/obshhestvennyjj-transport-v-lyubline-polsha/>


3.2.2-rasm

### Lyublin jamoat transportida shahar turistik logotipi




Manba: <https://olyapka.ru/2015/05/obshhestvennyjj-transport-v-lyubline-polsha/>

## “Jakdojade” mobil ilovasi



Manba: <https://olyapka.ru/2015/05/obshhestvennyj-transport-v-lyubline-polsha/>

## “Skycash” mobil ilovasi



Manba: <https://olyapka.ru/2015/05/obshhestvennyj-transport-v-lyubline-polsha/>

Bekatlardagi onlayn tablolarda har bir yoʻnalishdagi avtobuslarning yetib kelish vaqti aniq daqiqalar bilan koʻrsatib turadi. Avtobuslardagi GPS va tablo oʻzaro bir-biriga bogʻliqligi aniq vaqt belgilashni taʼminlaydi.

Chiptalarni kiosklardan, haydovchidan, chipta sotuvchi avtomatlardan xarid qilish mumkin. Shuningdek, online chiptalarni xarid qilishga moslashtirilgan bir necha turdagi mobil ilovalar ham mavjud. Ular orqali avtobus chiptalarini xarid qilish uchun avtobuslarning 4 raqamdan iborat maxsus kodini kiritish kifoya. Bunda toʻlov bank kartalari orqali amalga oshiriladi (3.2.4-rasm).

Lyublinda avtobus chiptalari vaqt bilan amal qiladi. Eng qisqa vaqtli chiptalar 30 daqiqani tashkil etadi. Ushbu chipta bilan 30 daqiqa mobaynida boshqa yoʻnalishdagi avtobuslarga chiqish ham mumkin.

Vena shahrida transport xizmatlarini koʻrsatilishi deyarli Lyublindagidek. Asosiy farqli jihati Venada transport chiptalari vaqt boʻyicha emas hududlar boʻyicha amal qiladi. Xuddi polshadagidek vaqt boʻyicha amal qiluvchi chiptalar hududlar boʻyicha alohida ishlatiladi. Bir hududga tegishli chiptani boshqa hududda ishlatib boʻlmaydi. Chiptalar faqatgina avtobuslarda emas, hududdagi metro, tramvay va elektropoyezdlarda ham ishlatilishi mumkin.

Vena transport chiptalarining yan bir farqli jihati eng arzon chipta bir martalik hisoblanadi, bunda yoʻlovchi bir hudud boʻylab boshqa yoʻnalishlardagi avtobuslarga oʻtib ketishi ham mumkin (3.2.5-rasm)

3.2.5-rasm

■ **1 Fahrt WIEN** \_\_\_\_\_ **€ 2,40 / 2,60**




V T A O M S

Manba: <https://venagid.ru/4258-ceny-na-bilety-v-vene>

Venada transport chiptalarini mobil ilovalar orqali yoki bekatlardagi chipta sotish avtomatlaridan olish mumkin. Mobil ilova orqali chiptalarni sotib olish xuddi Lyublindagi kabi amalga oshiriladi. “Wiener Linien” mobil ilovasini yuklab olib, u orqali chiptani sotib olish mumkin. Bunda to‘lov bank kartalari orqali amalga oshiriladi. Ustunlik jihati shundan iboratki, chiptani xarid qilgandan so‘ng telefon ekranida QR-kod chiqadi. Yo‘lovchi shu QR-kodni turnikentdan o‘tkazib ketishi kifoya (3.2.6-rasm).

3.2.6-rasm

### Venada mobil ilova orqali transport chiptalarini xarid qilish



Manba: <https://venagid.ru/4258-ceny-na-bilety-v-vene>

Qozog‘istonning Nur-Sulton shahrida onlayn transport xizmatlarini ko‘rsatishning o‘ziga xos qulayliklari va kamchiliklari mavjud. Belgilangan marshrut bo‘yicha qaysi avtobus yo‘nalishlari harakatlanishi, ulardagi chiptalar narxi va harakatlanish grafigi haqida transport tashkiloti rasmiy web-saytida ko‘rish mumkin bo‘lsa, elektron chiptalarni va kartalarni trancard.kz sayti orqali olish mumkin. Nur-Sulton shahrida yo‘l chiptalari vaqt va hudud bo‘yicha amal qiladi. Shaharning markazida harakatlanuvchi avtobuslar uchun vaqt bo‘yicha amal qilsa shahar tashqarisidagi avtobuslar uchun chiptalar hududlar bo‘yicha amal qiladi.

### **3.3. O‘zbekistonda transport xizmatlarini ko‘rsatishni tizimli takomillashtirish**

Hozirgi kunda turizmning jahon xo‘jaligidagi hissasi yil sayin oshib, u muhim makroiqtisodiy tarmoqlar qatorida rivojlanmoqda. Mazkur soha dunyodagi ko‘pgina davlatlarning daromad manbai sifatida ularning milliy iqtisodiyotida asosiy o‘rin tutmoqda. Shu jihatdan O‘zbekistonda mazkur tarmoqqa e‘tiborni kuchaytirish muhim masalalardan biri.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tub islohotlar olib borilmoqda. Jumlada, turizmni rivojlantirishga ham Davlat tomonidan katta ahmiyat berilmoqda. Bunga misol qilib 2016-yil 2-dekabrda Prezident Farmoni, 2017-yil 19-maydagi Prezident Qarorlari va boshqa qator turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan qaror va farmonlarni aytish mumkin.

Turistlarni bir joydan boshqa joyga olib boruvchilar ish bosqichlariga, ulaming turistik mahsulot tarkibidagi o‘miga muvofiq ravishda asosiy va yordamchi tashuvchilarga bo‘linadi.

Sayyohlarni tashishda asosiy vositalardan biri bo‘lgan transport vositalari muhim rol o‘ynaydi. Chunki transport tizimi qanchalik yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa sayyohlarning dam olishlari va sayohat qilishlari shunchalik qulay bo‘ladi. Hozirda Respublikamiz turizmida ham zamonaviy transportlardan keng foydalanilmoqda. O‘zbekistondagi turistik korxonalarda qulay va komfort avtodor va mikroavtodorlardan keng foydalanilmoqda. Bir davlatdan ikkinchi davlatga borishlari uchun charter reyslar ochilgan. Faqat viloyatlardagi turistik korxonalarda ham turistik vositalar yaxshi yo‘lga qo‘yilsa turistlarning ushbu shaharlarni ziyorat qilishlariga keng imkoniyat yaratiladi.

Turizm sohasini tashkil etuvchi asosiy infratuzilmalar: joylashtirish vositalari, umumiy ovqatlanish xizmati va transport xizmati hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, turizm sohasini rivojlantirishda transport xizmatlari asosiy o‘rin egallaydi. Transport xizmatlarining rivojlanishi va takomillashib borishi sayyohlar uchun



qulayliklar yaratib, ularning sayohatlarini yengillashtiradi. Bu orqali turizmning mamlakatda taraqqiy etishiga erishish mumkin.

Bir manzildan boshqa manzilga yetib borish uchun har doim transport xizmatiga ehtiyoj sezamiz. Shundan kelib chiqqan holda transport xizmatlari bugungi kunda hayotimizdagi eng muhim xizmatlardan biri hisoblanadi. Transport xizmatlaridan har kun har birimiz foydalanamiz. Shunday ekan, ko'rsatilayotgan xizmatlarga bo'lgan talabning kun sayin oshib borayotganligini inobatga olgan holda qulayliklarni ham takomillashtirib borish maqsadga muvofiq.

2018-yil 7-fevralda O'zbekiston respublikasi prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi prezident qarori imzolandi. Unga ko'ra, «O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!» ichki turizmni rivojlantirish Dasturini amalga oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Ushbu qarorning ijrosini ta'minlashda ham transport xizmatlari ham katta rol o'ynaydi.

Deyarli barchamizda boshqa viloyat yoki shaharlarga tashrif buyurganimizda "Manzilga qanday yetib borsam?", "Qaysi avtobus u yerga boradi?", "Qaysi taksi firmalarining xizmatlari arzonroq?", "Qancha vaqtda yetib boraman?", "Chiptani qayerdan olish mumkin?", "Taksi xizmati uchun qanday qilib onlayn to'lovni amalga oshirsam bo'ladi?" kabi savollarga duch kelamiz. Shaxsan men bu kabi savollarga juda tez –tez duch kelaman. Ayniqsa boshqa viloyatga yoki shaharlarga (menga tanish bo'lmagan joylarga) tashrif buyurganimda manzilgacha qaysi transport vositasida yetib borishim mumkinligini bilmay qolaman. Bunday paytda menga boshqa yo'lovchilar yordam berishi mumkin xolos. Yoki google va yandex xaritalari. (ushbu xaritalarda afsuski to'liq ma'lumotlar mavjud emas). Shunday paytlarda yuzaga kelgan savollarga javob bera oladigan va muammolarni tezda hal eta oladigan dastur bo'lsaydi deb qolamiz. Bunday vaqtda hammamiz uchun

taniqli bo'lgan google va yandex xaritalaridagina (ushbu xaritalarda afsuski to'liq ma'lumotlar mavjud emas) foydalanishimiz mumkin.

Avstriya, Chexiya, Portugaliya kabi rivojlangan mamlakatlarda yo'lovchilar chiptalarni mobil ilovalar orqali osongina xarid qilishlari mumkin. Bunday mobil ilovalar barcha yoshlar va boshqa yo'lovchilar uchun kattagina qulaylik yaratadi.

O'zbekistonda hozirda onlayn chiptalar poyezd va samalyotlarda qatnash uchun mavjud. Shuningdek, Toshkent shahrida jamoat transportidan foydalanish uchun electron chiptalarni xarid qilish imkoniyati mavjud. Ammo jamoat transportidan foydalanish uchun bir va ko'p martalalik onlayn yo'l chiptalari sotib olish imkoni mavjud emas. Biz bilamizki, yo'lovchilarning asosiy qismi o'z mablag'lari ularning plastik kartochkalarida saqlashni afzal ko'rishadi va bu ularning onlayn chiptalarni xarid qilishlariga ehtiyoji borligidan dalolat beradi. Shundan kelib chiqqan holda onlayn chiptalarga bo'lgan talab kun sayin oshib borayotganligini bilish mumkin. Mavjud chiptaxonalardan esa har doim ham plastik kartochkalar orqali yo'l chiptalari xarid qilish imkoniyati mavjud bo'lmaydi.

Viloyatlarda marshrutli transport vositalarining harakatlanishi tartibiga doimiy amal qilinmaydi va ular ustidan nazorat kuchli emas. Bu esa yo'lovchilarning ortiqcha vaqtlarining sarf bo'lishiga olib keladi.

Ushbu muammolarni o'rgangan holda, "Easy tickets" loyihasini amalga oshirishni taklif etaman. Ushbu loyiha aynan yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, sifatli transport xizmatlarini ko'rsatishni ta'minlash bilan birgalikda ichki turizmni rivojlantirish orqali davlatimiz iqtisodiyotiga sezilarli darajada naf keltirishiga qaratilgan. Ushbu loyihaning asosiy g'oyasi quyidagilardan iborat:

Foydalanuvchilarning yagona dastur orqali manzillarga yetib borish vaqti, masofasi, transport vositalari yo'nalishlari va ularning harakatlanish grafigi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish;

Transport vositalarini tanlash va ularga onlayn chiptalarni onlayn xarid qilish;

Transport tashkilotlari yoʻnalishdagi transport tashkilotlari ustidan nazorat qila olishi (GPS orqali grafik asosida harakatlanishni nazorat qilish);

Mijozlar shikoyat va takliflari bilan ishlash imkoniyati;

Aniq statistic maʼlumotlarni yuritish.

“Easy tickets” ishlash holatiga quyidagicha misol keltiraman:

Buxoro viloyatiga tashrif buyurdingiz. Kogon shahri (temir yoʻl vokzali joylashgan joy)dan Buxoro Davlat Universitetiga yetib bormoqchisiz. Dastur orqali onlayn xaritadan izlash qismida Buxoro Davlat Universitetini kiritib marshrutni belgilanadi. Belgilangan marshrut boʻyicha marshrutli transport vositalari raqamlari (378, 438, 268, 6, 72, 11, 86) va taksi firmalari roʻyxati, hamda ular orqali manzilga yetib borish vaqtlari, shuningdek, bekatdan joʻnash vaqtlari paydo boʻladi. Roʻyxatdan marshrutli transport vositalaridan birining raqami tanlanadi va ushbu yoʻnalish uchun onlayn chipta xarid qilish tanlangandan soʻng, foydalanuvchiga plastik kartadan onlayn pul oʻtkazilgach (1% ustama) QR-kod yuklamasi uzatiladi. QR-kod yuklab olingach marshrutli transportda uni skanerdan oʻtkazish orqali yoʻl kira toʻlovi amalga oshiriladi.

Loyihaning asosiy maqsadi yoʻlovchilarga belgilangan manzilga tez va oson, asosiysi boshqalarning yordamisiz yetib borishini taʼminlash.

Loyihani amalga oshirishda quyidagi vazifalarni belgilab olish lozim:

- Ishchi guruhni yaratish;
- Loyiha dizayni, logoripini yaratish;
- Oʻzbekistonning navigatorli onlayn xaritasini ishlab chiqish;
- Xaritada shaharlarda marshrutli transport vositalarining harakatlanish yoʻnalishlari boʻyicha maʼlumotlarni kiritish;
- QR-kod yoki Shtrix-kod beruvchi dastur yaratish va uni onlayn xaritagga biriktirish;
- Tijorat banklari bilan hamkorlik oʻrnatish;
- Transport tashkilotlari bilan hamkorlik oʻrnatish;
- Dasturni reklama qilish;

Quyidagi jadvalda loyihani amalga oshirishning barcha bosqichlari yoritilgan

3.3.1-jadval

“Easy tickets” loyihasini amalga oshirish bosqichlari va xarajatlari

| <b>№</b>     | <b>Loyihani amalga oshirish bosqichlari</b>  | <b>Bajarilish muddati</b> | <b>Ushbu bosqich uchun xarajatlar qiymati</b> | <b>Grant mablag‘lari</b> | <b>Xususiy sektor mablag‘lari</b> | <b>Shaxsiy mablag‘lar</b> |
|--------------|--|---------------------------|---|--------------------------|-----------------------------------|---------------------------|
| 1            | Ishchi guruhni yaratish  | 1 oy                      | -   | -                        | -                                 | -                         |
| 2            | Loyiha dizayni, logotipini yaratish  | 1 oy                      | 200\$   | 200\$                    | -                                 | -                         |
| 3            | O‘zbekistonning navigatorli onlayn xaritasini ishlab chiqish   | 1 oy                      | 300\$   | 200\$                    | 100\$                             | -                         |
| 4            | Xaritada shaharlarda marshrutli transport vositalarining harakatlanish yo‘nalishlari bo‘yicha ma’lumotlarni kiritish | 2 oy                      | 300\$   | 200\$                    | 100\$                             | -                         |
| 5            | QR-kod beruvchi dastur yaratish va uni onlayn xaritaga biriktirish   | 1 oy                      | 50\$  | -                        | -                                 | 50\$                      |
| 6            | Tijorat banklari bilan hamkorlik o‘rnatish   | 12 oy                     | 100\$   | -                        | -                                 | 100\$                     |
| 7            | Transport tashkilotlari bilan hamkorlik o‘rnatish  | 2 oy                      | 100\$   | -                        | -                                 | 100\$                     |
| 8            | Dasturni reklama qilish  | 12 oy                     | 100\$   | 100\$                    | -                                 | -                         |
| <b>Jami:</b> |  | 12 oy                     | 1150\$  | 700\$                    | 200\$                             | 250\$                     |

Manba: Muallif ishlanmasi

Loyihani amalga oshirish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- Yo‘lovchilarning vaqtini tejash;

- Onalyn chiptalar xarid qilish imkoniyati;
- Transport xizmatlari sifatining oshishi;
- Transport xizmatlari haqida qo‘shimcha ma’lumotlarga ega bo‘lish;
- Avtobus nazoratchilariga ajratiladigan oylik maoshning tejalishi;
- Transport tashkilotlarining transport vositalari ustidan nazoratini kuchaytiradi va osonlashtiradi.

Ushbu loyiha turizmning mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmog‘i sifatida taraqqiy etishida dolzarb hisoblanib, O‘zbekistonda transport xizmatlarini takomillashtirish orqali turizmni rivojlantirishga bag‘ishlangan va xalqaro transport tashkilotlari, shuningdek, jamoatchilik transporti tashkilotlari bo‘lsa, uning predmeti ichki va xalqaro turizmni rivojlantirishda transport xizmatlarini takomillashtirishga qaratilgan jarayonlar bo‘lib hisoblanadi.

Loyihani amalga oshirish davomida turizmga transport xizmatlarining tutgan o‘rni, transport xizmatlarining rivojlanish holati hamda O‘zbekistonda transport xizmatlarini ko‘rsatishda geografik axborot tizimlarini qo‘llash imkoniyatlari va ularni takomillashtirish yo‘llari ishlab chiqiladi. Shu bilan birgalikda, transport xizmatlarini ko‘rsatishda GATlardan foydalanuvchi mobil ilovalar, elektron dasturlar ishlab chiqilishi ko‘zda tutilgan.

### III BOB BO‘YICHA XULOSA

1. Buxoro viloyatida transport xizmatlarini takomillashtirish, yil sayin oshib borayotgan sayyohlar oqimi uchun qulay transport xizmatlarini tashkil etish maqsadida yangi “Buxoro-1 – Labi Hovuz” va “Buxoro – 7 Pir” transport marshrutlarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Ushbu marshrutlarning amaliyotga joriy etilishi xususan mustaqil sayyohlar hamda ichki turizm ishtirokchilari uchun qulay sharoit yaratib berish bilan birgalikda ichki turizmning rivojlanishiga turtki bo‘la oladi.

2. Lyublin, Vena, Nur-Sulton shaharlarida ko‘rsatiladigan online transport xizmatlari qiyosiy tahlili olib borildi va tahlilga ko‘ra O‘zbekistonning turistik hududlarida, keyinchalik esa butun mamlakatda online transport xizmatlari ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqligi aniqlandi.

3. O‘zbekistonda transport xizmatlarini tizimli boshqarishda online GATlarga asoslangan transport xizmatlari ko‘rsatilishini tashkil etish xizmat ko‘rsatish sifati va xavfsizligi ustidan kuchli nazorat o‘rnatish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni oldini olish, barcha uchun birdek qulay xizmatlarni tashkil etishi mumkin. Shu maqsadda O‘zbekistonda rivojlanagan mamlakatlar tajribasini qo‘llagan holda “Easy tickets” online transport xizmatlari loyihasini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq.

## XULOSA

Turizmni tashkil etishda muhim bo'lgan infratuzilmalardan biri bu tashish xizmati hisoblanadi. Shuning uchun ham turizmni rivojlantirishda transport xizmatlari muhim o'rin egallaydi. Chunki transport xizmatlari qanchalaik yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa sayyohlarning o'z sayohatini yuqori darajada tashkil etilishi va ularning ehtiyojlari qondirilish darajasi yuqori bo'lishi ta'minlanadi. Bugungi kunda respublikamizda turistlarga xizmat ko'rsatishda zamonaviy transportlardan keng foydalanilmoqda. O'zbekistondagi turistik korxonalarda qulay va komfort avtodor va mikroavtodorlardan keng foydalanilmoqda. Bir davlatdan ikkinchi davlatga borishlari uchun charter reyslar tashkil etilmoqda. Faqat ayrim viloyatlardagi turistik korxonalarda ham turistlarga xizmati ko'rsatuvchi transport xizmatlari holati yaxshilansa, ushbu hududlarda ham turizmni rivojlantirishning keng imkoniyatlari yaratilgan bo'ladi.

O'zbekistonda transport tashkilotlarining ayrimlarigina GAT tizimidan foydalangan holda xizmat ko'rsatadi. Ularning asosiy qatlami Toshkent shahrida bo'lib, asosiy qismi taksi xizmatini ko'rsatuvchi korxonalar zimmasiga tog'ri keladi. Bunga misol qilib «My Taxi», «Easy taxi» va «Yandex taxi» transport tashkilotlarini aytish mumkin. Xizmat ko'rsatish talablariga javob bera oladigan shunday taksi xizmatlari sifatida «My taxi», «Easy taksi» va «YOKO Taxi» xizmatlarining faoliyati tahlili olib borildi.

Eng asosiysi, MDH davlatlarida katta muvafaqqiyat bilan o'z faoliyatini kengaytirib borayotgan «Яндекс.Такси» transport kompaniyasi O'zbekiston bozoriga kirib kelib Toshkent va Samarqand shaharlarda faoliyat yurityapti. Hozirda ushbu kompaniya O'zbekistonning yana 3 ta shahrida: Andijon, Buxoro va Namangan shaharlarida o'z faoliyatini boshlash arafasida. Kompaniya GAT orqali onlayn tizimda transport xizmatlarini ko'rsatadi.

Magistrlik dissertatsiyasining ikkinchi bobida GATlarga asoslangan transport korxonalarini faoliyati qiyosiy tahlili olib borildi. Shu bilan birgalikda ushbu bobda ularning afzallik va kamchiliklari o'rganib chiqildi.

O‘zbekistonda mustaqil sayyohlar oqimini oshirish maqsadida joriy etilgan 52 davlat uchun vizasiz rejimni joriy etilishi turistik mamlakatda turizm infratuzilmasini takomillashtirish va rivojlantirishni jadallashtirishni talab etmoqda. Shu bois hududlarda transport infratuzilmasini ham birinchi navbatda takomillashtirish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Magistrlik dissertatsiyasining uchinchi bobida turizmni rivojlantirishda Buxoro viloyatida yangi transport marshrutlarini joriy qilishning ahamiyati, turistik hududlarda onlayn transport xizmatlarini ko‘rsatishni rivojlantirish va O‘zbekistonda transport xizmatlarini ko‘rsatishni tizimli takomillashtirish masalalari yoritildi.

Magistrlik dissertatsiyasini yozish jarayonida olib borilgan izlanishlarimiz natijasida biz quyidagi xulosalarga keldik:

1. O‘zbekistonda transport xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha davlat tomonidan katta e‘tibor qaratilmoqda. Buning isboti sifatida qabul qilingan qator qaror va farmonlarni aytish mumkin. Ushbu normative hujjatlarda belgilangan vazifalarni belgilangan muddatda amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida xususiy sektorga alohida e‘tibor qaratish lozim.
2. Ko‘rsatilayotgan transport xizmatlari xalqaro standartlarga to‘la mos emas. Xalqaro transport xizmatlarini ko‘rsatish standartlarini o‘rganib chiqqan holda mamlakatdagi transport korxonalarining xizmat ko‘rsatish imkoniyatlaridan kelib chiqib milliy standartni ishlab chiqish. Shuningdek, shu standartlarga mos transport xizmatlarni joriy etish uchun transport xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalar va ularning xodimlariga xalqaro standartlarni o‘rgatish, master-klasslar, seminar-treninglarni tashkil etish va ularda ishtirok etishini ta‘minlash.
3. O‘zbekiston turistik hududlarida, keyinchalik butun mamlakatda mavjud imkoniyatlarni inobatga olgan holda rivojlangan mamlakatlar online transport xizmatlarini ko‘rsatish tajribasini qo‘llash. Hozirda Toshkent shahrida jamoat transportlarida elektron chiptalarni joriy etish tajriba sinov sifatida tashkil etilgan bo‘lib, to‘liq transport yo‘nalishlarini qamrab olmagan. Bundan tashqari elektron chiptalardan to‘liq foydalanish uchun



transport vositalarida yetarli sharoitlar hozirlanmagan. Shuningdek, aholining aksariyati elektron chiptalardan foydalanish afzalliklari haqida ma'lumotga emas. Shu sababli elektron chiptalardan foydalanish qulayliklari va afzalliklarini ommaga keng targ'ib qilish maqsadga muvofiq.

4. Sifatli va xavfsiz transport xizmatlarini ko'rsatishni ta'minlash maqsadida O'zbekistondagi turistik hududlardagi taksi xizmatini ko'rsatuvchi ayrim transport korxonalari bugungi kunda GATlarga asoslangan dasturlardan foydalanmoqda. Ushbu dasturlarda ma'lumotlar aniq kiritilmaganligi sababli mijozlar va haydovchilar uchun bir qancha katta va kichik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli transport korxonalarida GATlardan foydalanishda onlayn va oflayn xaritalarga ma'lumotlarni aniq va to'liq kiritilishini ta'minlash zarur. Transport xizmatlarini ko'rsatishda GATlardan foydalanish sayyohlarga katta qulayliklar yaratib beradi. Shunday ekan transport xizmatlarini ko'rsatishda barcha hududlardagi korxonalarda GATlardan foydalanishni joriy etish lozim.
5. Buxoro viloyatida mustaqil sayyohlarning erkin harakatlana olishi uchun yetarli sharoitlar mavjud emas. Shundan kelib chiqqan holda aeroport, vokzallardan turistik markazlar va obyektlargacha bo'lgan yangi transport marshrutlarini joriy etish muhim hisoblanadi. Jumladan, ilgari mavjud bo'lgan "Buxoro-1 – Labi Hovuz" transport marshrutini qayta tiklash maqsadga muvofiq. Ushbu marshrut Buxoro Temir yo'l vokzalidan Buxoro eski shahar qismigacha qulay yetib borish imkonini yaratadi. Shuningdek, ichki turizmni rivojlantirish va mahalliy sayyohlarga ziyorat qilish uchun qulay sharoit yaratish maqsadida "Buxoro – 7 Pir" aylanma transport marshrutini joriy qilish rejalashtirildi.
6. Hududlarda onlayn transport xizmatlarini ko'rsatish uchun infotuzilmalar yetarli emas. Transport xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda onlayn xizmatlarni joriy etish xizmat ko'rsatishni optimallashtiradi. Shu sababli aholi gavjum hududlarda online elektron chiptalarni joriy qilish va ommaga keng targ'ib qilish muhim. Ayniqsa aeroport, vokzal va boshqa bekatlarda

transport xizmatlari haqida ma'lumot beruvchi elektron tablolarini joriy qilish lozim.

7. Mamlakatda tizimli transport xizmatlarini ko'rsatishni tashkil etish yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni bartaraf etishi hamda sifatli xizmat ko'rsatishni nazorat qilishi mumkin. "Easy tickets" loyihasini hayotga tadbiq etish orqali bunga erishish mumkin. Shu bilan birgalikda ushbu loyiha orqali ortiqcha sarf-xarajatlarning sarflanishi, aholi va sayyohlar uchun vaqtning tejalishi, chiptalarni nashr etish uchun sarflanadigan xarajatlarning tejalishi va atrof-muhit tozaligini oshirishga erishish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### I. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. “Turizm to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 1999 yil 20 avgust, 830-I-son. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-y., 9-son, 227-modda; O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2006-y., 14-son, 113-modda; Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 49-son, 558-modda.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

4. “O‘zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 49-son, 559-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 06.01.2019-y., 06/18/5611/2430-son.

6. Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.12.2018. <https://www.xabar.uz/siyosat/prezident-shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlisga-murojaatnomasi> 28.12.2018.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22.12.2017. <http://www.press-service.uz/uz/lists/view/1371> “Turizm to‘g‘risida”

8. 2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholiga transport xizmati ko‘rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori. 2017 10-yanvar.

10. “Avtomobil transportini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-martdagi PQ-3589-son qarori

## **II. Darslik, o‘quv qo‘llanma va monografiyalar:**

11. Abduvohidov A., Qutlimurotov F.. - Turizm iqtisodi. - O‘quv qo‘llanma. - TDIU, 2007 y. - 125 b.

12. Abduvohidov A., Qutlimurotov F. – Economy of tourism. - Textbook. - TSIU, 2007 y. - 125 p.

13. Aliyeva M.T. Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti. Darslik. – T.: TDIU, 2007.339b.

14. Aliyeva M.T., Xo‘jayev O‘.X., Norchayev A.N. Turizm rivojlanishini prognozlash. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2006. 214b.

15. Boboyev N. “Turizm sohasida logistika”. Samarqand.: 2011. 76

16. Haksever C., Render B., “Service Management”. Urganch davlat universiteti. O‘quv qo‘llanma, 2016.

17. Nurmatov N.J., “Bozor infratuzilmasi iqtisodiyoti”. Ma’ruzalar matni. Termiz: 2013.

18. Mirzayeva M.A., Aliyeva M.T.. “Turizm asoslari”. O‘quv qo‘llanma. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011. – 288b.

19. Mamatqulov X. M. Xizmat ko‘rsatish sohasiga oid atamalar va iboralar izohli lug‘ati. — T.: Iqtisod-moliya. 2010. — 268–269 b.

20. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Ibodullayev N.E., Amriddinova R.S.. Turizm asoslari: O‘quv qo‘llanma – S.: SamISI, 2010- 247 b.
21. Xoldarov T., Tulenova X. “Turizm sayyohlik”. Toshkent: 2016.
22. Камилова Ф.К. “Халқаро туризм маркетинги”. Тошкент давлат иқтисодиёт университети, 2007, 129 б.
23. Биржаков М.Б. Введение в туризм. – СПб.: Издательский Торговый дом «Герда», 2009. 444с.
24. Ушаков Д.С. Технология выездного туризма. Учебное пособие. –М.: Финансы и статистика, 2009. 240с.
25. Сенин В.С. Организация международного туризма. – М.: Финансы и статистика, 2009. 400с.
26. Эштаев А.А., Ли Д.М.. Международные туристические стандарты. Ташкентский государственный экономический университет, 2007, 264 стр.

### **III. Ilmiy jurnallardagi maqolalar:**

27. Anindita Ghosh, Kanika Kalra. “Institutional and financial strengthening of intermediate public transport services in Indian cities”.,6th Transport Research Arena April 18-21, 2016., Transportation Research Procedia 14 ( 2016 ) 263 – 272.
28. Farmonov E.A. “Turizmda transport xizmatini tashkil etish xususiyatlari”. “Turizm, ta’lim va iqtisodiyot sohalarida strategic islohotlar dolzarbligi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to‘plami. 2018 yil 20-sentabr. –Buxoro.: 2018-720b. 154-160 bb.
29. Farmonov E.A. “O‘zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘llari (Buxoro turistik mintaqasi misolida)”. Ipak va ziravorlar festivali doirasida o‘tkazilgan xalqaro ilmiy konferensiya maqolalar to‘plami. Buxoro.: 2018.121-125 bb.

30. Jo‘rayev A.T. “Features of organizing free tourism zones in tourism industry”. Ipak va ziravorlar festivali doirasida o‘tkazilgan xalqaro ilmiy konferensiya maqolalar to‘plami. Buxoro.: 2018.238-242 bb.

31. Kaspan Eka Putra, Juwita Magdalena Sitanggung “The effect of public transport services on quality of life in Medan city”, *Procedia - Social and Behavioral Sciences* 234 (2016), 383 – 389, ScienceDirect.

32. Khaled Saeed a, Fumitaka Kurauchi. “Enhancing the service quality of transit systems in rural areas by flexible transport services”., 18th Euro Working Group on Transportation, EWGT 2015, 14-16 July 2015, Delft, The Netherlands. *Transportation Research Procedia* 10 ( 2015 ) 514 – 523.

33. Lapko A. “Urban tourism in Szczecin and its impact on the functioning of the urban transport system”. 1st International Conference Green Cities 2014 – Green Logistics for Greener Cities *Procedia - Social and Behavioral Sciences* 151(2014)207-214

34. Michał Roman, Monika Roman. “Bicycle Transport as an Opportunity to Develop Urban Tourism – Warsaw Example”. *Procedia - Social and Behavioral Sciences* 151 ( 2014 ) 295 – 301 Peer-review under responsibility of the scientific committee of Green Cities 2014 doi: 10.1016/j.sbspro.2014.10.027 1st International Conference Green Cities 2014 – Green Logistics for Greener Cities

35. Thirumalaisamy Ragnathana, Sudheer Kumar Battulab, Jorika Vedikac, V Anithad, T. Tarune, M. Shiva Prasadf, M. Uma Kalyani. “ITTS: Intelligent Transport and Tourism System “2nd International Symposium on Big Data and Cloud Computing (ISBCC’15)., *Procedia Computer Science* 50 ( 2015 ) 191 – 196

36. Sharifova Sh.Sh. “Yoshlar tomonidan yoqtirilgan sayohat usullari”. “Turizm, ta’lim va iqtisodiyot sohalarida strategic islohotlar dolzarbligi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to‘plami. 2018 yil 20-sentabr. –Buxoro.: 2018-720b. 499-502 bb.

37. Кутепова Г.Н. «Организация транспортного обслуживания в туризме», Транспортное дело России, 2011

<https://cyberleninka.ru/article/n/organizatsiya-transportnogo-obslyuzhivaniya-v-turizme>

38. Наврўззода Б.Н., Ибрагимов Н.С. “Туристик худдуларни шакллантирувчи омиллар”. “География фанининг назарий-амалий муаммолари” Республика илмий назарий-амалий конференцияси материаллари. –Бухоро. 2006. 130-133-бб..

39. Навруз-Зода Б.Н. Туризмни ривожлантиришнинг инновацион рақобатбардошлик модели. Бухоро давлат университети илмий ахбороти. Бухоро. - 2018 й. 3-сон, - Б.174-181.

40. Наврўззода З.Б. Туристик дестинация назариясида турли назариясидаги ёндашувларининг қиёсий таҳлили. Иқтисод ва молия.Т.:2013 й.3-сон. 43-49 б.

41. Чупонов С. О. Хоразм viloyatida turizmni rivojlantirishda transport infratuzilmasining roli // Молодой ученый. — 2017. — №24.1. — С. 33-35. — URL <https://moluch.ru/archive/158/44585/> (дата обращения: 10.04.2019).

#### **V. Avtoreferatlar:**

42. Sobirov V.B. “Mehmonxona va turistik xizmatlarini siljitishda onlayn platformalar va ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni va ahamiyati”. SamISI. 2017.

43. Алимова М.Т., Рахмонов Ш.Ш. “Замонавий ахборот технологиялари – туризм соҳасини жадал ривожлантириш воситаси”. 2016

44. Гусева М.В. Формирование эффективного организационно-экономического механизма взаимодействия туризма и авиационного транспорта. Автореферат диссертации, elibrary.ru.

45. Ибрагимов Н.С. Ўзбекистонда халқаро туризмни ривожлантиришда “дестинацион менежмент” концепциясини қўллаш. Автореферат. Самарқанд, 2008, 24 б.

46. Котельникова В.Е. Управление развитием услуг транспортной инфраструктуры туризма. Москва: 2014. Экономическая библиотека -

<http://economy-lib.com/upravlenie-razvitiem-uslug-transportnoy-infrastruktury-turizma#ixzz5rxSiluU8>

## V. Internet saytlari:

47. <https://stat.uz/uz/> - O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi rasmiy sayti

48. <http://tshtx.uz> – Toshshahartransxizmat Aksiyadorlik Jamiyati rasmiy sayti

49. <http://www.xabar.uz/uz/jamiyat/7-davlatga-30-kunlik-vizasiz-rejim-39> - 7 davlatga 30 kunlik vizasiz rejim, 39 tasiga soddalashtirilgan vizalar

50. <https://www.trt.net.tr/uzbek/turk-dunyosi/2019/02/20/12345678910-1149203> - Buxoroda I-Xalqaro ziyorat turizmi forumi o‘tkaziladi

51. <https://www.google.com/maps/@39.7728893,64.4203187,559m/data=!3m1!1e3> –Google online xaritasi

52. <https://lifehacker.ru/offline-navigation-apps-for-android/> - 5 лучших офлайн-карт для Android

53. [https://www.facebook.com/pg/mytaxi.uz/posts/?ref=page\\_internal](https://www.facebook.com/pg/mytaxi.uz/posts/?ref=page_internal) – “MyTaxi” transport korxonasi facebook ijtimoiy tarmog‘idagi rasmiy sahifasi

54. <http://namangan.uz/uz/fuqarolar-uchun-taqdim-etilayotgan-interaktiv-davlat-xizmatlari/92-transport-xizmatlarini-tashkil-etish-bo-yicha-mavjud-yo-nalishlar-hamda-fuqarolardan-takliflar-qabul-qilish-to-g-risida-axborotlar> - Transport xizmatlarini tashkil etish bo‘yicha mavjud yo‘nalishlar hamda fuqarolardan takliflar qabul qilish to‘g‘risida axborotlar

55. [www.world-tourism.org](http://www.world-tourism.org) – Всемирная туристская организация

56. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1877042814054627> - Since Direct ilmiy maqolalar sayti

57. <https://mytaxi.uz/> - MyTaxi transport korxonasi rasmiy sayti

58. <https://www.estaxi.ru/taxi/50312/> - Easy Taxi transport korxonasi rasmiy



sayti

59. <https://ru-ru.facebook.com/yokotaxi/> - Yoko Taxi transport korxonasining Facebook ijtimoiy tarmogʻidagi rasmiy sahifasi

60. <https://taxi.yandex.uz/?lang=ru> – Yandex Taxi Uzbekistan rasmiy sayti

61. [www.wttc.org](http://www.wttc.org) – Всемирный Совет по путешествиям и туризму

62. [www.tag-group.com](http://www.tag-group.com) – Консультативная группа по вопросам туризма

63. [www.e-tours.ru](http://www.e-tours.ru) – деловые туры, выставки, конференции

64. [www.travel-library.com](http://www.travel-library.com) – Электронная библиотека путешествий

65. [www.uzbektourism.uz](http://www.uzbektourism.uz) – Oʻzbekiston turizmni rivojlantirish davlat

Qoʻmitasi rasmiy sayti

66. [www.president.uz](http://www.president.uz) – Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti

67. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – Oʻzbekiston Respublikasi elektron hujjatlar rasmiy sayti

68. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) – elektron kutubxonasi

69. [www.mygov.uz](http://www.mygov.uz) – Oʻzbekiston Respublikasi Davlat xizmatlari

## ILOVALAR

### Magistrant Sh.X.Kadirovning 2017-2019 yillarda chop etilgan ilmiy ishlar RO`YXATI

| T/r | Ishlarning nomi   | Ishlar-ning turi | Nashr to`g`risida ma`lumot  | Hajmi |
|-----|---|------------------|---|-------|
| 1   | 2   | 3                | 4   | 5     |
| 1   | The significance of transport services in the tourism marketing (ilmiy maqola)  | Bosma            | Студенческий вестник . Ilmiy jurnal. № 10(30), 5-qism, 2018 may. Moskva., “Интернаука” nashriyoti:2018.64-66 bb.  | 3-bet |
| 2   | O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishda onlayn transport xizmatlarining o‘rni*(ilmiy tezis)                           | Bosma            | “Turizm, ta’lim va iqtisodiyot tarmoqlar integratsiyasi” mavzusida o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to‘plami.2018 yil 25-may. – Buxoro: 2018. 299-302 bb.  | 4-bet |
| 3   | Human resources in tourism (some features and problems) (ilmiy maqola)  | Bosma            | “Новые подходы в обучении: Высшее образование как процесс развития потенциала к трудоустройству”/ Сборник статей международной конференции – Алматы: Университет Нархоз, 2018.115-122 bb.                                 | 8-bet |
| 4   | O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishda transport xizmatlarining roli (ilmiy maqola)                                  | Bosma            | Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab quvvatlash yiliga bag‘ishlangan “Tafakkur va talqin” magistratura talabalarining maqolalar to‘plami. Buxoro., “Durdona” nashriyoti.: 2018. 99-102 bb. | 4-bet |
| 5   | Buxoro viloyatida turizmni rivojlantirishda yangi transport marshrutlarini joriy qilishning ahamiyati* (ilmiy maqola) | Bosma            | Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yiliga bag‘ishlangan “Tafakkur va talqin” magistrantlar va iqtidorli talabalar ilmiy maqolalar to‘plami. Buxoro:2019. 22-24 bb. bb.  | 3-bet |
| 6   | O‘zbekistonda transport xizmatlarini ko‘rsatishda GATlardan foydalanish (ilmiy tezis)                                 | Bosma            | “Buxoroni turizm chorrahasiga aylantirish imkoniyatlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to‘plami. 2019 yil 25 may. Buxoro:2019. 17-19 bb.  | 3-bet |

\*A.T.Jo‘rayev bilan hammualliflikda.